

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MAHMUD PRIMQULOV, NIGORA G'ULOMOVA

**SELLYULOZA-QOG'ÖZ ISHLAB  
CHIQARISH MASHINA VA  
APPARATLARI**

*Sellyuloza va qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi va jihozlari  
mutahassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalar uchun  
o'quv qo'llanma*

Ushbu o'quv qo'llanma sellyuloza va qog'oz ishlab chiqarish sohasida ta'lim olayotgan bakalavr va magistrlarga mo'jallangan. Unda sellyuloza va qog'oz ishlab chiqarishda foydalaniladigan mashina hamda apparatlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Talabalar ushbu kitobdan mahsus fanlar bo'yicha kurs loyihasi va bitiruv malakaviy ishlari hisoblangan loyiha-konstrukturlik va loyiha-texnologik yo'nalishlari bo'yicha topshirilgan vazifalarni bajarishlarida qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Kimyo fanlari doktori, professor G.R. RAHMONBERDIEV umumiylah tahriri ostida.

Taqrizchilar: TKTI prorektori, t.f.d., prof. R.S. Sayfutdinov,  
t.f.d. I.A. Nabieva

Mazkur o'quv qo'llanma TKTI ilmiy-uslubiy Kengashi qaroriga asosan chop etildi  
(Bayonnomma №5. 21.06.2011-yil).

## K I R I S H

Ma'lumki, hozirgi kunning asosiy talablaridan biri respublikamizda tayyorlanayotgan mahalliy xomashyolardan unumli va samarali foydalaniib, ekspertbop mahsulotlar yaratishdir. Respublikamizda tayyorlanadigan asosiy mahalliy xom shyo — paxta hisoblanadi. Paxtadan esa xalq xo'jaligining turli sohalarida foydalaniladigan yuzga yaqin mahsulot olish mumkin. Respublikamizda sellyuloza va qog'oz ishlab chiqarish uchun ham paxta momig'idan foydalaniladi. Keyingi yillarda g'o'za, sholi moyasi, somon va boshqa bir yillik o'simliklardan ham sellyuloza qog'oz va karton ishlab chiqarishga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Buning uchun yangi sanoat korxonalarini ishga tushirilmoqda. Misol uchun shuni aytish mumkinki, O'zbekiston mustaqillikka erishishdan oldin faqat qog'oz ishlab chiqaruvchi „Toshkent qog'oz“ MCHJ mavjud edi. Hozirda sellyuloza-qog'oz sanoatida o'ngga yaqin sellyuloza, karton va qog'oz ishlab chiqaradigan korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozirda bu korxonalar tolali xomashyo sifatida paxta momig'i va yog'och sellyulozasidan foydalanadi. Ma'lumki, sellyuloza paxta monig'i asosida tayyorlanadi.

Qog'oz ishlab chiqarishda ishlataladigan sellyuloza bir yillik o'simliklardan olingan texnik sellyulozadan olinish usuli, ishlatalish sohalari, o'zining sifat ko'rsatkichlari bo'yicha farq qiladi.

Karton ishlab chiqarish uchun makulatura va bir yillik o'simliklardan olingan texnik sellyuloza ishlataladi. Yog'och sellyulozadan yozuv va bosma qog'oz ishlab chiqaradigan korxona „Namangan qog'oz“ MCHJ hisoblanadi. Sellyuloza va qog'oz ishlab chiqarishda ishlataladigan kimyoviy vositalarning asosiy qismi O'zbekistonda ishlab chiqariladi va turli davlatlarga eksport qilinadi.

Ushbu o'quv qo'llanma katalog tarzida yozilgan bo'lib, unda qog'oz ishlab chiqarishdagi texnologik jarayonlar soddadan murakkabga izchilligida quyidagi tartibda bayon etilgan:

- xomashyoni jarayonga tayyorlash;
- massa tayyorlash apparatlari;
- massa saqlovchi havza, sig'im va baklar;
- nasoslar;
- massa quyultirgich;
- massani nozik tozalash apparatlari;
- qog'oz, karton va sellyulozadan papka tayyorlash mashinalari;
- to'r stolining suvsizlantiruvchi elementlari;
- sanitar-gigienetik qog'oz olish texnologiyasi;
- qog'oz (karton) yuzasini pardozlash, bichim (format) bo'yicha qirqish;
- gofrirlovchi agregat.

Shuningdek, qoplama jihozlardan asosan, paxta momig'i va bir yillik o'simliklardan sellyuloza, qog'oz hamda makulaturadan karton ishlab chiqarishda foydalaniladigan asbob-uskunalarining qisqacha mazmuni ham bayon etilgan. Unda:

- paxta momig'ini mexanik aralashmalardan tozalash;
- bir yillik o'simliklarni (somon va g'o'zapoya) pishirishga tayyorlash;
- paxta momig'i va bir yillik o'simliklarni pishirish qozonlari, pishirish uchun kimyoviy vositalar tayyorlash va saralash apparatlari;
- sellyuloza massasini maydalash, saralash, tozalash va quyuqlashtirish apparatlari;
- sellyuloza papkasi, qog'oz va karton quyish mashinalari;
- sellyuloza papkasi, qog'oz va karton polotnolarini pardozlash;
- tayyor mahsulotlarni taxlash va o'rash usullari keltirilgan.


Bundan tashqari har bir bob so'ngida mavzuga oid masalalar va ularni ishlash usullari bayon etilgan.

O'quv qo'llanma sellyuloza va qog'oz texnologiyasi bo'yicha taxsil olayotgan talabalar uchun mo'ljallangan. Talabalar kurs loyihasi, malakaviy bitiruv ishlarini bajarishda ushbu kitobdan foydalanadilar.

Mazkur qo'llanma 5522600-yog'ochsozlik sanoati texnologiyasi, mashinalari va jihozlari ta'lim yo'nalishi bo'yicha „Sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarish korxonalari asbob-uskunalar“ fani dasturiga asosan yozilgan.

Ushbu o'quv qo'llanmaning qo'lyozmasini o'qib, uning sifatini yaxshilashga qaratilgan foydali maslahatlarini bergan t.f.d., professor R.S. Sazfutdinov va TTESI ning professori, t.f.d., I.A. Nabievalarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

*Mualliflar*



# I BOB. XOMASHYONI JARAYONGA TAYYORLASH

## 1.1. Paxta momig'ini mexanik aralashmalardan tozalash

Paxta momig'ini mexanik aralashmalardan tozalash mashina-apparatlari 1-jadvalda keltirilgan.


1-jadval

### Paxta momig'ini mexanik aralashmalardan tozalash mashina-apparatlari

Nº	Nomi	Texnik tavsifi	Me'yori
1.	AII-18 markali avtomatik apparat	1. Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat; 2. Pichoqli baraban diametri, mm; 3. El.dvigatel quvvati, kVt	750 250 7
2.	CH-4Y markali aralashtirgich	1. Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat; 2. Ish eni, mm; 3. Baraban diametri, mm: — tituvchi; — oluvchi; — baraban	800 152 406 375 375
3.	OH-6-II markali qiya tozalagich	1. Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat; 2. Ish eni, mm; 3. Qiya baraban diametri, mm; 4. Chiqargich silindr diametri, mm; 5. Pichoqli baraban bilan silindrlar orasidagi masofa, mm	650 1060 406 160 416
4.	Yuqori tezlikda ishlaydigan tozalagich	1. Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat; 2. El.dvigatel quvvati, kVt	500 7,5

AII-18 markali mashinaning vazifasi 18–20 ta toy shaklida o'ralgan paxta momig'ini toylardan oz-ozdan olib, tekislik darajasini bir me'yorga keltirish va havo yordamida keyingi jarayon — momig'ni titib, uning tarkibidagi og'ir qo'shimchalarni tozalash uchun siklon apparatiga uzatishdan iborat (1-rasm, A).

Uning tarkibiy qismi: aylanadigan kolonna, pnevmouzatkich, elektr asboblar va karetkadan iborat.



1.1-rasm (A). AII-18 markali ta'minlovchi mashinaning umumiy ko'rinichi.

U ikki turda yasaladi: birinchisida baraban ichidagi ignanining uzunligi 150 mm, ikkinchisida 200 mm (2-jadval) bo'ladi.

U paxta momig'ini titib, navbatdagi jarayonga uzatib beruvchi agregat asosiy tarkibidagi asosiy mashina hisoblanadi. Bu mashina asosan paxta momig'ining sifat ko'satkichlarini oshishiga yordam beradi.

2-jadval

### Al-18 markali ta'minlovchi mashinaning texnik tawsifi


Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat	800 gacha
Tolalarning o'rtacha uzunligi, mm	42 gacha
Aralashtirishga tayyorlangan toylar soni:	
— birinchisida	24
— ikkinchisida	18
Ignali barabandagi dvigatelning:	
— turi	AO10054Y3
— quvvati, kVt	3
— aylanish chastotasi, min	1500
Gabarit o'chamlari, mm	15 525x3485x3890
Massasi, kg	5600

Mashinaning texnologik sxemasi 1.1- rasm (B) da keltirilgan.


Paxta momig'ini qisman titib, navbatdagi texnologik jarayonga uzatuvchi apparatning boshqa turi — aralashtirgich-ta'minlagichdir. 1.2- rasmda uning texnologik sxemasi keltirilgan.

Bu apparatda paxta momig'ini titib aralashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: tayyor paxta momig' toyi (kip) sim va o'rالgan bo'zdan yechiladi, so'ngra mashina ta'minlagich panjarasi 1 ga uzatiladi.

Panjaradagi toy harakatdagi qiya o'matilgan ignali panjara 2 ga, so'ngra momig' tekislovchi val 4 ga beriladi. Mayda tililgan tolalar valdan o'tgach mayda tolalarni qabul qiluvchi val 5 ga keladi. So'ngra ular kolosnikli panjara 6 ga urilib, qisman yirik qo'shimchalardan tozalanadi va transpartyor 7 ga keladi.



1.1-rasm (B). Al-18 markali mashinaning texnologik sxemasi: 1 — aylanish kolonnasi; 2 — pichoqli baraban; 3 — tola o'tkazgich, 4 — paxta momig'ining toyi.



1.2-rasm. Aralashtirish-ta'minlash mashinasining texnologik sxemasi.

## Gorizontal turdag'i titish mashinasining ish uslubi

Bu mashinadagi paxta momig'i panjara 6 dan bosh ta'minlagichga uzatiladi. Ta'minlagichda titish, qisman tozalash va aralashtirish ishlari qaytariladi. Bosh ta'minlagichdagi momig' *horizontal titigich apparatinining* quvuriga havo yordamida uzatiladi va teshiklar o'yilgan baraban yuzasi 2 ga yupqa qatlam ko'rinishda so'riladi. Undan val 3 yordamida olinib, bunker 4 ga beriladi. So'ngra u val 5 va 700...800 aylana/min tezlikda harakatlanuvchi ta'minlochchi silindr 7 yordamida zichlanadi. Pichoqli baraban —gorizontal val 8 ga o'rnatalgan disklardan iborat bo'ladi. Pichoqli baraban tagiga panjara 9 o'rnatalgan. Pichoqlar bilan mayda tolalar ajratib olinadi va qisman tozalanadi. Iflos chiqindilar kamera 10 ga uzatiladi. Zaslonda 11 teshiklari orqali xonadan havo so'riladi va tilgan momig' quvur 12 orqali mashinadan chiqariladi.

**Siklon.** Paxta momig'i tarkibidagi og'ir mexanik aralashmalar (butun chigitlar, sheluba, chanoq bo'lak-chalari, mineral qo'shimchalar) aerodinamik usulda siklonda tozalanadi. Paxta momig'i havo aralash yuqori tezlikda apparatga tangensal yo'nalishda beriladi va aralashma apparat ichki devoriga urilib spiralsimon shaklada aylanadi. Natijada momig'ning yengil qismi — tola va ba'zi organik aralashmalar siklon markaziga o'rnatalgan quvur orqali chiqib, navbatdagi apparatga beriladi. Og'ir aralashmalar esa siklon apparatining pastida to'planadi. Paxta tolalari va yengil aralashmalar havo bilan siklon ichiga o'rnatalgan quvur 2 orqali titib tozalovchi OH-6-4M mashinasiga uzatiladi. Titish mashinasida paxta tollari yengil aralashma: poxol, paxta bargi va gulidan tozalanadi.

Og'ir aralashmalar miqdori kuzatish darchasi 4 yordamida aniqlanib, chiqindi to'planadigan aravaga tushirib turiladi. Siklonning asosiy ko'rinishi rasmda keltirilgan.

Siklon apparatining texnik ko'rsatkichlarini hisoblash quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Paxta momig'ini AП-18 markali yuklash mashinasidan OH-6-4M markali tozalagichga uzatish uchun siklon apparatiga beriladigan havo miqdori  $Q$ :

$$Q = \frac{Q_1}{\rho \mu}, \text{ m}^3 / \text{soat}$$

bu yerda,  $Q_1$  — uzatiladigan paxta momig'ining miqdori, kg/soat;  $\rho$  — paxta momig'ining hajm zichligi, kg/m<sup>3</sup>;  $\mu$  — uzatiladigan paxta momig'ining berilayotgan havo miqdoriga nisbati — 0,4...0,5.


2. Havo yordamida paxta momig'ini uzatuvchi quvur diametri  $d$  quyidagi formulalar yordamida aniqlanadi:

$$Q = 3600Fg, \text{ m}^3 / \text{soat}, \text{ bu formuladan quvur yuzasi}$$


topiladi:  $F = \frac{\pi d^2}{4}$  bundan,

$$d = \sqrt{\frac{4F}{\pi}} = \sqrt{\frac{4}{\pi} \frac{Q}{3600 g}} = 0,0188 \sqrt{\frac{Q}{g}} \text{ kelib chiqadi.}$$

bu yerda:  $g$  — quvurdagi havo tezligi, m/s.



1.3-rasm. Gorizontal turdag'i titish mashinasini.



1.4-rasm. Siklon:

1 — shutser; 2 — quvur; 3 — korpus;  
4 — kuzatish darchasi; 5 — chiqindilar to'plamadigan arava.

Masala. Uzluksiz ishlaydigan siklon apparatiga soatiga 1500 kg paxta momog'i uzatiladi. Paxta momig'i siklon apparatida tozalash uchun sarflanadigan havo miqdorini va paxta momig'inini uzatuvchi quvur diametrini aniqlang. Paxta momig'inining hajm zichligi  $\rho = 1,3 \text{ kg/m}^3$ , uzatiladigan paxta momig'inini berilayotgan havo miqdoriga nisbati  $\mu = 0,4$ . Quvurdagi havo tezligi — 20 m/s.

### Hisoblash.

1. Uzatiladigan paxta momig'inining miqdori:

$$Q = \frac{Q_1}{\rho\mu} = \frac{1500}{1,3 \cdot 0,4} \approx 2884,6 \text{ m}^3 / \text{soat}$$

2. Havo aralash paxta momig'inini uzatuvchi quvur diametri:

$$d = 0,0188 \sqrt{\frac{Q}{\rho}} = 0,0188 \sqrt{\frac{2884,6}{20}} = 0,2258 \text{ m} \approx 226 \text{ mm.}$$

„C“ markali siklonlarning texnik tavsifi 3-jadvalda berilgan.


3-jadval

„C“ markali siklonlarning texnik tavsifi

Siklon nomi	Siklon diametri, mm	Quvurning kesim yuzasi, m <sup>2</sup>	Ishlab chiqarish quvvati (havoga nisbatan), m <sup>3</sup> /soat	Balandligi, mm	Massasi, kg
Siklon C-250	250	0,00845	500—700	1150	18,1
Siklon C-300	300	0,01235	700—1000	1380	26,3
Siklon C-375	375	0,01755	1000—1500	1720	36,0

## 1.2. OH-6-4M markali tozalagich apparati

Bu mashinada paxta momig'i tarkibidagi organik aralashmalar (poxol, paxta bargi va shu kabilar) tozalanadi. Mashinaning texnologik sxemasi va asosiy o'lchamlari 1.5- rasmida keltirilgan. Mashinadagi paxta momig'i A kondensor 1 orqali bunker 2 ga beriladi. Undan chiqaruvchi 4 va ushlab turuvchi 5 silindrlar orqali ta'minlovchi 6 silindrga uzatiladi. Pichoqli baraban 7 lardan titib tozalangan paxta momig'i bunker 11 ga keladi. Chiqindilar esa chiqaruvchi quvur 12 orqali apparatdan chiqariladi.




1.5- rasm. OH-6-4M markali tozalagichning bo'ylama kesimi:

- 1 — kondensor; 2 — bunker;
- 3 — muvozanatlovchi po'lat sterjen;
- 4 — chiqaruv silindr; 5 — ushlab turuvchi silindr; 6 — ta'minlovchi silindr;
- 7 — pichoqli baraban; 8 — panjara;
- 9 — chiqindi uchun kamera; 10 — shit;
- 11 — bunker; 12 — chiqindini chiqarib tashlash tizimi; 13 — klapan.
- A — mahsulot yo'lli.

## Chang tozalash filtri


Chang-havo filtri asosiy va ayrim elementlarining chizmasi hamda o'lechamlari 1.6- rasmida keltirilgan.



1.6- rasm. Chang-havo filtri:


1 – qismi tozalash apparati (sikkot); 2 – filter; 3 – so'nuchni sopro; 4 – chiqindilarni zichlagichi; 5, 6, 7 – havo parraklari.

B—B ko'tinish




a

Chang o'tkazgich



b

Q—Q ko'tinishi



f


1.6-rasmning davomi (a, b, d).


### 1.3. Paxta momig'ini vertikal qozonda pishirish

Paxta momig'i pishirish qozoniga yuklashdan oldin yumshatilgan suv bilan namlanadi. Namlashdan maqsad tolalarni bo'ktirib, texnologik jarayonlar uzlusiz borishini osonlashtirishdir. Chunki namlashda suv tolalarning g'ovaklariga kirib, tola fibrillarini kengaytiradi (1.7- rasm, a) va natijada tolalar bo'kadi. Shu sababli mustahkam vodorod bog'lari uziladi va

1.7-rasm. Quritishda sellyuloza zanjirlari fibrillari bilan jips-lashganda vodorod bog'larining xosil bo'lish sxemasi.

a—xo'l tolalar orsidagi vodorod bog'lar; b—qurug tolalar orsidagi vodorod bog'lar.





1.8-rasm. Paxta momig'ini pishirish qozonning sxemasasi:

1 — pishirish qozoni; 2 — nasos; 3 — oqava suvni yig'uvchi havza; 4 — zanglamaydigan po'latdan yasalgan teshiklar o'yilgan silindr; 5 — „korj“ shaklida presslangan paxta momig'i; 6 — teshiklar o'yilgan disk; 7 — bug' radiatori.

tola fibrillari kuchsiz suv taranglik kuchlari bilangina bog'lanib qoladi (1.7-rasm, b). Bundan tashqari suv fibrillari orasida moylovchi vazifasini bajarib, tolalar orasidagi ishqalanish kuchini kamaytiradi.

Paxta momig'ini vertikal qozonda pishirishning texnologik sxemasining chizmasi 1.8-rasmda keltirilgan.

Dastlab paxta momig'i begona aralashmalardan tozalanib, namlanadi va qozonning ichiga joylashtirish uchun unga moslab „korj“ shaklida 220—250 kg atrofida paxta presslanadi. So'ngra qozon ichiga joylashtiriladi (1.8-rasmga qarang). Har bir „korj“ maxsus teshikli disklar 7 ga o'rnatiladi. Kimyoviy vositalar qozonning pastki qismiga o'rnatilgan radiator 8 ga bug' berilib 135—140°C da qizdiriladi. Qizdirilgan pishirish suyuqligi sirkulyasiyalovchi nasos 2 yordamida qozonga joylashtirilgan „korj“ ko'rinishidagi paxta momig'ining o'rta qismiga beriladi. Suyuqlik 0,3—0,4 MPa bosimda berilganligi sababli presslangan tolalar qatlidan o'tib, teshikli silindr bilan qozon orasidagi oraliqqa tushadi, undan nasos 2 ga boradi va yana qozonga qaytariladi. Shu tariqa pishirilgan paxta momig'i avval issiq, keyin sovuq suv bilan yuviladi. Ortiqcha suv siqilgan havo yordamida chiqariladi. Tayyor bo'lgan paxta sellyulozasi kran yordamida pishirish qozonidan chiqarib olinadi.


#### 1.4. IRS-2 markali universal somonmaydalagich

IRS-2 markali universal somonmaydalagich toy, rulon ko'rinishidagi somonni maydalashga mo'ljalangan. Agregatning quvvati 2 t/soat, elektr dvigatel quvvati 55 kWt. IRS-2 markali somonmaydalagichning umumiy ko'rinishi 1.9-rasmida keltirilgan. Maydalovchi barabanning diametri 800 mm, maydalovchi baraban eni 600 mm. Barabanning texnik tavsifi 4-jadvalda berilgan.

##### IRS-2 markali somonmaydalovchi barabanning texnik tavsifi


No	Ko'rsatkichlar	Qiymati
1	Qurilmaga yuklanadigan material	Somon
2	Yuklanadigan somon ko'rinishi, m	Rulon, bo'yli 1,5...2,0 m

3	Namligi	35 % gacha
4	Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat	2000 gacha
5	Maydalangan somon o'lchami ( to'rgabog'liq), sm	1—8
6	El.dvigatel quvvati, kVt	20
7	Qurilma o'lchamlari, m	3,8x2,0x2,7
8	Barabanning ichki diametri, m	1,83
9	Massasi, kg	1000



1.9-rasm. IRS-2 markali universal somonmaydalagich:

1 — texnik xizmat ko'sratish maydoni; 2 — himoyalagich; 3 — qiruvchchi pichoq; 4 — rotor; 5 — fiftyor; 6 — yuklovchi bunker; 7 — bunker elektr uzatkichini himoyalagich; 8 — elektrdvigatel rotorini himoyalagich; 9 — rotordagi elektr o'tkazgich; 10 — mahkamlovchi bolt; 11 — pona ko'rinishdagi tasma; 12 — protivorez bloki; 13 — rama; 14 — baraban tagi (chiqaruvchi qurilma bilan); 15 — boshqargich; 16 — roliklarni ushlab turuvchi blok; 17 — bunker elektr uzatkichi.



1.10-rasm. IS-1 markali somonmaydalagich:

1 — yuklovchi bunker; 2 — uzatuvchi transportyor; 3 — uzatuvchi vallar; 4 — maydalangan somonni chiqargich; 5 — maydalovchi baraban; 6 — g'ildiriklar; 7 — elektr uzatkich.

IS-1 markali somonmaydalagichning umumiy ko'rnishi 1.10-rasmida keltirilgan. Maydalovchi barabanning diametri 800 mm, maydalovchi baraban eni 600 mm.

Ishlashi. Bunker 1 ga yuklangan somon transportyor 2 yordamida uzatuvchi vallar 3 ga beriladi. Pichoqli baraban 5 yordamida maydalangan somon chiqaruvchi quvur 4 orqali chiqariladi. So'ngra maydalangan somon to'planib, mahsus mashina yordamida briket holiga keltiriladi.

### 1.5. O'simlik poyasini qirquvchi ZCQ<sub>3</sub> markali pichoqli rolikli apparat

Bu apparat g'o'za, somon va boshqa bir yillik o'simlik poyasini qirqib, pishirish qozoniga yuklashga tayyorlab beradi. Uning texnik ko'rsatkichlari 5-jadvalda berilgan.


5-jadval

### O'simlik poyasini qirquvchi ZCQ<sub>3</sub> markali pichoqli rolikli apparatning texnik tavsifi

Nº	Nomi	Birligi	Qiymati
1	Ishlab chiqarish quvvati	t/soat	7—8
2	Qirqim uzunligi	mm	20—40
3	Pichoqli rolik o'lchami	mm	F460x690
4	Pichoqli rolikning aylanish tezligi	aylana/min	400
5	Pichoqlar soni		3
6	Pastki qismida o'matilgan pichoqlar soni		1
7	Xomashyoni birinchi qirqishdagi rolik to'rining aylanish tezligi	m/min	21,2
8	Xomashyoni ikkinchi qirqishdagi rolik to'rining aylanish tezligi	m/min	21,2
9	Xomashyoni uchinchi qirqishdagi rolik to'rining aylanish tezligi	m/min	21,2
10	Xomashyoning chiqindidagi to'r tezligi	m/min	88,5
11	Vertikal rolik tezligi	m/min	23,7
12	Massasi	kg	7700
13	Hajm o'lchami	mm	10715x3671x2650
14	Elektrdvigatel	Y280M-6; 980 aylana/min	5,5 kVt;
		Y160M-6; 970 aylana/min	7,5 kVt;

### 1.6. Bir yillik o'simliklarni pishirish

O'zbekistonda bir yillik o'simliklardan somon, g'o'zapoya va sholdan qog'oz olinadi. Ularni pishirish shar shaklidagi pishirish qozonida olib boriladi. 1.11-rasmida bir yillik o'simlik poyasini shar shaklidagi qozonda pishirish sxemasi ifodalangan. Bu qozon Shirin shahrida qurilayotgan „Asl qog'oz“ nomli MCHJ (O'zbekiston Xitoy qo'shma korxonasi)da o'matilgan. Qozonning sig'imi 25 m<sup>3</sup> bo'lib, bug' qozonga bevosita beriladi. Xomashyo (somon yoki g'o'zapoya) dastlab maxsus giletina turidagi mashinada maydalanganadi, so'ngra apparatga yuklanadi. Pishirish vaqt xomashyo turiga bog'liq bo'ladi. Masalan, g'o'zapoyani pishirishda vaqt ko'proq, somonda esa kamroq vaqt sarflanadi.



1.11-rasm. Shar shaklidagi JQ25 markali pishirish qozoni:

1 — sharsimon korpus; 2 — mayatnik; 3 — asosiy podshipnik; 4 — chuvalchangsimon g'ildirak; 5 — chuvalchangsimon vint; 6 — dvigatel; 7 — tasmali aylantirgich; 8 — reduktor; 9 — mufta; 10 — dvigatel relsi; 11 — chuvalchangsimon podshipnik; 12 — podshipnik; 13 — asosiy podshipnikning pastki listi; 14 — yuklash joyi va qopqog'i; 15 — vintli cho'zib rostlagich; 16 — filtr qopqog'i; 17 — egilgan quvur; 18 — qaytargich klapani; 19 — havo kirish zadvijkasi; 20 — zadvijka; 21 — havo chiqaruvchi zadvijka; 22 — ehtiyot klapani; 23 — monometr; 24 — rostlovchi bolt; 25 — osma to'g'irlagich; 26 — vintli moy baki; 27 — moy kovakchasi; 28 — vintli val; 29 — bosimni kamaytiruvchi klapani.

Pishirish jarayonida shar aylanadi, natijada issiqlik va massa almashinish jarayoni yaxshi boradi. Qozonning asosiy texnik ko'rsatkichlari 6-jadvalda berilgan.

## JQ25 markali shar shaklidagi pishirish qozonining texnik tavsifi

Nº	Texnik parametrlar	JQ25 markali qozon parametrlari
1	Maksimal bosim, MPa	0,88
2	Maksimal ishlash bosimi, MPa	0,8
3	Belgilangan temperatura, °C	200
4	Ish temperaturasi, °C	175
5	Qozon korpusining ichki diametri, mm	3650
6	Qozon sig'imi, m³	25
7	Qozonning aylanish tezligi, ayl./min	0,48
8	Xomashyo yuklanadigan teshik o'lchami, mm	600x900
9	Bug' kiradigan quvur diametri, mm	80
10	Elektr dvigatel modeli va quvvati	Y132S-4, 1440 ayl./min; 5,5 kVt
11	Qozonning umumiy og'irligi, kg	11755 atrofida
12	Hajm o'lchamlari, mm	F 3685x5460

*Mavzuga doir masalalar ishlash*

**1-masala.** Paxta momig'ini pishirish qozonining bir sutkada ishlab chiqarish quvvati Q, kg/sutka ni hisoblang. 1 m³ qozondan olinadigan sellyuloza miqdori 100 kg, qozonning foydali ish sig'imi 20 m³, qozonning bir marta aylanishiga va ta'mirlashga sarflangan vaqt — 0,5 soat. Hisoblash formulasisi:


$$Q = \frac{a}{b} \frac{V}{\tau} 24,$$

bu yerda: a — qozonning 1 m³ idan bir sutkada olingan sellyuloza miqdori, kg; V — qozonning foydali ish sig'imi, m³; b — qozonning bir marta aylanishiga va qisqa ta'mirlashga sarflangan vaqt, soat.

**2-masala.** Paxta momig'i vertikal qozonda pishiriladi. Halqa shaklidagi W=110 % gacha namlab presslangan paxta momig'i ( $G = 1500$  kg) qozonga joylashtiriladi. Paxta momig'ini pishirishga sarflgan vaqt (bir sikl) 120 min, pishirish jarayonidagi isrof 8 %. Qozonda bir sutkada pishirilgan absolut quruq sellyuloza miqdori  $Q$ , t ni quyidagi tenglama yordamida hisoblang.

$$Q = \frac{G}{\tau} \frac{(100 - W - a)24}{100} 60,$$

bu yerda:  $\tau$  — paxta momig'ini pishirishga sarflgan vaqt (bir sikl), min; a — pishirish jarayonidagi isrof, %; W — paxta momig'inining namligi %.



Qog'oz massasini tayyorlash quyidagi texnologik jarayonlardan iborat: tolalarni ezib maydalash, yelimalash, to'ldirish, massani bo'yash, qog'oz massasini yig'ish (akkumullah), massa konsentratsiyasini kerakli ko'sratkichga suv yordamida yetkazish, massa tarkibidagi begona aralashmalarni va tugunlarni tozalash.


Tolali yarintayyor mahsulotlarni **maydalash**. Maydalash bu o'simlik tolalariga suv ishtirokida maxsus mexanik ishlov berish jarayoni hisoblanadi. Bu jarayon maxsus tegirmonda olib boriladi.

Paxta momig'idan sellyuloza massasini tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat:

- tolali xomashyoni pishirish;
- maydalash;
- saralash;
- quyuqlashtirish;
- nozik tozalash.

### 2.1. Paxta momig'ini Bi-ViS markali mashinada pishirish


Paxta momig'ini pishirish Bi-ViS markali (qisqacha Bi-ViS mashinasasi deyiladi) mashinada yoki vertikal sig'imli qozonlarda olib boriladi. 2.1- rasm (a, b, c, d)da bu mashinaning umumiy ko'rinishi, ishchi qismining massani qirqish jarayoni hamda umumiy chizmasi va uning o'lchamlari keltirilgan.




2.1-rasm (a). Bi-ViS mashinasi



2.1-rasm (b). Bi-ViS mashinasining ishchi organi



2.I-rasm (c). Bi-Vis mashinasining asosiy ko'tinishi va uning o'chamlari.



2.1-rasm (d).

## 2.2. Bi-Vis mashinasining tarkibiy qismi

Mashinaning asosiy tarkibiy qismiga shnek, shnek-press, shnekli konveyer va massa saqlovchi havzalar kiradi.

Mashinaning korpusi gorizontal ko'rinishda bo'lib, ichiga ikkita bir xil parallel o'rnatilgan shneklar joylashirilgan. Shneklar o'qi tayanch podshipniklariga o'rnatilgan bo'lib, elektro-dvigatel va reduktor orqali harakatga keltiriladi va boshqariladi.

**Shnek.** Mashinadagi ikkala shnek yechiladi. Ular almashtirib turiladigan qismlardan tarkib topgan. Bi — Vis mashinasining old qismiga o'rnatilgan shneklar ikki juft bo'lib, ular ikkita siqish zonasini tashkil etadi. Bu mashina 4 juft siqish zonasiga ega.

**Shnek-press.** Shnek-press gorizontal ko'rinishda bo'lib, shnek bilan ta'minlangan. U uchta filtrlash seksiyasidan o'tadi:

- kirish kamerasi;
- silindr panjaralari suvsizlantirish seksiyasi;
- chiqish kamerasi.

Bu qurilmalarning massa bilan ta'sirlashadigan qismlari zanglamaydigan po'latdan yasalgan.

**Shnekli konveyerlar.** Shnekli konveyerlar mashinadagi massani massa saqlovchi havzaga uzatadi. Shnekli konveyerlar korpus ichida harakatlanadi.

**Massa saqlovchi havzalar.** Massa ishlab chiqarish liniyasidan 150 m<sup>3</sup> sig'imli massa saqlovchi ikkita havzaga beriladi. Bu sig'imlar temir-betondan tayyorlangan bo'lib, ichki yuzasi keramik plitalar bilan qoplangan. Havzalarga o'rnatilgan aralashtirgichlar massani osma holatda ushlab turadi.

## 2.3. Maydalash

**TB-01sbAM markali barabanli latta qirquvchi apparat**  
(TU 26-08-388-76)

Makulaturalarning yana bir turi eski paxta va latta hisoblanadi. Lattaga ishlov berishdan oldin kerakli o'lchamlargacha maydalanadi. Bu jarayon mahsus apparatda bajariladi. Apparatda latta qirqilib, yarimtayyor massa tayyorlanadi.

**Tuzilishi:** mahsulotni stolga uzatuvchi tasmali transpartyor, qovurg'ali katta-kichik barabanlar, pichoqli barabon va karetka.

Transpartyorga berilayotgan latta qatlami qovurg'ali baraban yordamida zichlanib, qirqish zonasiga keladi va unda barabanga mahkamilangan pichoqlar yordamida qirqiladi va ezib maydalanadi, so'ngra pichoqlar bilan qo'shimcha maydalanadi va qiya oqim orqali konveyerga keladi.

Barabandagi pichoqlar orasidagi masofa va karetka eksentrikli qurilma yordamida boshqariladi. Harakatlanadigan baraban markaziy mufta orqali eletrdvigatel yordamida aylanadi. Qovurg'ali baraban esa — alohida elektr dvigatel orqali harakatga keltiriladi. Quyida ushbu apparat chizmasi (2.2-rasm) va texnik tavsifi (7-jadval) keltirilgan.

7-jadval


**TB-01sbAM markali barabanli latta qirqich apparatinining texnik tavsifi**

Ishlab chiqarish quvvati, t/soat	5
Uzatuvchi transportyorning tezligi, m/s	0,295
Transportyor yo'lagining eni, mm	440
Latta qirqiladigan stoldagi lattaning maksimal qalinligi, mm	40
Diametri, mm: — katta qovurg'ali baraban — kichik qovurg'ali baraban	250 180

Pichoqli baraban dvigatelining turi Quvvati, kVt Aylanish chastotasi, min $^{-1}$	AOP2-92-8 55 740
Uzatuvchi baraban dvigatelining uzatmasi: — turi — quvvati — aylanish chatotasi, min $^{-1}$	4AS10054 3 1500

Pichoqli baraban:	
— diametri, mm	610
— aylanish chastotasi, mm <sup>-1</sup>	740
— pichoqlar soni	4
Mahkamlangan pichoqlar soni:	
— staniminada	1
— karetada	8


Gabrit o'lchamllari, mm	4485x1800x1165
Massasi, kg	Ko'pi bilan 5135



2.2- rasm. TB.01sbAM markali barabani latta qirquvchi apparat:  
1 — pichoqli barabanni harakatga keltiruvchi val; 2 — qovurg'ali baraban; 3 — uzatuvchi stol;  
4 — transportyor; 5 — kareta; 6 — dvigatel; 7 — pichoqli barabanning dvigateli.

### ГРВм-02 va ГРВм-03 markali gidromaydalagichlar (TU 26-08-176-74)

Bu turdag'i gidromaydalagichlar makulaturani titishga mo'ljallangan. Gidromaydalagich — vertikal holatda; ochiq vanna, rotor va uzatmadan iborat bo'ladi. Vannadagi massa sathini bir xil balandlikda saqlab turish uchun gidromaydalagichga mahsus quti o'rnatilangan. Vannaning pastki qismida teshikli to'r bor, to'r orqali tayyor tolali suspenziya (massa) tashqariga chiqiladi. Zaruriyatga qarab to'r diametri 8, 12 yoki 25 mm bo'lishi mumkin (8-jadval). Rotor uzatmasi — tasma orqali elektr dvigateldan keladi.



2.3-rasm. GRVm-02 va GRVm-03 markali gidromaydalagichlar:

1 — vanna; 2 — elevator; 3 — uzatuvchi qutu; 4 — rotor uzeli; 5 — uzatma; 6 — jgut olib chiquvchi.

Gidromaydalagich uzuksiz ishlaganda suv va material tegishli miqdorda uzuksiz berib turiladi, tayyor massa esa nasos yordamida olinadi.

Og'ir massali begona qo'shimcha yo'qotish maqsadida gidromaydalagichga ifoslarni yig'gich va maydalanmaydigan materialni chiqarib tashlash uchun jgut chiqargich o'rnatilgan.

8-jadval


#### ГРВm-02 va ГРВm-03 markali gidromaydalagichlarning texnik tavsifi

Nomi	ГРВm-02	ГРВm-03
Ishlab chiqarish quvvati (uzuksiz ishlaganda), t/sutkada	13-45	18-55
Massa konsentratsiyasi (ko'pi bilan), kg/m <sup>3</sup>	38	30
Vanna diametri, mm	2800	3400
Rotor:		
— diametri, mm	1180	1430
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	265	235
Elektr dvigatel quvvati, kVt	56	75
Jgut chiqargich:		
— barabanining aylanma tezligi, m/min	0,083	0,083
— el.dvigatel quvvati, kVt	1,1	1,1
Gabarit o'lchamlari, mm:	4600x4220x5390	4900x4430x5410
Massasi (el.dvigatel va extiyot qismlari bilan), t	9,51	11,32

#### ГРВm-04 va ГРВm-05 markali gidromaydalagichlar

(TU 26-08-498-73)

Bunday gidromaydalagichlar sellyuloza, yarimfabrikat va nuqsonli qog'ozlarni titishga mo'ljallangan.



2.4-rasm. ГРВ-04 va ГРВ-05 markali gidromaydalagich:

1 — vanna; 2 — tayanch; 3 — dvigatel; 4 — reduktor; 5 — rotor; 6 — quti.

Gidromaydalagich — vertikal holatda; to'rt oyoqqa o'rnatilgan vanna, podshipnikli uzel, quti, rotor va harakatni uzatkichlardan iborat (2.4-rasm).

Vanna sharti ravishda yuqori va pastki qismalarga bo'singan. Uning yuqori qismida vannaning silindr qismi va qopqog'i bor. Pastki qismiga (markazga) rotor va saralovchi elak o'rnatilgan.

Tayyor tolali suspenziya elak tagidagi bo'shliqqa keladi va quvur orqali qutiga beriladi.

Ishlatilish turiga qarab elak teshiklarining diametri 8, 12, 25 mm bo'ladi. Uning yuqori qutisining vazifasi gidromaydalagichning to'xtovsiz ishlashini ta'minlashdan iborat. Vannadagi massaning sathi shaber yoki avtomatik asbob yordamida bir xil balandlikda ushlab turiladi. Gidromayfalishlarning texnik tavsisi 9-jadvalda keltirilgan.

9-jadval

#### ГРВ-04 va ГРВ-05 markali gidromaydalagichlarning texnik tavsisi

Nomi	ГРВ-04	ГРВ-05
Ishlab chiqarish quvvati (uzluksiz ishlaganda), t/sutkada	25-75	40-130
Massa konsentratsiyasi, (ko'pi bilan) kg/m <sup>3</sup>	20	20
Vanna diametri, mm	4200	4800
Rotor:		
— diametri, mm	1765	2020
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	200	180
Elektr dvigatel quvvati, kWt	110	180
Gabarit o'lchamlari, mm:	6050x4360x7320	7415x6400x6260
Massasi (el.dvigatel va extiyot qismlari bilan), t	19,52	23,89


#### ГРВи-06 markali gidromaydalagich

(TU 26-08-738-83)

Bu apparatning umumiy ko'rinishi va gabarit o'lchamlari 2.5-rasmida keltirilgan.

Bu gidromaydalagich iflosianmagan sellyuloza, yog'och massasi va nuqsonli qog'ozlarni suvdan titishga mo'ljallangan.

Gidromaydalagich — vertikal holatda; rotorli agregat, rotor uzatmasi, gidromaydalagich mechanizmlarini boshqaruvi pultidan iborat.



2.5-rasm. ГРВи-06 markali gidromaydalagich:  
1 — vanna; 2 — dvigatel; 3 — rotorli agregat.


Rotor ostida joylashgan to'r massani begona aralashmalardan, tugun va tutamlardan tozalashga mo'ljallangan. Gidromaydalagich to'ning diametri ishlatalish sohasiga qarab — 3, 6, 12, 24 mm bo'ladi (10-jadval).

10-jadval

#### ГРВи-06 markali gidromaydalagichning texnik tavsifi

Nomi	ГРВи-6
Ishlab chiqarish quvvati (uzluksiz ishlaganda), t/sutkada	18—60
Massa konsentratsiyasi (ko'pi bilan), kg/m <sup>3</sup>	2,5—5
Vanna, mm	
— diametri	2400
— sig'imi, m <sup>3</sup>	6
Rotorning:	
— diametri, mm	610
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	Kamida 570
Gabarit o'lchamlari, mm:	4300x2556x4538
Massasi (el.dvigatel va extiyot qismlari bilan), t	5,6

#### ГРВ-02-1 markali gorizontal gidromaydalagich (TU 26-08-515-74)



2.6-rasm. ГРВ-02-1 markali gorizontal gidromaydalagich:  
1 — vanna; 2 — tayyor qutii;  
3 — rotor; 4 — uzatkich.

Bu gidromaydalagich yarimmahsulot (selliyuloza, yog'och massa) va nuqsonli qog'ozlarni titishga mo'ljallangan. Gidromaydalagich vanna rotori, quti va dvigateldan iborat.

Vanna ikki qavatlari po'lat list yordamida payvandlangan. Vanndagi tolalar to'piga mexanik ta'sir etish maqsadida pichoqlar o'rnatilgan. Rotor — korroziyaga chidamli po'latdan yasalgan. Gidromaydalagichning texnik tavsifi 11-jadvalda keltirilgan.


11-jadval

**ГРВ-02-1 markali gorizontal gidromaydalagichning texnik tavsifi**

Nomi	ГРВ-02-1
Ishlab chiqarish quvvati (uzluksiz ishlaganda), t/sutkada	7—20
Massa konsentratsiyasi (ko'pi bilan), kg/m <sup>3</sup>	Ko'pi bilan 25
Vanna sig'imi, m <sup>3</sup>	2,5
To'r teshiklari diametri, mm	10
Rotor:	
— diametri, mm	450
— aylanish chastotasi, min $^{-1}$	770
Dvigatel:	
— turi	4A200L6U3
— quvvati, kVt	30
— aylanish chastotasi, min $^{-1}$	1000
Gabarit o'lchamlari, mm:	2755x2012x1480
Massasi (el.dvigatel va extiyot qismlari bilan), t	2,14


**Vertikal rotorli gidromaydalagich**

Bunday gidromaydalagich tolali materiallarni titishga mo'ljallangan. U quyidagi qismlardan iborat: silindr shaklidagi usti oschiq vanna, vertikal val yordamida aylanadigan pichoqli disk. Shunga o'xshash pichoqlar vannaning tagiga ham o'rnatilgan. Unga diametri 6—8 mm li metalldan yasalgan to'r joylashtirilgan (2.7-rasm).



**2.7-rasm. Vertikal rotorli gidromaydalagich:**

1 — ayanuvchi pichoqli disk (rotor, 25-betga qarang); 2 — chiqit chiqargich; 3 — suv berish joyi; 4 — zaslona; 5 — to'r; 6 — qo'zg'almas pichoqlar; 7 — jgut chiqadigan joy; 8 — massanening toshib turishini me'yorlovchi to'siq; 9 — massa chiqaradigan joy; 10 — zaslona; 11 — chiqarish tigini; 12 — qum tindirgich.



2.7-rasm. Vertikal rotorli gidromaydalagich (davomi).

#### 2.4. PMB-8-1 markali massa roli (TU 26-08-702-81)

Bu apparat qisman maydalangan lattalarni to'liq maydalab, massa tayyorlashga mo'l-jallangan. U uzlusiz ravishda ishlaydi. Bu apparat zarur bo'lganda davriy holatda ham ishlashi mumkin.

Roll — temir-betondan yasalgan vanna, maydalovchi baraban, qalpoq va plankali qurilmadan iborat. Vanna to'siq yordamida ikki qismga — ishchi va teskari kanallarga bo'lingan. Ishchi kanalda maydalovchi barabandan keyin gorka (to'siq) joylashgan, undan maydalangan massa otib turadi. Maydalash zonasidagi bosim rollning pastki qismida joylashgan mahsus pnevmokamera yordamida boshqariladi. Apparatning texnik tavsifi 12-jadvalda berilgan.

12-jadval


## PMB-8-1 markali massa rollining texnik tavsifi

Nomi	PMB-8-1
Ishlab chiqarish quvvati (havo quruqligidagi tolaga nisbatan), t/sutkada	15
Tolalarining massa ulushi, %	Ko'pi bilan 2,5
Vanna sig'imi, m <sup>3</sup>	8
Maydalovchi baraban:	
— diametri, mm	1500
— pichoqlar	90
— soni aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	145
Dvigatel:	
— turi	4A355S8Y3
— quvvati, kVt	132
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	750
— kuchlanishi, V	380/660
Plankadagi pichoqlar soni	47

Plankalar soni	3
O'rnatilgan quvvati, kVt	132,62
Gabarit o'chamlari, mm:	7100x5375x2450
Massasi (umumiy), kg	19 670

Latta maydalovchi barabanning tagida uchta pichoqli planka bor. Plankadagi pichoqlar baraban o'qiga nisbatan  $45^{\circ}\text{C}$  burchak ostida joylashtirilgan. Pichoqli plankalar va pnevmokamera betoniangan vannaning cho'yanli qismiga o'rnatilgan.

Roll ishlagan vaqtida massaning asosiy qismi gorka orqali maydalovchi barabandan beriladi va qaytish kanali orqali o'z oqimi bilan maydalash zonasiga keladi. Massaning boshqa qismi baraban yordamida ko'tarilib silliqlangan metalli fraksionizatorga borib uriladi va o'zining kinetik energiyasini yo'qotadi. Shu tariqa yirik aralashmalar vannada qoladi, maydalari lotokka oqib tushadi va rolldan chiqib ketadi.




2.8-rasm. PMB-8-1 markali roll va uning gabarit o'chamlari (mm):  
1 — dvigatel; 2 — barabanni aylantiruvchi mexanizm;  
3 — satho'chagich.

**2.5. МД-02-1 markali diskli tegirmon  
(OST 26-08-2001-76)**

Bu tegirmon sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarishda tolali materiallarni maydalash va maydalik darajasini bir xil o'lchamga keltirishga mo'ljallangan (2.9-rasm).

Tegirmon — uzlusiz ishlaydigan mashina. Aylanadigan bir diskli, aylanmaydigan diskli, kamerali bo'lib, bosim ostida massani berish va chiqarishga mo'ljallangan. Mashina stanimasining old qismida maydalash kamerasi (qopqog'i bilan) o'rnatilgan, unga prisadka mexanizmi joylasjtirilgan. Maydalash kamerasidagi rotor va stator orasidagi disklar yordamida massa maydalananadi. Disklar orasidagi tirkish maxsus mexanizm orqali o'rnatiladi (13-,14- jadvallar).




**2.9-rasm. МД-02-1 markali diskli tegirmon:**

1 — prisadka mexanizmi; 2 — kamera qopqog'i; 3 — rotor; 4 — stanina; 5 — mufta.

**13-jadval**

**МД-02-1 markali diskli tegirmonning texnik tavsifi**

Nomi	PMB-8-1
Ishlab chiqarish quvvati (quruq havodagi tolaga nisbatan), t/sutkada	10—35
Maydalovchi disk diametri, mm	500
Asosiy dvigatel:	
— turi	4A355S8U3
— quvvati, kVt	110
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	1000
— kuchlanishi, V	380/660
O'rnatilgan quvvati, kVt	110,92
Gabarit o'lchamlari, mm:	2995x940x1155
Massasi (umumiy), kg	4000



2.9-rasm. MD-02-1 markali diskli tegrimonning gabarit o'chamlari.

14-jadval

#### Diskli tegrimonning texnologik shtusterlari

Belgilar	Nomi	Soni	Shtutser diametri, D, mm	Bosimi, MPa
А	Massani berish	1	100	0,05–0,3
Б	Massani chiqarish	1	80	0,1–0,4
В	Suv tarqatish tizimiga suv yuborish	1	15	0,4–0,45
Г	Salnikdag'i suvni chiqarib yuborish	1	4	0,07–0,4
Д	Muzlatgichga suv berish	1	15	

#### 2.6. МД-14-1 markali diskli tegrimonning texnik tavsifi (OST 26-08-2001-76)

Bu tegirmon sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarishda tolali materiallarni maydalash va maydalik darajasini bir xil o'lchamga keltirishga mo'ljallangan.


Tegirmon — bosim ostida uzlusiz ishlaydi. U quyidagi asosiy qismlardan iborat: stanina, rotor, elektr dvigatel. Tegirmon qopqog'ida aylanmaydigan disk (stator) bor. Aylanadigan disk rotor valiga konsol holatda o'rnatilgan. Maydalash kamerasiga kirishdagi val salnik yordamida zichlangan (2.10-rasm). Diskli tegrimonning texnik tavsifi 15-jadvalda keltirilgan.

15-jadval

#### МД-14-1 markali diskli tegrimonning texnik tavsifi


Nomi	MD-14-1
Ishlab chiqarish quvvati (quruq havodagi tolaga nisbatan), t/suikada	20–65
Massa kirishidagi bosim, MPa	0,1–0,2

Massa konsentratsiyasi, %	2-6
Maydalovchi disk diametri, mm	630
Massa temperaturasi, °C	90 gacha
Asosiy dvigatel:	
— turi	AO3-355M-8
— quvvati, kVt	160
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	750
— kuchlanishi, W	380
O'matilgan quvvati, kVt	160,92
Gabarit o'lchamlari, mm:	3300x1000x1070
Massasi (umumiy), kg	5000



2.10-rasm. MD-14-1 markali diskli tegirmon:

1 — prisadka mexanizmi; 2 — qopqoq; 3 — aylanmaydigan disk; 4 — maydalovchi qism; 5 — rotor disk; 6 — salnik; 7 — stanina; 8 — rotor; 9 — tishli mufta.




2.10-rasm. MD-14-1 markali diskli tegirmonning gabarit o'lchamlari.

**2.7. МДС-24 markali ikki diskli tegirmon**  
**(OST 26-08-2001-76)**

Bu tegirmon sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarishda tolali materiallarni maydalash va maydalik darajasini bir xillashtirishga mo'ljallangan (2.11-rasm).


Tegirmon — ikki zonali maydalagichli, uzlusiz ishlaydigan mashina. U bosim ostida ishlaydi, bunda massa konsentratsiyasi 6% dan ko'p bo'lmaydi.

Tegirmonning asosiy qismlari: stanina, rotor, elektr dvigatelli prisadka mexanizmi, maydalash kamerasi, aylanadigan va aylanmaydigan disklardan iborat. Disklarda massani maydalaydigan qismlar o'rnatilgan. 16-jadvalda ikki diskli tegirmonning texnik tavsifi keltirilgan.



**2.11-rasm. МДС-24 markali ikki diskli tegirmon:**

1 — prisadka mexanizmi, 2 — kamera qopqog'i, 3 — aylanmaydigan disk, 4 — aylanadigan disk;  
 5 — maydalovchi qism; 6 — stanina, 7 — rotor, 8 — tishli mufta.



**2.11-rasm. МДС-24 markali ikki diskli tegirmonning gabarit o'lchamlari.**


Nomi	МДС-24
Ishlab chiqarish quvvati (havo quruqligidagi tolaga nisbatan t/sutkada)	70—240
Massa kirishidagi bosim, MPa	0,1—0,2
Massa konsentratsiyasi, %	2—6
Maydalovchi disk diametri, mm	800
Massa temperaturasi, °C	90 gacha
Bosh dvigatel:	
— turi	SDZ-2-630-750U3
— quvvatl, kVt	630
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	750
— kuchlanishi, V	6000
O'rnatilgan quvvati, kVt	630,37
Gabarit o'lchamlari, mm:	4095x1780x1500
Massasi (umumiy), kg	11070

## 2.8. МКЛ-01М markali konussimon tegirmon (TU 26-08-607-77)

Bu tegirmon sellyuloza-qog'oz sanoatida sellyuloza va boshqa tolali materiallarni maydalashga mo'ljallangan.

Konus shaklidagi tegirmon — bosim ostida uzlusiz ishlaydigan, massani maydalashga mo'ljallangan mashina bo'lib, u stator, rotor va uzatmadan iborat (2.12-rasm).

Tegirmon uzatmasi tishli mufta orqali dvigatelga ulangan. Massa kichik konus tomonidan kirish patrubkasi orqali maydalash zonasiga beriladi. Massa kichik konusdan katta konusga pichoqlar yuzasidan o'tish jarayonida massa gidravlik va mexanik ta'sirga uchrashi natijada maydalananadi. Massaning maydalanish darajasi rotor va stator pichoqlari yuzasi oralig'idagi tirqishga va tegirmonga berilayotgan massa miqdoriga bog'liq. Konusli tegirmonning texnik ko'rsatkichlari 17 va 18-jadvallarda berilgan.



2.12-rasm. MKL-01M markali konussimon tegirmon:


1 — tishli mufta, 2 va 7 — podshipnikli qismilar, 3 va 6 — salnikli zichlagichlar, 4 — stator, 5 — rotor, 8 — prisadka mexanizmi.

## MKJL-01M markali konussimon tegirmomonning texnik tavsifi

Nomi	MKJL-01M
Ishlab chiqarish quvvati (havo quruqligidagi tolaga nisbatan), t/sutkada	4—16
Maydalovchi disk diametri, mm	100
Dvigatel:	
— turi	AO2-92-6
— quvvati, kVt	75
— aylanish chastotasi, min $^{-1}$	985
— kuchlanishi, V	220/380
Gabarit o'lchamlari, mm:	3220x765x877
Massasi (umumiy), kg	2780

## MKJL-01M markali konussimon tegirmonning texnologik shtutserlari (2.12-rasminga qarang.)

Belgilari	Nomi	Soni	Shtutser diametri, D <sub>y</sub> , mm	Bosimi, MPa
B	Massani berish	1	100	0,3 gacha
B	Massani chiqarish	1	100	0,4 gacha
D	Sovutilgan suvni salniklarga berish	1	115	0,5 gacha




2.12-rasm. MKJL-01M markali konussimon tegirmon va uning gabarit o'lchamlari.



### 2.9. MKJL-03M markali konussimon tegirmon (TU 26-08-669-80)

Bu tegirmon sellyuloza-qog'oz sanoatida sellyuloza va boshqa tolali materiallarni maydalashga mo'ljallangan (2.13-rasm).

Konus shaklidagi tegirmon — stator, rotor prisadka mexanizmi va uzatmadan iborat. Uning texnik tavsifi 19, 20-jadvallarda keltirilgan.



2.13-rasm. MKII-03M markal komissarion tegirmen:  
1, 8—podshipniki; 2 va 7—salniklar; 3—chap korpus; 4—pichqoli qobiq; 5—rotor; 6—o'ng korpus; 9—prasadka mehanizmi.



2.13-rasm. MKJ-03M markali konusimon tegrimon va uning gabarit o'chamlari.

## MKL-03M markali konusli tegirmomning texnik tavsifi

Nomi	MKJ-03M
Ishlab chiqarish quvvati (quruq havodagi tolaga nisbatan), t/sutkada	11—75
Maydalovchi disk diametri, mm	150
Dvigatel:	
— turi	AO114-10M
— quvvati, kVt	200
— aylanish chastotasi, min $^{-1}$	600
— kuchlanishi, V	380
O'rnatilgan quvvat, kVt	200,4
Gabarit o'chamlari, mm:	4175x1175x1090
Massasi (umumiy), kg	7400

20-jadval

## MKL-03M markali konusli tegirmomning texnologik shtutserlari

Belgilar	Nomi	Soni	Shtutser diametri, Du, mm	Bosimi, MPa
B	Massani berish	1	150	0,3 gacha
V	Massani chiqarish	1	150	0,4 gacha
G	Sovutilgan suvni salniklarga berish	1	15	0,5 gacha


## 2.10. MII-00 markali pulsatsiyalovchi tegirmon

(OST 26-08-1439-81)



Bu tegirmon makulatura, nuqsonli qog'oz va sellyulozani titishga mo'ljallangan. Pulsatsiyalovchi tegirmon makulatura, qog'oz-karton quyish mashinalarida hosil bo'lgan nuqsonli qog'oz va sellyulozani maydalashdan oldin ishlov berishida va massani qog'oz — karton quyish mashinalariga berishdan oldin massa sifat ko'rsatkichlarini bir me'yorga keltirishda qo'llaniladi. Uning ishlash prinsipi tolalar to'pini pulsatsiya natijasida hosil qilingan bosimdan foydalanishga asoslangan.

Pulsatsiyalovchi tegirmon stator va rotordan iborat. Stator ishchi kameraga mahkamlangan bo'lib, stanina bilan birga yasalgan (2.14-rasm).

Tegirmonning ishchi organi — stator va rotor konussimon shaklda bo'ladi. Rotor va stator orasidagi tirqish maxsus mexanizm yordamida boshqariladi. Rotor valining uzatmasi mufta orqali dvigatelga birlashtirilgan. Tegirmon va dvigatel umumiy plitaga o'matilgan. Tegirmonning texnik tavsifi 21 va 22-jadvallarda berilgan.



2.14-rasm. MII-10 markali pulsatsiyalovchi tegrimon:  
1 — stator; 2 — rotor; 3 — statorina; 4 — tirqishini o'matish mehanizmi; 5 — tishli mustfa.



**2.14-rasm.** MII-00 markali pulsatsiyalovchi tegirmoning chizmasi va gabarit o'chamlari.

## MP-00 markali pulsatsiyalovchi tegirmonning texnik tavsifi

Nomi	MKJ1-03M
Ishlab chiqarish quvvati (quruq havodagi tolaga nisbatan), t/sutkada	5—25
Tolalar massa ulushi, %	2—5
Rotor diametri, mm	190
Ishchi sathlar soni	3
Dvigatel:	
— turi	4A180S2U3
— quvvati, kVt	22
— aylanish chastotasi, min $^{-1}$	3000
— kuchlanishi, V	380
Gabarit o'chamlari, mm:	1565x410x580
Massasi (umumiy), kg	680

## 2.11. MP-00 markali pulsatsiyalovchi tegirmonning texnologik ko'rsatkichlari

Belgilari	Nomi	Soni	Shtutser diametri, D, mm	Bosimi, MPa
A	Massani berish	1	100	0,1
B	Massani chiqarish	1	80	0,4
V	Sovutilgan suvni berish	1	8	0,5
G	Suvni chiqarish	1	8	0,5

2.11. MII-03 va MII-04 markali pulsatsiyalovchi tegirmonlar  
(OST 26-08-1439-81)


Ushbu tegirmonlar makulatura, nuqsonli qog'oz va sellyulozani titishga mo'ljallangan.

Pulsatsiyalovchi tegirmon makulatura, qog'oz-karton quyish mashinalarida hosil bo'lgan nuqsonli qog'oz va sellyulozani maydalashdan oldin ishlov berishda va massani qog'oz — karton quyish mashinalariga berishdan oldin hosil qilingan massanining sifat ko'rsatkichlarini bir me'yorga keltirishda qo'llaniladi (2.15-rasm).

Uning texnik tavsifi 23 va 24-jadvallarda keltirilgan.


## MP-03 va MP-04 markali pulsatsiyalovchi tegirmonlarning texnik tavsifi

Nomi	MII-03	MII-04
Ishlab chiqarish quvvati (quruq havodagi tolaga nisbatan), t/sutkada	25—95	50—165
Tolalar massa ulushi, %		
Rotor diametri, mm	375	400
Ishchi sathlar soni	3	3
Dvigatel:		
— turi	4A250S4U3	4A280S4U3
— quvvati, kVt		
— aylanish chastotasi, min $^{-1}$	75	110
— kuchlanishi, V	380	380
Gabarit o'chamlari, mm:	2200x575x825	2480x875x885
Massasi (umumiy), kg	1820	2300



2.15-rasm. MU-03 va MU-04 markali pulsatsiyalovchi tegrimonlar:  
1 — stator; 2 — rotor; 3 — stanina; 4 — tırqishning kattaligini rostlovchi mehanizm; 5 — tishli mufta.

A ko'rinish



2.15-rasmi. MII-03 va MII-04 martal pulsatistylovchi tegrimonlarning chizmasi va gaharit o'chamlari.

## MII-03 va MII-04 markali pulsatsiyalovchi tegirmonlarning texnologik sttutserlari

Belgililar	Nomi	Soni	Shtutser diametri, $D_u$ , mm	Bosimi, MPa
A	Massani berish	1	300	0,0—0,1
B	Massani chiqarish	1	150	0,2—0,4
B	Suvni berish	1	8	0,5
Г	Suvni chiqarish	1	8	0,5


*Mavzuga doir masalalar ishlash*

1-masala. Gidromaydalagichning ishlab chiqarish quvvati  $Q$  ni hisoblang. Qog'oz ishlab chiqarish korxonasining quvvati sutkasiga  $G = 30$  t/sut (1,25 t/soat)ni, massa konsentratsiyasi 3 % ni tashkil etadi. Hisoblash formulasi:

$$Q = \frac{G \cdot 100}{C}.$$

2-masala. Yarimtayyor mahsulot massasini 46 °ShR darajagacha maydalash uchun sarflanadigan elektr energiya miqdori  $A$  ni hisoblang. Maydalash uchun kerak bo'lgan sellyuloza,  $Q = 50$  t/sutka, maydalash uchun ishlatiladigan energiyaning solishtirma sarfi  $A_o = 12$  kVt.suat/t. OShR, oxirgi maydalanish darajasi  $P_s = 46$  °ShR ga teng, deb oling, boshlangich maydalanish darajasi  $P_b = 30$  °ShR. Yarimtayyor mahsulotni maydalashga sarflangan elektr energiya A miqdori quyidagi formula yordamida topiladi:

$$A = A_o \cdot Q \cdot (P_s - P_b), \text{ kVt. soat / sutka.}$$




### III BOB. MASSA SAQLOVCHI HAVZA VA BAKLAR

#### 3.1. Akkumullovchi baklar

Bu baklar tolali xomashyoni pishirishda ishlataladigan kimyoviy vositalarni qabul qilish va saqlash uchun mo'ljallangan. Ular yuqori bosim va temperaturada ham ishlaydi.

Tuzilishi. Bak silindr shaklida, qopqog'i va tubi yarim sfera ko'rinishida bo'lib, maxsus tayanchga o'matilgan. Tayanch payvandlab yasalgan rama yoki silindr shaklida bo'lishi mumkin. Bak suyuqlik sathini o'lchash uchun sath o'lchagich asbobi va bak ichini kuzatishga moslangan darcha bilan jihozlangan. Bak zanglamaydigan 08X17N15M3T markali po'latdan yasalgan (3.1-rasm). Uning texnik tavsifi 25-jadvalda keltirilgan.



3.1-rasm. Akkumullovchi bak:


A — ramali tayanch; B — silindr shaklidagi tayanch.  
1 — korpus; 2 — tayanch; 3 — hizmat ko'rsatish maydonchasi.

25-jadval

#### Akkumullovchi bakning texnik tavsifi

Ko'rsatkichlar	Markasi		
	202—69	202—67	202—68
Sig'imi, m <sup>3</sup>	100	140	200
Korpus diametri D, mm	4000	4000	4000
Bak balandligi, mm	12100	16860	19370
Ishchi bosim, ko'pi bilan, MPa,	0,6	1,0	1,3
Muhit temperaturasi, kamida, °C	120	170	210
Massasi, kg	25100	50890	65300

202-51 markali baklar  
(TU 26-08-706-82)



3.2-rasm. Tekis (a) va konus shaklidigi (b) qopqoqli baklar.


Bunday baklar sellyuloza-qog'oz va kimyo sanoatida suyultirilgan kimyoviy eritmalarni saqlashga mo'ljallangan. Tekis qopqoqli bak (a) xonaga o'matib foydalanishga, konussimon qopqoqli bak (b) xonada va xonadan tashqarida ishlatalishga mo'ljallangan (3.2-rasm). Qopqoq aylanasiga panjara o'matilgan. Bakning yuqori qismiga ko'tarilib, qopqog'ini ochib-yopish uchun uning yoniga narvon mahkamlangan. Qapqoq ustiga qo'yilgan yuk ko'pi bilan 150 kgs/m<sup>2</sup> ni tashkil etadi. Uning texnik tavsifi 26-jadvalda keltirilgan.

26-jadval

Tekis qopqoqli baklarning texnik tavsifi

Shartli belgi	Sig'imi (nomenal) m <sup>3</sup>	Ichki diametri, mm	Po'lat markasi	Gabarit o'lchamlari, mm	Massasi, komplektlari bilan, kg
202-51.00.00.000 -001 -002 -003 -004	50		VSt3sn3 09G2C 07X13AG20 08X22N6T 08X21N6M2T		6570
-005 -006 -007 -008			VSt3cn3+12X18H10T 20K+12XH10T VSt3sn+10X17N13.M2T 20K+10X17N13M2T	5168x 4060x 5150	6780
-009 -010 -011 -012 -013			VSt3sn3 09G2C 07X13AG20 08X22N6T 08X21N6M2T		7400
-014 -015 -016 -017	63		VSt3cn3+12X18H10T 20K+12XH10T VSt3sn+10X17N13.M2T 20K+10X17N13M2T	5168x4 060x61 50	7610

-018			VSt3sn3 09G2C 07X13AG20 08X22N6T 08X21N6M2T		8740
-019					
-020					
-021					
-022					
-023	80	4000	VSt3cn3+12X18H10T 20K+12XH10T VSt3sn+10X17N13.M2T 20K+10X17N13M2T	5168x4 060x77 50	8950
-024					
-025					
-026					
-027			VSt3sn3 09G2C 07X13AG20 08X22N6T 08X21N6M2T		9910
-028					
-029					
-030					
-031					
-032	100		VSt3cn3+12X18H10T 20K+12XH10T VSt3sn+10X17N13.M2T 20K+10X17N13M2T	5168x4 060x91 50	10120
-033					
-034					
-035					
-040			VSt3sn3 09G2C 07X13AG20 08X22N6T 08X21N6M2T		11193
-041					
-042					
-043					
-044					
-045			VSt3cn3+12X18H10T 20K+12XH10T VSt3sn+10X17N13.M2T 20K+10X17N13M2T	6216x5 216x77 50	11513
-046					
-047					
-048					
-049		5000	VSt3sn3 09G2C 07X13AG20 08X22N6T 08X21N6M2T		12616
-050					
-051					
-052					
-053					
-054	160		VSt3cn3+12X18H10T 20K+12XH10T VSt3sn+10X17N13.M2T 20K+10X17N13M2T	6216x5 216x91 50	12936
-055					
-056					
-057					



202-52 markali baklar  
(TU 26-08-727-83)

Bunday baklar sellyuloza-qog'oz va kimyo sanoatida suyultirilgan kimyoviy eritmalarini saqlashga mo'ljallangan. Tekis qopqoqli bakni xonaga o'rnatib foydalaniladi. Qopqoq aylanasiga panjara o'rnatilgan. Bakning yuqori qismiga ko'tarilib, qopqog'ini ochib qo'yish uchun uning yoniga narvon mahkamlangan (3.3-rasm). Suyultirilgan kimyoviy eritmalarini saqlovchi bak.

3.3-rasm. Suyultirilgan kimyoviy eritmalar saqlanadigan bak.

### 3.2. 204-135 markali suv havzasi (TU 26-08-675-80)


Bu suv havzasi selluloza-qog'oz ishlab chiqarishda selluloza, qog'oz, yog'och, makulaturali massa va aylanma sunvi qabul qilish va saqlashga mo'ljallangan (3.4-rasm).

U korpus, qopqoq va sirkulyasiyalovchi qurilmadan tashkil topgan. Tekis qopqog'i maxsus qovurg'alar bilan mahkamlangan.


Massani aralashtirish va bo'shatish ishlarini osonlashtirish maqsadida havza tubi qiya holatda yasalgan.

Massani aralashtirish gorizontal joylashtirilgan qurilma yordamida amalga oshiriladi. U korpus, val va vintdan iborat. Sirkulyasiyalovchi qurilma havza korpusiga mahkamlangan. Uning texnik tavsifi 27 va 28- jadvallarda berilgan.

Val elektr dvigatel yordamida harakatga keltiriladi.



3.4-rasm (a). Suv havzasining tashqi ko'rinishi.



3.4-rasm (b). 204-135 (markali havza:  
1 — sirkulyatsiyalovchi qurilma; 2 — qopqoq; 3 — korpus; 4 — havza tubi.

#### 204-135 markali havzanning texnologik shtutserlari

27-jadval

Belgilari	Nomi	Soni	O'tkazuvchi diametri, D mm	Shartli bosim, MPa
A	Massanig kirish joyi	1	500	0,3
B	Massanening chiqish joyi	1	500	0,3
D	Massanening toshishi	1	500	0,3
E	Massanening to'kilishi	1	250	0,1
F	Yuqorida kirish	1	500	—
G	Pastdan kirish	1	500	—
K	Sath o'Ichagich joyi	1	98	—

## 204-135 markali havzanning texnik tavsifi

Ko'rsatkichlar	Havza indeksi		
	204.135.00.000	204.135.00.000.01	204.135.00.000.02
Sig'imi, m <sup>3</sup>	200	180	145
Quruq havodagi tola massasi, t	10,2	9,18	7,4
Ish muhiti	Sellyuloza, qog'oz massasi, yog'och massasi, makulatura massasi, (H kamida5)		
Muhitdagi bosim			
Muhitdagi temperatura, oC	Ko'pi bilan 30		
Massa konsentratsiyasi, %	Ko'pi bilan 4,5		
Sirkulyasiyaloychi qurilma:			
— turi	SU-1800-75		
— vint diametri, mm	1800		
— vintning aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	130		
Dvigatel:			
— turi	AO-315M-10		
— quvvati, kVt	75		
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	600		
Gabarit o'lchamlari, mm:			
— uzunligi	9080		
— eni	7420		
— balandligi (H)	7060	6600	5600
Massasi, kg	21180	20240	18520

## 3.3. 204-49A, 204-51 va 204-62 markali yuqori konsentratsiyali massa uchun havza


(TU 26-08-563-75, TU 26-08-685-81 va TU 26-08-720-83)

Bunday havzalar tolali massa (selluloza, yog'och massa)ni to'plash (akkumullash) va ularni keyingi ishlab chiqarish jarayoniga uzatishga mo'ljallangan.

*Havzaning tuzilishi:* korpus, aralashtiruvchi qurilma, mahkamlash uchun rama va ish maydonchasi (3.5-rasm). Uning texnik tavsifi 29,30,31-jadvallarda keltirilgan.

Yuqori konseentratsiyali massa uchun  
204-49A, 204-51 va 204-62 markali havzalarning texnologik shtutserlari

Belgi	Nomi	Soni	Patrubka diametri, mm			Bosim, MPa
			204-49A	204-51	204-62	
A	Darcha	2	800			
B	Darcha	1	700			
D	Massanening chiqish joyi	2	600			
E	Massanening kirish joyi	1	500			
F	Aylanma suvning kirish joyi	1	400	200		
G	Yuvish	2	200			
H	Havo yo'lagi	1	200			



**3.5-rasm.** Yuqori konsentratsiyali massa uchun 204-49A, 204-51 va 204-62 markali suv havzalari:  
 1 — rama; 2 — massani yuklash; 3 — ish maydonchasi; 4 — korpus; 5 — suyultirish qurilmasi;  
 6 — harakatlantirgich; 7 — aralshtiruvchi qurilma.

30-jadval

204-49A, 204-51 va 204-62 markali yuqori konsentratsiyali massa uchun  
 havzalarning asosiy va gabarit o'chamlari, mm

Havza indeksi	D	d	h	H <sub>1</sub>	H <sub>2</sub>
204-49A	9000	6000	2500	15500	24900
204-51	11000	7000	2500	17000	27225
204-62	8000	5000	1800	10000	18530

31-jadval

204-49A, 204-51 va 204-62 markali yuqori konsentratsiyali massa uchun  
 havzalarning texnik tavsifi

Ko'rsatkichi	Havza indeksi			Ko'rsatkichi	Havza indeksi		
	204-49A	204-51	204-62		204-49A	204-51	204-62
Sig'imi (nomenal), m <sup>3</sup>	2000	1250	630	Reduktor turi	Ц2У- 400Н.10.21	Ц2У- 315Н.12,5	
Oqim quvvati, quruq havodagi tolalarganisbatan, t/sutka (ko'pi bilan)	800	400		Massani yuklash: dvigatel: quvvati, kVt Aylanish chastotasi min <sup>-1</sup> Valni aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	7,5	1500	252

Korpus uchun material: pH 4-7 pH 7-10	Stal 20K+10X17N13M2T StalVst3sp5+12X18N10T	Havzaning gabarit o'lchamlari, mm: — uzunligi — eni — balandligi: — massa solinganda — massa solinmaganda	12650 12160 34260 2750	11180 9250 30870 25350	9120 8150 24000 —
Tolalar massa ulushi %: — kirishda — chiqishda	16 4,5	Havza massasi (KIP bilan), t: — sellyuloza massasini solishdan oldin — sellyuloza massa solingandan keyin	173,5 169,4	122,7 119	80
Ishlash temperaturisi, °C	5—70				
Ishlash bosimi	Gidrostatik				
Aralashtirish qurilmasining: — vint diametri, mm — vintning aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	1800 98	1250 118			
Dvigatel: — quvvati, kVt — aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	110 986				

## Shnekli vertikal havzalar

Bu havza konsentratsiyasi 5 % va temperaturasi 90°C gacha bo'lgan sellyuloza massasini aralashtirish va saqlashga mo'ljallangan (3.6-rasm).


**Tuzilishi.** Havza silindr shaklida bo'lib, unga shtutserlar payvandlangan. Massani aralashtirish uchun ishlataladigan shnek valga sharnir ko'rinishda mahkamlangan. Sig'imi 25...630 m<sup>3</sup> bo'lgan havzalarga bittadan, sig'imi 1250 va 2500 m<sup>3</sup> li havzalarga uchtadan aralashtiruvchi, qurilma o'rnatilgan. Havza zanglamaydigan 08X17N15M3T markali po'latdan yasalgan (32-jadval).

32-jadval


## Shnekli vertikal havzaning texnik tavsifi

Parametr	Markasi				
	БВИИ-25	БВИИ-63	БВИИ-100	БВИИ-140	БВИИ-200
Sig'imi, m <sup>3</sup> — nominal — ishchi	25 20	63 50	100 80	140 112	200 160

Havza diametri, D, mm	3200	4000	5000	5000	6300
Quruq tola miqdori, ko'pi bilan, t	1,3	3,3	5,3	7,5	10,7
Aralashtiruvchi qurilma:					
— shnek diametri, mm	800	1250	1400		
— parraklar qadami, mm	600	1100	1100		
Qurilma quvvati, kVt	5,5	11,0	15,0	18,5	18,5
Gabarit o'lchami, mm:					
— uzunligi, L	3720	4720	6125	6125	7154
— eni, B	3500	4500	5830	5830	8760
— balandligi, H	4300	6100	6100	8830	8750
Massasi, kg	5200	9000	12300	17550	19500
Sig'imi, m <sup>3</sup>					
— nominal	320	400	630	1250	2000
— ishchi	256	320	500		
Havza diametri, D, mm	7000	8000	8500	11000	14000
Quruq tola miqdori, ko'pi bilan, t	16,5	21,3	33,5	66,5	106,5
Aralashtiruvchi qurilma:					
— shnek diametri, mm	1400	1700	1250	1400	
— parraklar qadami, mm	1100	1400	1100	1100	
Qurilma quvvati, kVt	30,0	30,0	55,0	90,0	111,0
Gabarit o'lchami, mm:					
— uzunligi, L	7854	8854	9354	11854	14854
— eni, B	9700	10700	11070	13700	16700
— balandligi, H	10405	10500	13675	16000	15750
Massasi, kg	23880	28350	37420	65000	95000



3.6-rasm. Shnekli vertikal havzaning umumiy ko'rinishi (a).




3.6-rasm. Shnekli vertikal havza qirqimi (b):  
1 — korpus; 2 — shnekli aralashtiruvchi qurilma;  
3 — qopqoq.


## Gorizontal aralashtirgichli havza

Bu havza konsentratsiyasi 5 % gacha bo'lgan sellyuloza, qog'oz va yog'och massasini aralashtirish va saqlashga mo'ljallangan.

Tuzilishi. Havza silindr shaklida bo'lib, unga shtutserlar payvandlangan, qopqog'i tekis, temirli burchaklar bilan mahkamlangan. Sellyuloza massasini aralashtirish uchun uzatmali qurilma bilan ta'minlangan. Sellyuloza massasi havzaning pastki qismidagi shtutser yordamida yuklanadi. Massa ko'pikanmasligi uchun patrubka uchi massaga botirilgan bo'lishi kerak. Havzaga massasini aralashtirish uchun uch parrakli ararashtirgich o'rnatilgan. Massani havzadan chiqarishni osonlashtirish maqsadida uning tubi qiya shaklida (15 dan 45°) ishlangan. U zanglamaydigan 08X17N15M3T markali po'latdan yasalgan (3.7-rasm). Havzaning texnik tavsifi 33-jadvalda berilgan.



3.7-rasm. Gorizontal aralashtirgichli havzaning umumiy ko'rinishi (a).



3.7-rasm. Gorizontal aralashtirgichli havza chizmasi (b):

1 — korpus; 2 — aralashtiruvchi qurilma;  
3 — qopqoq; 4 — silindr tubi.

33-jadval

### Gorizontal aralashtirgichli havzaning texnik tavsifi

Para-metrlari	Markasi							
	—	—	204-135A	204-135A-01	204-135A-02	204-135A-10	204-135A-11	204-135A-12
Sig'imi, m <sup>3</sup>	50	100	200	180	145	200	180	145
Havza diametri D, mm	4000	5000				7000		
Havzadagi tolalarining massasi, ko'pi bilan, t	2,9	5,8	8,04	7,245	5,83	11,58	10,42	8,39
Tolalar konsentratsiyasi, %	5	5		3,5			5	

Quvvati, kVt	24	30	44		72		
Gabarit o'chamlari, mm:							
— uzunligi, L	6000	7500		8890		8890	
— eni, B	4500	5500		7500		7500	
— balandligi, H	5100	6100		7077		6617	
Massasi, kg	8200	12600	18330	17670	16210	19190	18530
							17070

### 3.4. Yuqori konsentratsiyali massalar uchun standartlashtirilgan havzalar

Yuqori konsentratsiyali massalar uchun standartlashtirilgan havzalarning sig'imi va o'chami hisoblab chiqilgan. Bu havzalar konsentratsiyasi 16 % li sellyuloza massasini qabul qilish, saqlash va keyingi bosqichlarda 4,5 % gacha suyultirishda ishlataladi. Uning texnik tavsifi 34 va 35-jadvallarda berilgan.

34-jadval

Havzalarning asosiy o'chamlari


№	Sig'imi, m <sup>3</sup>	O'chamlari, mm				
		D	d	H	H <sub>1</sub>	H <sub>2</sub>
1	315	6400	4000	1800	6600	13400
2	630	8000	5000	1800	9600	17600
3	1260	9000	6000	2500	15500	24900
4	2000	11000	7000	2500	17000	28200
5	4250	12000	8000	3400	30000	421600
6	5000	14000	9000	3400	27000	41400

35-jadval

Yuqori konsentratsiyali massalar uchun vertikal havzalarning tavsifi

Texnologiya liniyasining quvvati, t/sutka (quruq tolalalar hisobida)	Havzaning sig'imi, m <sup>3</sup>	Havzaga kelayotgan sellyuloza massasining konsentratsiyasi, %		
100	315	9,0	10,0	12,0
160	630	12,0	14,0	16,0
200	—	9,5	11,0	13,0
250	—	8,0	9,0	10,5
315	1250	11,0	13,0	16,0
400		9,0	10,5	12,0
630	2000	9,5	11,0	13,0
800		8,0	9,0	10,0
1250	4250	9,0	11,0	12,0
1600	5000	9,0	11,0	12,5

### 3.5. Vertikal mashina havzasi



3.8-rasm. Vertikal mashina havzasi:  
1 — havza; 2 — parrakli aralashtiruvchi qurilma.


3.8-rasmda mashina havzasining vertikal konstruksiyasi keltirilgan. Massani parrakli aralashtirish qurilmasidan har doim ham foydalanib bo'lavermaydi. Masalan, uzun tolali, lattadan tayyorlangan hamda qimmatbaho qog'ozlar ishlab chiqariahda ishlatalidigan massalarни aralashtirishda boshqa havzalardan foydalaniladi. Chunki, massadagi uzun tolalar parrakka o'ralashib qoladi. Shuning uchun bu turdagи mahsulotlarni aralashtirishda parrakli aralashtirgichlardan foydalanilmaydi. 36-jadvalda havza va parrakli aralashtirgichning texnik tavsifi keltirilgan.

36-jadval

#### Vertikal mashina havzasining o'chamlari va aralashtirgich tavsifi

Havza sig'imi, $m^3$	d, m	o, m	Parrakli aralashtiruvchi qurilma		
			Parrak diametri, D, m	Aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	Elektr dvigatel quvvati, kVt
15—25	2,5—2,9	0,250	0,750	3,77	13
25—35	2,0—3,3	0,250	0,750	4,25	13
35—45	3,3—3,5	0,250	0,900	3,00	13
45—55	3,5—3,8	0,250	0,900	3,83	17
55—75	3,8—4,2	0,250	1,200	2,72	40
75—100	4,2—4,6	0,250	1,200	3,60	40
100—150	4,6—5,3	0,250	1,500	2,42	55
150—200	5,3—5,8	0,250	1,500	3,00	55


### 3.6. ЎУ-10-02 markali sirkulyasiyalovchi qurilma (TU 26-08-331-75)



3.9-rasm, a.

Bu qurilma sellyuloza-qog'oz sanoatida tolali materiallarni havzalarda aralashtirishga mo'ljallangan.

Sirkulatsiyalovchi qurilmaning asosiy qismi korpus, val va vintdan iborat. Uning texnik tavsifi 37-, 38 va 39-jadvallarda, tashqi ko'rinishi esa 3.9-rasm, a da berilgan.



3.9-rasm. ЪУ-10-02 markali sirkulyasiyalovchi qurilma chizmasi (b):  
1 — dvigatel; 2 — to'siq; 3 — korpus; 4 — val; 5 — vint.

37-jadval

ЪУ-10-02 markali sirkulyasiyalovchi qurilmaning texnik tafsifi

Aralashtirish vinti bilan bir marta aylanishdagi massa hajmi, $m^3$	0,5
Tolalarning massa ulushi, %	5
Vint: — diametri, mm — quvvati, kVt — aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	1200 40 186-236
Dvigatel: — turi — quvvati, kVt — aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	AO2-92-10 40 585
Gabarit o'lchamlari, mm	2900x1800x3000
Massasi, kg	3,05


3.7. ЪУ-750-13, ЪУ-900-17, ЪУ-1500-40, ЪУ-1800-75 markali sirkulyasiyalovchi qurilmalar

(TU 26-08-541-75, TU 26-08-542-75, TU 26-08-61-75, TU 26-08-338-75)

38-jadval

ЪУ-750-13, ЪУ-900-17, ЪУ-1500-40, ЪУ-1800-75 markali sirkulyasiyalovchi qurilmalarning asosiy gabarit o'lchamlari

Qurilma markasi	$D_1$	$D_2$	$D_3$	$L$	$L_1$	$L_2$
ЪУ-750-13	790	320	1000	1450	200	1775
ЪУ-900-17	940	280	1260	1700	200	1535
ЪУ-1500-40	1670	320	1600	2525	350	1900
ЪУ-1800-75	1900	360	1800	2785	350	2160



**3.10-rasm. ЦУ-750-13, ЦУ-900-17, ЦУ-1500-40, ЦУ-1800-75 markali sirkulyasiyalovchi qurilmalarning umumiy chizmasi:**

1 va 4 — to'siqlar; 2, 5, 6 — dvigatellar; 3 — aralashtirish mexanizmining o'qi; 7 — vint; 8 — halqa.

#### 39-jadval

**ЦУ-750-13, ЦУ-900-17, ЦУ-1500-40, ЦУ-1800-75 markali sirkulyasiyalovchi qurilmalarning texnik tafsiflari**

Ko'rsatkich	Qurilma markasi			
	ЦУ-750-13	ЦУ-900-17	ЦУ-1500-40	ЦУ-1800-75
Vint bilan bir marta aralashtirgandagi massa hajmi, m <sup>3</sup>	0,15	0,3	1,2	2,1
Tolalarning massa ulushi, %	2-4	2-6	2-6	2-6
Vint: — diametri, mm — aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	750 232	900 162	1500 117	1800 118
Dvigatel: — turi — quvvati, kVt — aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	AO2-71-8 13 750	AO2-72-8 17 750	AO2-92-10 40 600	АО3-31М-10 75 600
Gabarit o'chami, mm: — uzunligi — eni B — balandligi H	2260 1185 2725	2560 1370 2725	4240 1760 3216	4690 1990 3150
Massasi, t	1,072	1,115	3,48	3,02

## *Mayzuga doir masalalar ishlash*

**1-masala.** Sellyuloza massasi saqlanadigan havzaning sig'imi  $V$  ni,  $m^3$ , hisoblang. Massa miqdori 8 t/soat, quruq havodagi massaning namligi 12 %, massa saqlanadigan vaqt 2 soat, havzaning to'imaslik koeffitsienti 1,2, massa konsentratsiyasi 3 %. Hisoblash formulasi:

$$V = \frac{Q(100 - W)t}{C} K,$$

bu yerda:  $Q$  — quruq havodagi massa miqdori, t/soat;  $W$  — quruq havodagi massaning namligi, %; — massa saqlanadigan vaqt, soat;  $K$  — havzaning to'imaslik koeffitsienti;  $C$  — massa konsentratsiyasi, %.

**2-masala.** Gorizontal partrakli havza sig'imi  $V$  ni  $m^3$  hisoblang. Havzaning eni 2,5 m, havza uzunligi 5 m. Hisoblash formulasi:


$$V = (0,39 B^2 + 0,6 B^2)L \approx B^2 L, m^3$$

bu yerda:  $V$  — havzaning eni, m;  $h$  — havza ichidagi massa egallagan balandlik, m;  $L$  — havza uzunligi, m.  $h = 0,6 B$  ga teng.

**3-masala.** Vertikal havzaning sig'imi  $V$ ,  $m^3$  ni hisoblang. Havzaning diametri 1,8 m, balandligi 5 m. Hisoblash formulasi:

$$V = \frac{\pi D^2}{4} H,$$

bu yerda:  $D$  — diametri, m;  $H$  — balandligi, m.



## **IV BOB. NASOSLAR**

### **4.1. Sellyuloza massasini uzatuvchi nasoslar**


**Ishlatilish doirasi:** sellyuloza-qog'oz va karton ishlab chiqarish korxonalari.

**Ishlash muhit:** konsentratsiyasi 8 % gacha, pH ko'rsatkichi 2 dan 13 gacha va temperaturasi 100°C gacha bo'lgan qog'oz massasi va tolali yarimtayyor massalar. Uning texnik tavsiflari 40-jadvalda keltirilgan.

**40-jadval**

#### **БМ turidagi nasoslarning texnik tavsifi**


Markasi	Markasi (tip o'lchami)	Botirilgan chuqurligi, m	Uzatishi, m <sup>3</sup> /soat	Bosimi, m	Nasos quvvati, kVt
БМ	40/16	4%	40	16	5,5
БМ	56/31,5	2%	56	31,5	11
БМ	67/22,4	4%	67	22,4	11
БМ	80/15	5%	80	15	7,5
БМ	118/31,5	5%	118	31,5	22
БМ	125/20	6%	125	20	18,5
БМ	190/45	6%	190	45	55
БМ	236/28	7%	236	28	37
БМ	315/15	8%	315	15	30
БМ	355/63	7%	355	63	110
БМ	475/31,5	8%	475	31,5	75
БМ	530/22,4	8%	530	22,4	75
БМ	800/50	8%	800	50	200
БМ	900/31,5	8%	900	31,5	160
БМ	1500/45	8%	1500	45	400



**4.1-rasm. БМ markali sellyuloza-qog'oz va karton ishlab chiqarishda qo'llanildigan nasos.**

**DISCOFLO** markali diskli nasos (4.2-rasm). U massa konsentratsiyasi 8 — 18 %, quvvati sutkasiga 50 tonnagacha bo'lgan quruq havodagi sellyuloza ishlab chiqarishda ishlataliladi.

Nasos ishlaganda sellyulozaning maydalanish darajasiga ta'sir etmaydi, tolalarga shikast yetkazmaydi. Nasosning massa uzatish darajasi kam bo'lganligi sababli kichik korxona va laboratoriya sharoitida ishlataliladi.



4.2-rasm.


**IC** markali nasos (4.3-rasm). U konsentratsiyasi 1 — 3 % li sellyuloza massasini haydashga mo'ljallangan.

Ishlatilish doirasi: sellyuloza-qog'oz va karton ishlab chiqarish korxonalarini.

Massani haydash imkoniyati: soatiga 340 m<sup>3</sup> gacha.

Bosimi: 160 m gacha.

Massa temperaturasi: — 40 dan + 180°C gacha.



4.3-rasm.

**3175** seriyali nasos (4.4-rasm).


Nasos konsentratsiyasi 4 — 6 % li sellyuloza massasini haydashga mo'ljallangan.

Ishlatilish doirasi: sellyuloza-qog'oz va karton ishlab chiqarish korxonalarini.

Massani haydash imkoniyati: soatiga 6360 m<sup>3</sup> gacha.

Bosimi: 107 m gacha.

Massa temperaturasi: + 232°C gacha



4.4-rasm.

**3185** seriyali nasos (4.5-rasm).


Nasos konsentratsiyasi 4 — 6 % li sellyuloza massasini haydashga mo'ljallangan.

Ishlatilish doirasi: sellyuloza-qog'oz va karton ishlab chiqarish korxonalarini.

Massani haydash imkoniyati: soatiga 6000 m<sup>3</sup> gacha.

Bosimi: 125 m gacha.

Massa temperaturasi: + 232°C gacha



4.5-rasm.


**3500XD** seriyali nasos (4.6-rasm). Nasos konsentratsiyasi 16 % gacha sellyuloza massasini haydashga mo'ljallangan.

Ishlatilish doirasi: sellyuloza-qog'oz va karton ishlab chiqarish korxonalarini.


Massani haydash imkoniyati: soatiga 800 m<sup>3</sup> gacha.

Bosimi: 180 m gacha.

Massa temperaturasi: + 232°C gacha




4.6-rasm.




3500 XD seriyali nasos (4.7- rasm). Bu nasos massani oqartiruvchi minora va massa saqlovchi havzalarga o'rnatiladi.


4.7- rasm.




4.8- rasm.



4.9- rasm.



4.10- rasm.



4.11- rasm.

LP 3400 seriyali nasos (4.8- rasm).

Nasos sellyuloza massasini bosim qutisiga uzatishga mo'ljallangan.

Massani haydash imkoniyati: soatiga 50000 m<sup>3</sup> gacha;

Bosimi: 150 m gacha;

Trash Hog tipidagi massa so'ruvchi nasos (4.9- rasm).

Massani haydash imkoniyati: soatiga 1000 m<sup>3</sup> gacha.

Bosimi: 40 m gacha.

Massa temperaturasi: + 107 °C gacha

Massa tarkibidagi zarrachalarning maksimal o'lchami 76 mm gacha.

3186 seriyali „qaynoq“ pishirish qozoniga mo'ljallangan nasos (4.10- rasm).

Massani haydash imkoniyati: soatiga 4600 m<sup>3</sup> gacha.

Bosimi: 125 m gacha.

Massa temperaturasi: + 300°C gacha.

Ishlatilish doirasi: davriy yoki uzliksiz pishirish qozonidagi eritmani sirkulyasiyalash.

NBM markali konsolli markazdan ochma nasos (4.11- rasm).

Massa konsentratsiyasi: 6 % gacha, vodorod ko'rsatkichi: pH 2 dan 13 gacha.


## HBM markali nasoslarning texnik tafsifi

Model	Bosim, m	Uzatishi, m <sup>3</sup> /soat	Aylanish chastotasi, aylana/min	Quvvati, kVt
НБМ	22...25	35...65	1440	5,5
НБМ	26...22	40...75	1440	7,5
НБМ	32...28	40...80	1460	11
НБМ	37...33	50...100	1460	15
НБМ	43...37	55...110	1470	18,5
НБМ	40...35	80...160	1470	22
НБМ	34...29	70...140	1470	18,5
НБМ	16...11	160...240	970	15
НБМ	29...20	120...260	1470	22
НБМ	22...18	120...240	1470	18,5
НБМ	26...22	120...240	1470	22
НБМ	27...23	180...360	1470	30
НБМ	32...28	130...260	1470	30
НБМ	30...26	180...360	1480	37
НБМ	29...26	220...440	1480	45
НБМ	36...32	190...380	1480	45
НБМ	28...24	310...620	1480	55

SMO markali qog'oz massasi uchun nasos.

Massa konsentratsiyasi: 8 % gacha, vodorod ko'rsatkichi: pH 2 dan 13 gacha;

Temperatura: 100 °C gacha.



4.12- rasm.

#### 4.2. Ishqor va kislota eritmalarini uzatish uasoslari


Bochkadagi ishqor va kislotani aniq miqdorda beruvchi nasos (4.13- rasm).

Massani haydash imkoniyati: soatiga 10 m<sup>3</sup> gacha.


Bosimi: 12 m gacha.

Massa temperaturasi: + 60 °C gacha

Ishlatish doirasidagi har xil suyuqliklarni bochka, konteyner, konister va boshqa sig'imlardan tezda bo'shatishda ishlataladi.



4.13- rasm.



4.14- rasm.

Har xil kimyoviy reagentlarni aniq miqdorga uzatib beruvchi nasoslar (4.14-rasm).


Massani haydash imkoniyati: soatiga 25 l dan 2000 l gacha.

Bosimi: 200 bar gacha.

Dozalanuvchi massa temperaturasi: + 120 °C gacha.

Ishlatilishi: selluloza, qog'oz va karton ishlab chiqarishda reagentlarni (kaogulyant, flokulyant, kislota, ishqor, ko'pik so'ndirgich, emulgator, bo'yoyq, ingibitor va boshqa qo'shimchalar) me'yorida berishda ishlatiladi.


#### 4.3. Oqava suvlarni chiqarish uchun ishlatiladigan nasoslar



4.15- rasm.

SJM tipidagi markazdan qochma kuch asosida ishlaydigan nasos (4.15-rasm).


Oqava suv: zichligi 1050 kg/m<sup>3</sup>, temperaturasi + 5 dan + 90 °C gacha, vodorod ko'rsatkichi: pH 6 dan 13 gacha, abraziv zarrachalarning zichligi 3000 kg/m<sup>3</sup>, konsentratsiyasi ko'pi bilan 1 %, o'lchami 5 mm gacha.



4.16- rasm.

VK markali uyurmali nasos (4.16-rasm).

Bu nasos neytral, oqava suv va boshqa zahari kam suyuqliklarni chiqarishda ishlatiladi. Bunda suyuqlik temperaturasi — 40 dan + 85 °C gacha, qattiq qo'shimchalar ko'pi bilan 0,01 %, o'lchami 0,05 mm gacha bo'lishi kerak.



ZSC seriyali parrakli nasos (4.17- rasm).

Bu turdag'i vintli nasosning diametri 500, 700, 1000 mm bo'lib, selluloza massasini haydashga mo'ljallangan. Uning texnik ko'rsatkichlari 42-jadvalda berilgan.

4.17- rasm.


## ZSC seriyali parrakli nasoslarning texnik tavsifi

Nomi	ZTJ15(J)	ZTJ1(J)	ZTJ12(J)
Aralashtiriladigan massa hajmi, m <sup>3</sup>	20—40	40—60	70—150
Massa konsentratsiyasi, %		3-4	
Parraklarning aylanish tezligi, ayl./min	270	200	180
Elektrdvigatel modeli	Y135M1-6	Y60M-6	Y200L1-6
Quvvati, kW	5,5	11	18,5
Aylanish tezligi, ayl./min	960	970	970
Uch burchakli tasma	S3257	S4500	S5600
Hajm o'lchami, mm	F635	F920x1150	F1345x1190
Massasi, kg	487	650	1074
Sig'imdagi massa temperaturasi, °C		70	

*Mavzuga doir masala ishlash*

Masala. Massani havzalarga uzatish uchun massa nasoslarining ishlab chiqarish quvvati  $Q$ , m<sup>3</sup>/soat ni hisoblang. Massa hajmi  $V = 50$  m<sup>3</sup>/soat, sellyulozaning namligi  $W = 10\%$ , konsentratsiyasi  $C = 0,3\%$ ,  $z = 20$ . Hisoblash formulasi:

$$Q = \frac{V(100-W)}{zC}.$$



**V BOB. SELLYULOZA MASSASINI QUYULTIRISH  
APPARATLARI**

**5.1. CIII-06-01, CIII-12-01, CIII-19-01,  
CIII-25-01 markali shaberli (qirg'ichli) quyultirgichlar  
(TU 26-08-568-75)**


Shaberli quyultirgichlar har xil tolali suspenziyani quyultirishga mo'ljallangan.

Quyultirgich filtr apparat ko'rinishida bo'lib, uning asosiy ishchi organi — zanglamaydigan po'lat qoplamadan payvandlab tayyorlangan silindr dan iborat. Silindrga to'r sim kiydirilgan. To'rnинг raqamlari (to'qimadagi similarning zichligi) quyultiriluvchi massanening turiga va talab qilingan tozalik darajasiga bog'liq. Apparat ustiga shaber bilan val o'matilgan.

Silindr vannada aylanadi. Vannadagi issiqlikni saqlash va atrofga suyuqlik sachratmasligi uchun vanna usti qalpoq bilan yopilgan. Silindrda filtrat silindrning fagaqt bir tomonidan to'kiladi. Silindrning ikkinchi tomoniga po'lat qoplama payvandlangan. Silindrda aylanma suv sathi shaber orqali boshqariladi (5.1-rasm).

Silindr yuzasida to'plangan massa qabul qiluvchi bunkeriga oqib tushadi.

Quyultirgichning massaga tegib turgan barcha detallari zanglamaydigan po'latdan yasalgan. Uning texnik tavsifi 43, 44 va 45-jadvallarda keltirilgan.



**5.1- rasm. CIII-06-01, CIII-12-01, CIII-19-01, CIII-25-01 markali shaberli quyultirgichlar:**


1 — to'lginni tinchlantiruvchi to'siq; 2 — boshqaruvchi to'siq; 3 — qalpoq; 4 — shaber valini siqb turuvchi mexanizm; 5 — shaber vali; 6 — shaber; 7 — purkagich; 8 — qiya to'siq; 9 — silindr; 10 — vanna.

*43-jadval*

**CIII-06-01, CIII-12-01, CIII-19-01, CIII-25-01 markali shaberli  
quyultirgichlarning texnik tavsifi**

Ko'rsatkich	Quyultirgichlar markasi			
	CIII-06-01	CIII-12-01	CIII-19-01	CIII-25-01
Ishlab chiqarish quvvati (quruq tolalarga nisbatan), t/sutka: — sellyulozani — nuqsilonli qog'oz va makulaturani	20—25 8—12	30—45 15—25	50—75 25—40	70—90 30—50

Tolalarning massaulushi, %: — kirayotgandagi — quyultirilgan				0,4—1 5—7
To'qli silindrning parametrlari, mm: — diametr — uzunligi	1250 1500	1250 3000	2000 3000	2000 4000
Yon yuzasi, m <sup>2</sup>	6	12	19	25
Barabanni aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	2,2; 14,4; 16		14; 16; 18	
Baraban dvigateli: quvvati, kVt aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	2,2 1430	4 1430	11 1460	11 1460
Gabarit o'lchamliari, mm	3550x2250x 2555	5050x2250x 2555	5400x3020 x2720	6000x3050 x2555
Masasi, kg	4000	5500	9780	11500



5.2-rasm. CIII-06-01, CIII-12-01 markali shaberli quyultirgichlarning chizmasi va gabarit o'lchamliari (qays ichida CIII-12-01 quyultirgichning o'lchami)

44-jadval

CIII-06-01, CIII-12-01 markali shaberli quyultirgichlarning texnologik shtutserlari

Rasm-dagi belgilari	Nomi	Soni	Shartli o'tkazgich, D <sub>y</sub> , mm	Bosimi, MPa
			CIII-06-01	CIII-12-01
A	Massani berish	2	250	—
B	Quyultirilgan massanining chiqishi	1	225x900	—
D	Aylanma suvning chiqishi	1	315x445	—
E	Suvni purkatgichga berilishi	1	68	0,8

massa teoritiq tozalasun jarayonicha 1,5...2,0% gacha suyuladi. Tozalangan massani 3% gacha quyultirish uchun quyultirgich apparatiga uzatiladi. Massani quyultirish CIII-19-01, CIII-25-01 markali apparatlarda amalga oshiriladi. Ularning texnik tavsifi 45-jadvalda berilgan.

45-jadval

CIII-19-01, CIII-25-01 markali shaberli quyultirgichlarning texnologik shtutserlari

Belgilari	Nomi	Soni	Shartli o'tkazgich, $D_y$ , mm	Bosimi, MPa
			CIII-19-01	CIII-25-01
A	Massani berish	2	300	—
B	Quyultirilgan massanening chiqishi	1	220x1192	—
D	Aylanma suvning chiqishi	1	365x435	—
E	Suvni purkatgichga berilishi	1	65	0,6


**5.2. C2Б-07-35, C2Б-10, C2Б-16 markali ikki barabanli quyultirgichlar  
(OST 26-08-2010-77, TU 26-08-530-83, TU 26-08-730-83B, TU 26-08-723-83)**

Bunday quyultirgichlar sellyulozani saralash vaqtida ajralgan chiqindilar va yog'ochning tolali massasini suvsizlantirishga mo'ljallangan.

Qo'llanishi: yuqori konsentratsiyali massani maydalash, tolali yarimtayyor fabrikatlarni oqartirish, sellyulozani aerofontan usulida quritish va hokazo.

Quyultirigich korpus, teshikli baraban, barabonlarni mahkamash mexanizmi, shaberlar, lotka va uzatmalardan tashkil topgan (5.3, 5.4, 5.5-rasmlar).



Ularning texnik tavsifi 46, 47 va 48-jadvallarda berilgan.




**5.3-rasm. C2Б-07-35 markali ikki barabanli quyultirgich:**  
1 — barabonlarni siqib turish mexanizmi; 2 va 6 — shaberlar; 3 — korpus;  
4 — teshikli baraban; 5 — lotok; 7 — titgich, el. dvigatili bilan.

## C2Б-07-35, C2Б-10, C2Б-16 markali ikki barabanli quyultirgichlarning texnik tavsifi

Nomi	C2Б-07-35	C2Б-10	C2Б-16
Ishlab chiqarish quvvati (quruq tolaga nisbatan), t/sutka:			
— saralangan yog'och massasi, maydalanish darajasi 12-17 °ШР	20-250	70-335	50-300
— oqartirilmagan sulfatli sellyuloza, maydalanish darajasi 12-20 °ШР	34-175	50-250	40-225
— oqartirilgan sulfatli sellyuloza, maydalanish darajasi 12-20 °ШР	20-125	30-180	25-100
— oqartirilmagan sulfitli sellyuloza, maydalanish darajasi 12-20 °ШР	35-190	50-270	45-245
Suspenziyadagi tolalar konsentratsiyasi, %:			
— kirishda	1,5-5	1,5-5	1,5-5
— quyultirilganda	20-35	20-35	20-50
Barabanlar soni		2	
Baraban parametrlari:			
— diametri, mm	800	800	1000
— uzunligi, mm	1400	2000	2500
Yon yuzasi, м <sup>2</sup>	7	10	16
Aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	2-14	2-14	0,8-4
Barabanlar orasidagi masofa, mm	0-25	0-25	0-25
Titgichning aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	250	250	635
Barabanlar dvigateli:			
— soni	2	2	1
— quvvati, kVt	15	15	55
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	1000	1000	1000
Titgich dvigatelining:			
— quvvati, kVt	4	4	3
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	750	750	1000
Belgilangan quvvati, kVt	34	34	58
Gabarit o'lchamlari, mm	3840x2705 x1760	4590x2705 x1750	7000x3100x 2900
Massasi, kg	45010	16047	31660



5.4-rasm. C2E-07-35 va C2E-10 markali ikki barabanli quyultirgichlarning chizmasi va gaharit o'chamilar  
(qays ichida C2E-10 quyultirgichining o'chamilar)



**5.5-rusni.** C2E-16 ikki harabarli quyultirgich chizmasi va uying gabarit o'lcamlari.

## C2Б-07-35 va C2Б-10 qutirgichlarning texnologik shtutserlari

Belgilar	Nomi	Soni		Shartli o'tkazgich		Bosimi MPa
		C2Б-07-35	C2Б-10	C2Б-07-35	C2Б-10	
А	Massani quyultirgichga berish	1	2	250	200	0,1
Б	Quyuqlasjtirilgan massanining chiqish joyi	1	1	320x500	320x500	—
В	Aylanma suvning chiqish joyi	2	2	200	200	—
Г	Suvni vannaning yuvishga berish	1	1	50	50	—
Д	Suvni purkagichga berish	1	1	50	50	0,6


## C2Б-16 quyultirgichning texnologik shtutserlari

Belgilar	Nomi	Soni	Shartli o'tkazgich, $D_y$ , mm	Bosimi, MPa
А	Massani quyultirgichga berish	1	350	0,1
Б	Quyuqlasjtirilgan massanining chiqish joyi	1	2584x41	—
В	Aylanma suvning chiqish joyi	4	200	—
Г	Massani yuvib chiqarish joyi	1	250	—
Д	Suvni purkagichga berish joyi	1	100	0,6

**5.3. СЦВ-04 markali shabersiz quyultirgich**  
 (OST 26-08-2010-77, TU 26-08-206-73)

Bu apparat sellyuloza massasini quyultirishga mo'ljallangan.

Quyultirgichning asosiy ishchi organi zanglamaydigan po'latdan payvandlab tayyorlangan. U vannada aylanib turuvchi to'rli silindrda iborat (5.6-rasm). Quyultirgichning texnik tavsifi 49-va 50-jadvallarda berilgan.





**5.6-rasm. СЦВ-04 markali shabersiz quyultirgich sxemasi:**

1 — vanna; 2 — to'siq; 3 — to'rli silindr; 4 — massani chiqarish uchun 'shiber; 5 — parraf.

**49-jadval**

**СЦВ-04 markali shabersiz quyultirgichning texnik tavsifi**

Ishlab chiqarish quvvati (quruq tolaga nisbatan), t/sutka	40—55
Suspenziya konsentratsiyasi, g/l:	
— kirishda	2—4
— quyultirilgach	15—30
Silindrning aylanish chastotasi, min $^{-1}$	8; 10; 12; 14
Dvigatel:	
— turi	4A112M4Uz
— quvvati, kVt	5,5
— aylanish chastotasi, min $^{-1}$	1500
Gabarit o'lchamlari, mm	4700x2500x2300
Massasi, kg	5500



5.7-rasm. CUB-04 quyultirgichining chizmasi va gabarit o'chamlari.

## S2B-16 quyultirgichning texnologik shtutserlari

Belgililar	Nomi	Soni	Shartli o'tkazgich, $D_y$ , mm	Bosimi, MPa
A	Massani quyultirgichga berish joyi	2	250	—
Б	Quyuqlashtirilgan massanining chiqish joyi	1	200x1200	—
В	Aylanma suv chiqish joyi	1	240x400	—
Г	Suvning purkagichga berish joyi	1	65	0,1—0,4

Masala. Massani quyultirish, yuvish va to'r suvidagi sellyuloza tolalarni ushlab qolish uchun barabanli filtrdan foydalaniladi. Vakuum filtrni filtrlash yuzasi  $G'$ ,  $m^2$  ni hisoblang. Vakuum filtrga kelayotgan sellyuloza miqdori  $Q = 6$  t/sut,  $1 m^2$  filtrllovchi yuzadan olingan sellyuloza miqdori  $q = 7$  t/( $m^2 \cdot$ sut). Hisoblash formulasi:

$$F = \frac{Q}{q},$$

bu yerda:  $Q$  — vakuum filtrga kelayotgan sellyuloza miqdori. t/sut;  $q$  —  $1 m^2$  filtrllovchi yuzadan olingan sellyuloza miqdori, t/( $m^2 \cdot$ sut).

**VI BOB. SELLYULOZA MASSASINI NOZIK  
TOZALASH ASBOBLARI**

**6.1. Y3-09-01, Y3-12, Y3-13 markali yopiq tipdagi tugun tutgichlar  
(TU 26-08-614-77, TU 26-08-647, TU 26-08-79 va TU 26-08-647-79)**



Bunday tugun tutgichlar sellyuloza massasini qog'oz yoki karton quyish mashinasiga berishdan oldin massani tozalashga mo'ljallangan.

Tugun tutkichning tarkibiy qismi: yig'ma korpus, markazda joylashgan ikkita to'rli baraban, gidrodinamik parrak va dvigateledan iborat (6.1-rasm). Uning texnik tavsifi 51-, 52- va 53-jadvallarda keltirilgan.

*51-jadval*

**Y3-09-01, Y3-12, Y3-13 markali yopiq tugun tutgichlarning gabarit o'lchamlari**

Tugun tutgich markasi	$L_1$	$L_2$	$L_3$	$L_4$	$L_5$	$L_6$	$L_7$
Y3-09-01	1860	1060	1440	850	790	535	325
Y3-12	2200	1325	1740	965	880	530	530
Y3-13	2600	1780	2050	1200	1135	685	540



**6.1-rasm. Y3-09-01, Y3-12, Y3-13 markali yopiq tipdagi tugun tutgichlar:  
1 — plita; 2 — korpus; 3 — dvigatel; 4 — tashqi to'r; 5 — ichki to'r; 6 — parrak.**

Y3-09-01, Y3-12, Y3-13 markali yopiq tipdagi tugun tutgichlarning texnologik shartnarsleri

Nomi	Soni	Shartli o'tkazgich, $D_u$ , mm			Bosimi, MPa
		Y3-09-01	Y3-12	Y3-13	
Suspenziyani berish joyi	1	200	250	350	0,1—0,5
Suspenziyani chiqarish joyi	1	200	250	350	0,08-0,45
Og'ir chiqindilarni chiqarish joyi	1	80	80	100	—
Yengil chiqindilarni chiqarish joyi	1	80	80	100	0,03


Y3-09-01, Y3-12, Y3-13 markali yopiq tipdagi tugun tutgichning texnik tavsifi

Nomi	Y3-09-01	Y3-12	Y3-13
Ishlab chiqarish quvvati (quruq havodagi tolaga nisbatan), t/sutkada	60	110	200
To'rnинг umumiy maydoni, $m^2$	0,9	1,6	2,92
To'r teshiklarining diametri, mm		1,4—3	
Tolalar massa ulushi, %		1—13	
Vannadagi chiqindilarning konsentratsiyasi, %		3—5	
Rotordagi: — parraklar soni — aylanish chastotasi, min $^{-1}$	4 478	4 424	4 310
Dvigatel: — turi — quvvati, kVt — aylanish chastotasi, min $^{-1}$			
Gabarit o'chamlari, mm:	1860x1060 x1440	2200x1325 x1740	2600x1780 x2050
Massasi (umumiy), kg	1150	2350	3090

## 6.2. YBB markali tebranuvchi vannali tugun tutgich

Massa tarkibidagi tolalar ba'zan tugun ko'rinishiga o'tib qoladi. Bu tugunlar qog'oz sifatini pasaytiradi. Shuning uchun tola tuguni tuz tutkich apparatida ajratib olinib, maydalash uchun konus shaklidagi tegirmonga beriladi (6.2-rasm).

Tugun tutgich barabanining tubi ochiq bo'lib, massa ichiga tushiriladi va uzatma yordamida aylanadi. Tugun tutkich vannasi resorslar bilan mahkamlangan asosga o'rnatilgan va tebratuvchi mexanizmiga ulangan. Massa baraban uzatmasi yordamida vannaning yon tomonidan beriladi. Tozalangan selluloza massasi barabanning yon tomonidan chiqadi, barabanning ikkinchi tomoni yopiq bo'ladi.




#### 6.2-rasm. Tebranuychi vannall tugun tutgich:


1 — sellyuloza massasini vannaga beruvchi nov; 2 — vanna; 3 — baraban; 4 — bo'yin; 5 — val;  
6 — vannaning prujinali tayanchi; 7 — suv purkagich; 8 — tugunlar chiqadigan nov; 9 — massani  
ikkinchi marta saralashga beruvchi uzatma.

#### 6.3. Yuqori chastotali tebratkichli tugun tutgich

Bu tugun tutgichning barabani o'yiq teshikli bo'lib, massa ichiga chuqur botirilgan ( $\approx 85\text{--}90\%$ ) bo'ladi. U uzatma yordamida aylanadi. Tugun tutkich vannasi mahsus qurilmaga mahkamlangan. Massa vannaning yon tomonidan beriladi. Massa yuqori chastotali tebranish ta'sirida tozalanadi (6.3-rasm).



6.3-rasm (a). Lingren-Lensen tugun tutgichi:  
a — umumiy ko'rinishi.



6.3- rasm (b). Lingren-Lensen tuzun tutgichi: b — qırqimining sxernasi;  
1 — chiqarish novi; 2 — purkagich; 3 — qo'shimcha purkagich; 4 — ortiqcha massani chiqargich.

### Uyurmali tozalagich (Uyurma hosil qilish kuchi)

Uyurmali tozalagich turg'un apparat bo'lib, uning aylanish qismi yo'q. Bu tozalagich vertikal o'matilgan quvurdan iborat bo'lib, tozalagichdagi suyultirilgan massa markazdan qochma kuch ta'sirida ishlaydigan nasos yordamida beriladi (6.4-rasm).


Massa apparatning ust qismiga o'matilgan mahsus patrubkaga 0,18—0,2 MPa bosim ostida tangensial yo'nalishda beriladi. Natijada selluloza massasi spiral shaklida quvur devoriga sifilib pastga qarab harakatlanadi. Markazdan qochma kuch ta'sirida massa tarkibidagi og'iroq zarrachalar tashqi tomoniga, yengili ichki oqim tomoniga yo'naladi.

Quvurning pastki tomonida rezinkali diafragma bo'lib, u orqali og'ir chiqindilar chiqarib yuboriladi. Tozalangan tolali massa quvur markazidan o'tib, umumiy kollektorga keladi.

Masala. Ma'lumki, markazdan qochma kuchni F bilan belgilab, uning burchaging aylanish tezligiga bog'lilqagini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$F = \frac{mg^2}{r} = mr\omega^2$$

bu yerda,  $m$  — zarrachalar massasi, g. sek<sup>2</sup>/m;  $\vartheta$  — zarrachalarning chiziqli aylanish tezligi, m/sek;  $\omega$  — burchak aylanish tezligi, rad/sek;  $r$  — zarrachalar aylanayotgan doiranining bo'ylab aylanish radiusi, m.




6.4- rasm. Uyurmali tozalagich:  
1 — taqsimlash apparati; 2 — quvur; 3 — diafragma;  
4 — kuzatish darchasi; 5 — oqava chiqadigan quvur.

Uyrmali tozalagichlar har xil o'lchamlarda va tuzilishda (37 mm dan 250 mm gacha bo'lgan quvurlarda) ishlab chiqariladi. Tozalagich quvurning diametriga qarab, uning maksimal massa o'tkazishi quyidagicha bo'ladi:

Quvur diametri, mm	37	75	100	150	200	250
Maksimal massa o'tkazish darajasi, 1/min	110	560	1100	2500	4000	5400



#### 6.4. Markaziy kliner

Markaziy kliner sellyuloza massasini nozik tozalaydigan apparatlardan biri hisoblanadi. Apparat konus shaklidagi quvur bo'lib, yuqori qismidan massa 294—343 kPa bosimda beriladi. Natijada massa konusning ichki yuzasi bo'ylab spiralsimon uyurma hosil qiladi va spiral shaklida pastga harakatlanadi. Chiqindi apparatning pastki qismidan chiqarib yuboradi. O'rta qismida siyraklanish sohasi hosil bo'ladi, natijada tozalangan massa apparatning ichidagi quvur orqali yuqoriga ko'tariladi (6.5-rasm).



6.5-rasm. Markaziy kliner (a) va unda massaning harakatlanish sxemasi (b):  
1 — tozalangan massa chiqadigan quvur; 2 — qopqoq; 3 — yuqori konus; 4 — sirt qoplamasи;  
5 — o'rta konus; 6 — tiqin; 7 — pastki konus; 8 — g'ilof to'sig'i; 9 — g'ilof.

**6.5. OK-08 markali uyurmali tozalagich  
(TU 26-08-605-77)**



**6.6-rasm. OK-08 markali uyurmali tozalagich. a — umumiy ko'rinishi, b — kesimi:**

**1 — ifoslarni to'plagich; 2, 3 va 8 — zadvijkalar; 4 — konus; 5 — korpus;**  
**6 — massanинг kirish patrubkasi; 7 — massa chiqadigan patrubka.**

Bu tozalagich tolali massani begona aralashmalardan qisman tozalashga mo'ljalangan. Texnologik oqimni tozalash va saralash qurilmalarini buzilishdan saqlash maqsadida uyurmali tozalagich o'rnatiladi.

Uyurmali tozalagich kirish va chiqish patrubkalari o'rnatilgan korpus, konus, chiqindilarini to'plagich, ramalar va pnevmouzatkichli zadvishkalardan iborat (6.6-rasm). Uning texnik tavsifi 54 va 55-jadvallarda berilgan.

54-Jadval

**OK-08 markali uyurmali tozalagichning texnik tavsifi**

Massa o'tkazish imkoniyati, l/min	10 000
Ishlab chiqarish quvvati (quruq havodagi tolaga nisbatan), t/sutka	32,7—163,3
Massaning dastlabki konsentratsiyasi, g/l	2—10
Tozalagich diametri, mm	500
Bosim, MPa	0,06—0,1
Gabarit o'lchamlari, mm	1330x925x3195
Massasi (el.dvigatel bilan), kg	805

## OK-08 markali uyurmali tozalagichning texnologik shtutserlari

Belgilar	Nomi	Soni	Shartli o'tkazgich, D, mm	Bosimi, MPa
А	Massani tozalagichga berish	1	250	0,14
Б	Tozalangan massanening chiqishi	1	300	0,02
В	Aylanma suv berish	1	50	0,4
Г	Toza suv berish	1	15	0,4
Д	Chiqindi chiqishi	1	150	—

**6.6. OM-02-1 va OM-02M markali uyurmali tozalagichlar  
(TU 26-08-709-82E)**

Bunday tozalagichlar makulatura massasi tarkibidagi begona aralashmalarni tozalashga mo'ljallangan. U texnologik oqimning gidromaydalagichdan keyingi jarayonlarida qo'llaniladi.


Tozalagich kirish va chiqish patrubkalaridan, konus, tiniq stakan, pnevmouzatkichli zadvijkalardan, chiqindilarni to'plagich va ramadan tashkil topgan (6.7-rasm). Uyurmali tozalagichning texnik tavsifi 56- va 57-jadvallarda berilgan.

**OM-02-1 va OM-02M markali uyurmali tozalagichlarning  
texnologik shtutserlari**

Belgilar	Nomi	Soni	Shartli o'tkazgich, D, mm		Bosimi, MPa
			OM-02-1	OM-02M	
А	Massani tozalagichga berish joyi	1	100	150	0,24
Б	Tozalangan massanening chiqish joyi	1	100	150	0,08
В	Aylanma suv berish joyi	1	50	05	0,4
Г	Toza suv berish joyi	1	15	15	0,4
Д	Chiqindining chiqish joyi	1	150	150	—

**OM-02-1 va OM-02M markali uyurmali tozalagichlarning texnik tavsifi**

Nomi	OM-02-1	OM-02M
Massa o'tkazish imkoniyati, l/min	1000	1900
Tozalangan selluloza massasining konsentratsiyasi, g/l	50 dan ko'p emas	
Ishlab chiqarish quvvati (quruq havodagi tolalarga nisbatan), t/sutka	81,8	155,3
Tozalik samaradorligi, %	80	
Tozalagich diametri, mm	215	
Bosimi, MPa, ko'pi bilan	0,16	
Gabarit o'lchamlari, mm	1166x1030x2948	1166x1030x3005
Massasi, kg	764	775



6.7-rasm. OM-02-1 va OM-02M markali uyurmali tozalagichlar:

1- va 2 — pnevmouzatmali zadvijkalar; 3 — stakan; 4 — rama; 5 — konus;  
6 — asosiy qism; 7 — iflos to'plagich; 8 — kirish patubkasi; 9 — chiqish patubkasi.


### 6.7. YBK-40-01, YBK-90-01, YBK-180-01, YBK-300-01 markali uyurmali tozalash qurilmalari (OST 26-08-310-81)

Bunday uyurmali tozalagichlar selluloza — qog'oz sanoatida tolali massani tozalashda qu'llaniladi. Tozalagich asosan selluloza ishlab chiqarish korxonalarida ishlatiladi. Bundan tashqari uni massani yaxshilab tozalash maqsadida qog'oz quyish mashinasi oldiga ham o'matiladi.

Qurilmaning ishchi qismi hisoblangan kichik diametrali tozalagich, massani yuqori darajada tozalab beradi. Tozalagich konus shaklidagi quvurdan iborat. Massa unga tangensyal yo'nalishda beriladi. Tozalangan massa keyingi texnologik oqimga uzatiladi, chiqindilar esa konus tubiga to'planadi. Kichik konus tubidagi chiqindilar chiqarib yuboriladi.

Uyurmali tozalagichning har bir blokiga sakkiztadan vertikal holatidagi tozalagich o'matilgan. Bloklar guruhi, kollektorlar, tozalangan massa va chiqindilar hamda armatura va birlashtiruvchi qismlar bitta metallkonstruksiyaga birlashtirilib, tozalash seksiyasini tashkil etiladi. Har bir bosqichdagi seksiyalar soni va undagi bloklar seksiyasi qurilmaning ishlab chiqarish quvvatiga bog'liq (6.8-rasm).

Tozalagichda massani tozalash markazdan qochma kuch ta'siriga asoslangan. Tozalangan massa qurilmaning birinchi bosqichidan texnologik oqimga yuboriladi. Bu mahsulotni yuqori darajada tozelanilishini ta'minlaydi.



6.8-rasm. YBK-40-01, YBK-90-01, YBK-180-01, YBK-300-01 markali uyurmali tozalagichlar seksiyasining umumiy ko'rinishi:

1 — tozalagich bloki; 2 — uyurmali tozalagichi; 3 — rama; 4 — iflos moddalar chiqadigan patrubka;  
5 — toza suv beruvchi patrubka; 6 — chiqindi kollektori; 7 — rezinali qo'lqop; 8 — zadvijka;  
9 — bosim kollektori; 10 — yig'uvchi kollektor.

Qurilma to'liq yopiq tizimdan iborat, shuning uchun massa xonaga sachramaydi va bug'lanmaydi. Har bir blokni tekshirish uchun uni to'xtatish yoki qurilmani ishlab turgan vaqtida almashtirish mumkin. Nasadka teshiklarining diametri katta, shu sababli tozalanayotgan massa kam tiqiladi.

Chiqindi miqdori boshqarib boriladi, shu sababli tozalash samaradorligini talab darajasida olib borish mumkin.

Sellyuloza massaiga tegib turadigan detallar zanglamaydigan po'latdan, tozalagichlar esa turli ta'sirlarga chidamli polimer materialidan tayyorlanadi.

Uyurmali tozalagichning texnik tavsifi 58-jadvalda keltirilgan.

#### 58-jadval

##### YBK-40-01, YBK-90-01, YBK-180-01, YBK-300-01 markali uyurmali tozalagichlarning texnik tavsifi


Ko'rsatkich	Qurilmamarkasi			
	YBK-40-01	YBK-90-01	YBK-180-01	YBK-300-01
Ishlab chiqarish quvvati (quruq tolalarga nisbatan massa konserntsiyas 5 g/l bo'lganda), t/sutka	40	90	180	300
Tozalash samaradorligi, %				
- 0,002 mm li qumlardan		70		
- 0,5-1 mm li qobiqdan		60		
Tozalagichning o'tkazuvchanligi , l/min		70		
Tozalagich diametri, mm		125		

Tozalagichlar soni:				
I bosqich	56	112	224	392
II bosqich	12	32	56	55
III bosqich	8	2	16	40
I bosqichdagi seksiyalar soni	1	2	4	7
Gabarit o'lchamlari, mm	4617x3740 x2527	6475x4796 x2550	11585x6015 x2549	16640x6914 x2527
Massasi (natos va dvigatel bilan), kg	5500	9850	17475	15700


## **6.8. YBK-90-04 markali uyurmali tozalash qurilmasi (TU 26-08-708-82)**

Tozalash qurilmasi qog'oz va karton quyish mashinasini oldiga o'rnatiladi. U texnologik oqimdagagi qog'oz massasini tozalash va havosizlantirishga mo'ljallangan.

Uyurmali tozalagich qurilmanig ishchi organi hisoblanadi. U massa kiradigan patrubka va massani tozalaydigan patrubka; konus hamda nasadkadan iborat. Nasadkaning asosi ingichka bo'lib, chiqindilar chiqarishga mo'ljallangan. Nasadka konusning ingichka asosiga birlashitirilgan. Chiqindi kamerasining vakuum quvuri nasadka teshigiga joylashtirilgan. Massa markazdan qochma kuch ta'sirida ishlaydigan nasos yordamida beriladi va tozalashga yordam beradi (6.9-rasm).



## A ko'rinish



6.9-rasm: YBK-90-04 markali uyurmali tozalagich.

III bosqichdagi tozalagichlar tolalarni ushlab qolish qurilmasi bilan ta'minlangan.

Qurilma to'liq yopiq tizim ostida ishlaydi. Shu sababli ham unda massaning sachrashi va bug'lanishi kuzatilmaydi.

Har bir tozalagichning I va II bosqichdagi ish jarayonini to'xtatib, ularining ishlashini tekshirish yoki almashtirish mumkin.

Tozalangan massa faqat I bosqichdagi tozalash texnologik oqimiga yuboriladi. Bu mahsulotning yuqori darajada tozaligini ta'minlaydi.

Qurilmadagi selliyuloza massasiga tegib turadigan barcha detallar zanglamyldigan po'latdan yasalgan, konus va nasadkalar erituvchilarga chidamli polimer materialdan tayyorlangan. Tozalagichning texnik tavsifi 59- va 60-jadvallarda keltirilgan.

*59-jadval*

#### YBK-90-04 markali uyurmali tozalagichlarning texnik tavsifi

Ishlab chiqarish quvvati (quruq tolaganisbatan), t/sutka	90
Tozalangan massa konsentratsiyasi, g/l	7
Massani tozalash samaradorligi, % - 0,065 mm li qumdan - 0,5-1 mm li qobiqdan	70 Karnda 25
Tozalagichning massa o'tkazish imkoniyati, l/min	1900
Tozalagich diametri, mm	305
Tozalagichlar soni: I bosqich II bosqich III bosqich	6 2 1
Gabarit o'lchamlari, mm	4740x3440x3600
Massasi (nasos va el. dvigatel bilan), kg	10700

*60-jadval*

#### YBK-90-04 markali uyurmali tozalagichlarning texnologik shartneleri


Beigli	Nomi	Soni	Shartli diametr, <i>D</i> , mm	Bosim, MPa
A	Massani seksiyaning I bosqichiga berish	1	300	0,38
Б	Tozalangan massani seksiyaning I bosqichidan chiqish joyi	2	300	0,02—0,03
В	Chiqindining seksiyaning I bosqichidan chiqish joyi	1	150	0,03—0,06
Г	Massani seksiyaning II bosqichiga berish joyi	1	200	0,38
Д	Tozalangan massani seksiyaning II bosqichidan chiqish joyi	1	200	0,02—0,03
Е	Chiqindini seksiyaning II bosqichidan chiqish joyi	1	80	0,03—0,06
Ж	Massani seksiyaning III bosqichiga berish joyi	1	100	0,38

Z	Tozalangan massani seksiyaning III bosqichidan chiqish joyi	1	100	0,02—0,03
I	Chiqindini seksiyaning III bosqichidan chiqish joyi	1	50	0,03—0,06
K	Toza suv berish joyi	1	80	0,3—0,35
L	Tozalaydigan suvni berish joyi	2	50	0,3—0,35
M	Chiqindilarni chiqarish joyi	1	50	—
N	Vakuum yo'lagidan ho'l aralashmalarni chiqarish joyi	1	100	—
P	Tolani ushalb qoluvchi qurilmaga suvni berish joyi	1	50	0,3—0,35

**6.9. 46363 markali kaolin suspenziyasini tozalaydigan filtr  
(TU 26-08-247-79)**

Kaolin suspenziyasi massani begona aralashmalardan tozalashga mo'ljallangan.

Filtr: ikki qobig'li o'yib teshilgan baraban; beton vanna tashqarisidagi podshipnikka o'rnatilgan val; filtr valini reduktor va tishli mufta orqali harakatlantiruvchi elektr dvigateldan iborat (6.10-rasm). Uning texnik tavsifi 61-jadvalda keltirilgan.



**6.10-rasm. Suspenziyani tozalaydigan filtr.**


**61-jadval**

**46363 markali kaolin suspenziyasini tozalaydigan filtrning teknik tavsisi**

Ishlab chiqarish quvvati, m <sup>3</sup> /min	2,56
Filtr sig'imi, m <sup>3</sup>	1,2
Filtrlovchi yuza, m <sup>2</sup>	3,6
Baraban:	
— diametri, mm	1240
— uzunligi, mm	1000
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	10
Dvigatel:	
— turi	4A100L4U3
— quvvati, kVt	4
— aylanish chastotasi, min <sup>-1</sup>	1500
Gabarit o'lchami, mm	2350x1315x1315
Massasi, kg	Ko'pi bilan 830


Filtr beton vannaga o'rnatilgan bo'lib, unga kaolin suspenziyasi beriladi. Filtrlovchi to'rdan o'tgan suspenziya aylanayotgan baraban yordamida uning yon tomonidagi maxsus betonli idishga

quyiladi. Suspenziyadagi mayda qumsimon aralashmalar filtr ishlashdan to'xtagach vannadan chiqarib yuboriladi (6.11 va 6.12-rasmilar).



**6.11- rasm.** Kaolin suspenziyasini tozalash filtrning sxemasi:  
1 — zadvijka; 2 — val; 3 — cho'mich; 4 — filtrlovchi baraban; 5 — reduktor.

Ichki yuzasi kafel builan qoplangan



**6.12- rasm.** Filtrning gabarit o'lchamlari chizmasi (a) va fundamenti planining o'lchamlari (b).


## *Mavzuga doir masalalar ishlash*

**1-masala.** Tugun tutgich apparatining bir sutkada sellyuloza ishlab chiqarish quvvatini  $Q$ , t hisoblang. Tugun tutgichning eni  $b = 1,25$  m, to'siq ustidagi massa qatlamining balandligi  $h = 250$  mm, massaning harakatlanish tezligi  $v = 15$  m/min, massa konsentratsiyasi  $c = 0,4\%$ . Hisoblash formulasi:

$$Q = \frac{b \ h \ v \ C \ 60 \ 24}{100 \ 0,88}$$

**2-masala.** Markaziykliner massa tozalash apparatlarida massani nozik tozalash tezligi  $\vartheta$ , l/sek ni hisoblang. Tozalanadigan massa miqdori  $V_m = 15000$  l/soat. Massa konsentratsiyasi  $C_1 = 3\%$  ni  $C_o = 0,5\%$  gacha suyultiriladi. Hisoblash formulasi:

$$\vartheta = V_m \frac{C_1}{C_o \ 3600}.$$



## **VII-BOB. QOG'oz, KARTON VA SELLYULOZA PAPKASINI QUYISH MASHINALARI**

### **7.1. Nashriyot va bosmaxona uchun asosiy qog'oz turlari**

Qog'ozning eng muhim ko'rsatkichlariga — 1 m<sup>2</sup> ining massasi, qaliligi, zichligi, pishiqligi, silliqligi, g'ovakligi, oqligi, xiraligi, narxi va boshqalar kiradi. Bosma qog'oz listlar va rulonlarning 1 m<sup>2</sup> ining massasi 40...250 grammligi ishlab chiqariladi. Quyida nashriyot va matbaa (bosmaxona) ishlardida qo'llaniladigan qog'ozlarning xarakteristikasi keltirilgan.

Matbaa uchun qog'oz — massasi 50...70 g/m<sup>2</sup>, oq, kulliligi o'rtacha yoki yuqori, silliq, yaltiroq yoki yuqori darajada yaltiroq qog'oz. Matnni bosish yoki illyustratsiya-matnli mahsulotlarni chop etish, kitob va ma'lumotnomalarni nashr etish uchun 40—50 g/m<sup>2</sup>, kam yelimlangan, kul miqdori yuqoriq bo'lgan yaltiroq qog'oz ishlatiladi.

Ofset usulida bosish uchun qog'oz — massasi 60...250 g/m<sup>2</sup>.

Chuqur bosish uchun qog'oz — oq, massasi 60...220 g/m<sup>2</sup>.

Gazeta matnini bosish uchun qog'oz — massasi 45...49 g/m<sup>2</sup>.

Bo'rlangan qog'oz — massasi 60...70 g/m<sup>2</sup>, chuqur va ofset usulida illyustratsiyali matnni bosish uchun.

Muqova tayyorlash uchun qog'oz — massasi 140...200 g/m<sup>2</sup>.

Kitob forzatsi uchun qog'oz — massasi 80...160 g/m<sup>2</sup>.

Kartografiya uchun qog'oz — massasi 85...160 g/m<sup>2</sup>. Gidro-, topo-, geografik va ofset usulida atlaslar nashr etishda ishlatiladi.

Yozuv qog'ozl — oq yoki rangli, massasi 45...80 g/m<sup>2</sup>, blankalar, turli formatlarda, mакtab daftari va shu kabilar uchun.

Xujjatlar uchun qog'oz — bo'rlangan, yuqori darajada yelimlangan, ba'zida suv belgisi bor, ko'p vaqtga chidaydigan, har xil mexanik ta'sirlarga bardosh beradigan qog'oz.

Afisha va biletlar uchun qog'oz — oq yoki rangli, kam kulli, kam yelimlangan va bir tomoni silliqlangan.

Yorliq qog'ozl — massasi 45...120 g/m<sup>2</sup>, yelimlangan, ikkala tomoni silliqlangan ofset usulida yorliq yozishga mo'ljallangan.

Kraft-qog'oz — o'rash va taxlashga mo'ljallangan qog'oz.

### **7.2. Qog'oz va karton quyish mashinalarining klassifikatsiyasi**

Qog'oz, karton quyish va papka quritish mashinalarining asosiy parametri — polotnoning qirqimi eniga qarab klassifikatsiyalanadi. Bundan tashqari, mashinaning ko'rinishi va turi mashina ishlab chiqaradigan mahsulot turiga qarab farqlanadi (62-jadval). Ular o'z navbatida ko'p, qisman va mahsus ishlab chiqaruvchi mashinalarga bo'linadi.

62-jadval


#### **Qog'oz, karton ishlab chiqaruvchi va va sellynloza quritish mashinalari turi**

Mashina turi	Mahsulot turi	Belgisi	Polotnoning eni, mm
Ko'p mahsulot ishlab chiqaradigan	Qog'oz uchun	БМ	1680; 2520; 4200; 6300; 6720; 8400; 10 080; 10 500
	Karton uchun	КМ	2100; 4200; 6300
	Sellyuloza uchun	ЛМ	4200; 6400

1	2	3	4
Kam mahsulot ishlab chiqaradigan	Qog'oz uchun	БН	1680; 2520; 4200; 6300
	Karton uchun	Н	1680; 2100; 4200
	Sellyuloza uchun	ЦН	2100
Mahsus turdag'i mahsulot ishlab chiqaradigan	Qog'oz uchun (suqli suspensiyanidan olinadigan)	БСВ	840; 1050; 1250; 1680; 2100; 2400; 2520
	Quruq usulda olish uchun	БСС	840; 1050; 1250; 1680; 2000

### 7.3. Qog'oz quyish mashinasining tuzilishi

Qog'oz quyish mashinasi alohida agregat bo'lib, uning tarmoqlari ma'lum tartibda ketma-ket o'rnatilgan (7.1- rasm).




7.1-rasm. Qog'oz quyish mashinasining umumiy ko'rinishi.

Qog'oz quyish mashinasining tarkibiy qismi: to'r, presslash, quritish, pardozlash va harakatga keltirish qismlaridan iborat. Bundan tashqari, qog'oz massasini yig'ib, uni mashinaga uzatish uchun mashina havzasi, rafinirlovchi asbob-uskunalar, massani maydalash (yanchish), tozalash, suv berish uchun nasoslar, vakuum nasoslar, chiqindi va nuqsonli qog'ozlarni qayta ishlovchi qurilmalar, aylanma suv massasi uchun havza, toza havo bilan ta'minlash va havoni tashqariga chiqarib turuvchi shamollatish tizimi, rostlovchi va nazorat-o'chov asboblari ham mashina tarkibiga kiradi.


Mashinaning to'rli qismi qog'oz polotnosiga shakl berish va suvsizlantirishga mo'ljallangan. U bosim qutisi va to'rli stoldan iborat. Bosim qutisi to'ming eni bo'yicha polotnoni bir me'yorda berilishini ta'minlash uchun ishga tushirish qurilmasiga selluloza massasini uzlusiz berib turadi. Bu qurilma yordamida qog'oz massasi to'rga oqib tushadi. Qurilma to'ming eni bo'yicha massanining oqib chiqishini bir me'yorda bo'lishini ta'minlaydi. Mashinaning to'rli qismi zaruriyatga qarab o'zgartiriladi.

Qog'oz quyish mashinasining texnologik sxemasi 7.2- rasmda keltirilgan



**7.2-rasm. Telsis to'li qog'oz quyish mashinasining chizmasi:**

1—mashina havzası; 2—nasos; 3—bosim bir xilda bo'sishini ta'minlovchi bak; 4—konus shaklidagi tegirmon; 5—aralastiruvchi nasos; 6—zadvijka (lo'sidion)lar; 7—tozalovchi apparatlar; 8—bosim quisi; 9—to'li qismi; 10—bosim quisi; 11—oldingi val; 12—gauch val; 13—registri val; 14—tenglastiruvchi val; 15—to'gi val; 16—valzalovchi apparatlar; 17—presslovchi qismi; 18—rotor sukno; 19—quritish qismi; 20, 21—quritish silindrlari; 22—kalandır; 23—sovutuvchi silindr; 24—nakar; 25—uzinasiqa kesish dastgohi.



7.3- rasm. Yozuv-bosma qog'ozlari ishlab chiqaruvchi qog'oz quyish mashinasi  
to'r qismining umumiy ko'rinishi.

To'rli stol — tekis gorizontal ko'rinishda bo'lib, to'rli qismi asosiy va so'ruvchi gauch-val vositasida tortib qo'yilgan. To'r harakati yo'nalishi bo'ylab, asosiy valdan to gauch-valgacha shakl beruvchi dastgoh, gidroplanka yoki registrli vallar, so'ruvchi idishlar ketma-ket tarzda joylashtirilgan. Ularning asosiy vazifasi to'r ustidagi qog'oz polotno asosiga bir tekis shakl berishdan iborat.

Presslash qismi ikki yoki uch valli pressdan tashkil topgan. Uning vazifasi qog'oz polotnoni mexanik usulda suvsizlantirishdan iborat.

Suknoning asosiy vazifasi qog'ozni presslash jarayonida uning strukturasini va polotnoni ezilishdan saqlash, tarkibidagi namlikni yo'qotish, ho'l holatdagi polotnoni harakatlantirish va keyingi jarayonga uzatishdan iborat.

Quritish qismida qog'oz polotno tarkibidagi namlik bug'lanib, to'liq suvsizlanadi. Quritish qismi quritish silindrleridan tashkil topgan bo'lib, ular ikkala yarusda shaxmat tarzida joylashtirilgan. Quritish silindrining ichi bo'sh bo'lib, ichiga bug' berib qizdirishga moslangan; uning diametri 1500 yoki 1800 mm. Silindrarning yuzasi presslovchi vallar kabi juda silliq qilib, yugori darajada jilolangan. Silindrarning soni tayyorlanadigan qog'oz turi va mashina tezligiga bog'liq. Masalan, gazeta va qop qog'ozlar tayyorlashda silindrler soni 50 yoki 80 ta gacha bo'lishi mumkin.

Mashinaning pardozlash qismini kalandr va nakatdan iborat bo'lib, polotno quritish qismi va nakat orasiga joylanadi. Mashina kalandri qog'ozning yaltiroqligi, silliqligi va hajm massasini oshirishga mo'ljallangan. Kalandrlar bir-birining ustiga o'rnatilgan 5—8 ta gorizontal vallardan iborat, ular pastki qismiga o'rnatilgan val yordamida harakatga keltiriladi. Qog'oz kalandrlardan o'tib nakatga keladi va rulon shaklida o'raladi.

Qog'oz quyish mashinasining harakatlantiradigan qismi tegishli tezlikni ta'minlaydi. Elektr dvigatellarning quvvati har xil mashinalar uchun turlicha bo'lib, 10—20 ming kW ni tashkil etadi.

**Qog'oz tayyorlash asosiy texnologik jarayonlari.** Qog'oz (karton) tayyorlash quyidagi bosqichlardan iborat: qog'oz massasini tayyorlash; uni suv bilan tegishli konsentratsiyagacha suyultirish; begona qo'shimchalar va tugunchalardan tozalash; massani to'r ustiga bir me'yorda uzatish; to'r ustidagi qog'oz polotnoga shakl berish; nam qog'ozni presslash va ortiqcha suvini siqib chiqarish; quritish; pardozlash va qog'oz (karton)ni rulon shaklida o'rash.

**Massani yig'ish xavzasini.** Qog'oz massasi maydalash-tayyorlash bo'limida tayyorlanadi. Tayyorlanayotgan qog'oz kompozitsiyasi oqimiga uzuksiz ravishda aniq dozalarda to'ldiruvchi, yelimblovchi, bo'yovchi va boshqa materiallar qo'shib turiladi. Bu xavzada massa yig'iladi va yaxshilab aralashtiriladi.

**Qog'oz massasi akkumulyatori (to'plagichi) — mashinani bir me'yorda to'xtovsiz ishlashini ta'minlaydi.** Basseyndagi massa konsentratsiyasi 2,5—3,5 % ni tashkil etadi.

**Rafinirlash.** Qog'oz massani rafinirlash uchun mashinaga berishdan oldin uni uzuksiz ishlaydigan apparat — konussimon yoki diskli tegrimonlarga beriladi. Rafinirlash jarayonida qog'oz massasi qo'shimcha maydalanish hisobiga me'yoriga keltiriladi, tugunlari titiladi. Shuning uchun ham tegrimonlar mashina xavzasidan keyin o'rnatiladi.

**Massani qog'oz quyish mashinasiga uzatish.** Mashina havzasidagi massa bir me'yorda qog'oz quyish mashinasiga uzatilishidan oldin suv qo'shib suyultiriladi va begona qo'shimchalardan yana bir bor tozalanadi. Shundan so'ng massa qog'oz quyish mashinasiga uzatiladi.


Tegishli konsentratsiyagacha suyultirilgan va tozalangan qog'oz massasi qog'oz quyish mashinasining bosim qutisiga uzatiladi. Yuqorida aytganimizdek, qog'oz quyish uchun massa suyultiriladi. Suyultirish darajasi 1 m<sup>2</sup> qog'ozning massasi, tolalar turi va maydalanish darajasiga bog'liq bo'ladi.

**Massani to'rga bir me'yorda chiqarib berish.** Bu jarayon bosim qutisining chiqarish qurilmasi yordamida amalga oshiriladi. Mashina bir me'yorda 450—500 m/min tezlikda ishlashi uchun bosim qutisidagi massa bosimi 2,5—3,0 Pa, 600 m/min tezlikda ishlashi uchun esa — 4,2 Pa bo'lishi kerak. Ishga tushirish qurilmasi massani asosiy valdan gauch-val tomonga harakatlanayotgan to'rnинг ustiga bir xil tezlik va ma'lum miqdorda, to'r eni bo'yab, uzuksiz uzatilishini ta'minlaydi. Massa parallel ravishda uzatib turiladi.

**Qog'oz massasiga shakl berish.** Yuqorida aytganimizdek, qog'oz massasiga shakl berish yoki quyish jarayoni bu tolalarning yaxlit varaq ko'rinishida birlashtirishdan iborat. Bu jarayon qog'oz quyish mashinasining to'r qismida amalga oshiriladi. Buning uchun qog'oz massasi tarkibidagi suv siqib chiqariladi va qog'oz polotnoga shakl beriladi. Suvsizlantirish jarayoni to'rli stoldan boshlanib, quritish qismida qog'ozni quritish bilan tugallanadi. Texnologik jarayon noto'g'ri tashkil etilsa, qog'oz sisatsiz va mashina qog'ozni bir maromda ishlab chiqarmaydi. To'r ustida uzuksiz ravishda hosil qilinayotgan suspenziya qatlami, registrlovchi vallar yoki gidroplankalar ustidan o'tib suvsizlanadi. Suvsizlantirish jarayonida suspenziya qatlami quyuqlashadi va konsentratsiyasi 2—4 % ga yetadi, natijada tolali massa qog'oz polotno strukturasini hosil qiladi. Bunday holatdagi qatlamni registrli vallar yoki gidroplankalar yordamida vakuum orqali suvsizlantirish qiyinlashadi. Shuning uchun suvsizlantirishning oxirgi bosqichida so'ruvchi qutilardan foydalaniladi. Buning uchun zarur vakuum vakuumnasolar yordamida hosil qilinadi. Vakuum ko'rsatkichi birinchi qutidan oxirgi qutigacha oshib boradi. Vakuumlanish darajasi ishlab chiqarilayotgan qog'oz turiga qarab o'zgartirib turiladi. So'rish qutisidan chiqqan qog'oz polotnoning quruqligi 8—10 % ni tashkil etadi. Shu sababli qog'oz polotno oxirigi marta so'ruvchi kamerada quritiladi.

**Presslash.** Qog'oz polotno dastlab to'rli stolda suvsizlantirilgach, presslarga keladi va yana suvsizlantiriladi, bunda polotnoning quruqlik darajasi 30—42 % ga yetadi. Qog'oz polotno suvsizlantirilishidan tashqari zichlanadi ham. Bunda tolalarning ta'sirlanish maydoni va ular orasidagi ishqalanish kuchi ortadi. Bundan tashqari qog'ozning xossalari o'zgaradi: hajm massasi ortadi; g'ovakligi, havo o'tkazuvchanligi va suv shimish xususiyati kamayadi; uzilishga mustahkamligi, havo bosimiga qarshiligi va tiniqligi ortadi.

**Quritish.** Mashinaning quritish qismida qog'oz polotno oxirgi quruqlikkacha suvsizlantiriladi. Quritish jarayonida 1 kg qog'ozdan 1,5—2,5 kg gacha suv bug'latiladi. Bu miqdor to'rli va pressli quritichlardagidan taxminan 50—100 marta kamdir. Qurish bilan bir qatorda qog'oz polotno zichlanadi va tolalar bir-biriga jipslashadi. Natijada qog'ozning mechanik nustahkamligi va silliqligi ortadi. Quritish jarayonida qog'ozning quyidagi xossalari o'zgaradi: hajm massasi, namlikni shimish xususiyati, tiniqligi, havo o'tkazuvchanligi, kirishishi, namga chidamliligi, yelimlanish darajasi va bo'yalishi. Quritish qismidan o'tgandan keyin qog'oz polotnoning quruqligi 92—95 % ni, temperaturasi 70—90 °C ni tashkil etadi. Polotno yuqori sifatli kalandrlanishi va rulon shaklida yaxshi o'ralishi uchun quritish qismidan keyin o'matilgan sovitish silindrida sovitiladi. Polotno sovishi davomida 1—2 % gacha namlikni yutadi.



7.4- rasm. Ikki qavatli karton quyish mashinasi.

**Pardozlash.** Qog'oz polotno quritilgandan keyin yaxshi zichlanishi va silliqligini oshirish maqsadida kalandrdan o'tkaziladi. Kalandr ustma-ust joylashtirilgan 2 – 8 ta valdan tashkil topgan. Bu qurilma super kalandr deb yuritiladi. Polotno vallar orasidan o'tgan sari bosim ham sekin asta oshirib boriladi. Kalandrlardan o'tgan qog'oz polotno uzuksiz ravishda diametri 2500 mm gacha bo'lgan tambur vallarga o'raldi. Bir tambur valdan boshqa valga o'rash maxsus mexanizm va qurilmalar yordamida amalga oshiriladi. Qog'oz quyish mashinasidan o'tgan qog'oz qog'oz qirqish dastgohiga keladi, u yerda qirqilib taxlanadi va o'rash mashinasiga yuboriladi.

*Qog'oz quyish mashinasining asosiy parametrlari:* olinayotgan qog'oz eni (mm) va harakatlanish tezligi (m/min). Bu ikkita ko'rsatkich va polotnoning  $1 \text{ m}^2$  massasi mashinaning ishlab chiqarish quvvati (t/soat, t/sutka, t/yil) ni belgilaydi.


#### 7.4. Ochiq va yopiq turdag'i bosim qutilari (OST 26-08-2021-78),

TU 26-08-255-76, TU 26-08-520-74)

Bu qurilma eni 6720 mm gacha bo'lgan qog'oz, kartonlarni quyish va quritish mashinalari to'riga massani me'yorida uzatib berish uchun mo'ljallangan (7.5, — 7.6- rasmlar).

Mashinada 3 ta ochiq va 8 ta yopiq turdag'i bosim qutilari mavjud. Har bir bosim qutisining quvvati 1 minutda qancha miqdorda massa berishi bilan belgilanadi.



Bosim qutisi korpus, perforirlangan (teshik-teshik) plita va kollektorli kamera, boshqariladigan teshiklar ochilgan val, boshqariladigan mexanizmli old devor, purkagich va o'lchash-nazorat qilish asboblaridan tashkil topgan.



7.5- rasm. Ochiq turdag'i bosim qutilari.

a: 1—korpus; 2—surilma devor; 3—teshiklar o'yilgan val; 4—kollektorli kamera; 5—teshiklar o'yilgan plita; 6—ko'pik so'ndirigich; 7—old devorni siljituvchi mexanizm: a—YHO-120 qutisi;

b: 1—bosim qutisi; 2—taqsimlovchi quti; 3—teshiklar o'yilgan val; 4—chiqaruv teshigi; 5—boshqaruv vinti; 6—ko'tarish mexanizmi va bosimni boshqargich; 7—birlashtiruvchi etak.



7.6-rasm. Yopiq turdag'i bosim qutilar:

a—ЯНЗ-3,8 qutisi: 1—корпус; 2—сурılma devor; 3—тешиклар о'йилган вали; 4—коллекторли камера;

5—тешиклар о'йилган плаита; 6—ко'пиксо'ндингич; 7—ольдеворни силитүвчи меканизм;


b—ЯНЗ-20 qutisi havo yostig'ida: 1—коллектор; 2—коти корпуси; 3—хово yostig'i; 4—сув пуркагич; 5—тешиклар о'йилган вали; 6—юнориги линеекани ко'тариш ва тушриш меканизми; 7—бoshqaruv vintlari; 8—ортікча suspenziya toshib tushadigan joy.

Kollektor bosim qutisiga kelayotgan massa oqimini mashina eni bo'ylab bir me'yorda tarqatadi va turbulizatoridan o'tkazib barqarorlashtiradi. Turbulizatorning chiqish quvuri to'g'ri to'rt burchak shaklida bo'lib, o'zaro payvandlab ishlangan. Chiqish kanalining ishlanishi mashinaning umumiyl ishlash tezligiga tenglashtirilgan. Bu massani bir me'yorda chiqishini ta'minlaydi. Turbulizator qog'oz polotnodan bir tekis nur o'tishini ta'minlaydi. Bosim qutisining ish me'yori va undagi mexanizmlar tizimi tufayli texnologik parametrlar avtomatik ravishda boshqariladi. Ochiq va yopiq turdag'i bosim qutilarining texnik tavsiyi 63-jadvalda keltirilgan.

63-jadval

#### Ochiq va yopiq turdag'i bosim qutilarining texnik tavsiyi

Quti rusumi	Qirqim eni, mm	Massa chiqaruv-chi tirkishning maksimal eni, mm	Teshiklar o'yilgan val diametri, mm	Maksimal tezligi, m/min	Massaning maksimal solishtirma sarfi, m <sup>3</sup> /min	Massasi, t
Ochiq turdag'i bosim qutisi						
ЯНО-120	1680, 2100, 2520	2100 2950	120	120	1,1	1,75 2,45
ЯНО-180		2100 2950	160	180	2,6	3,22 3,85
ЯНО-250	2520, 4200	2950	160	250	3	6,6
Yopiq turdag'i bosim qutisi						
ЯНЗ-3,1	2520, 4200	2100	170	600	3,1	6,54 10
ЯНЗ-3,8 ЯНЗ-4,5		4800	210 250		3,8 4,5	10 10
ЯНЗ-5,4 ЯНЗ-6,5 ЯНЗ-7,8 ЯНЗ-9,4 ЯНЗ-20	4200, 6300, 6720	6850	300 300 430 520 630	600	5,4 6,5 7,8 9,4 20	16,5 16,5 16,5 21 44




**7.7-rasm. Tekislovchi kamerali hidrodinamik bosim qutisi:**

1—korpus; 2—kollektor; 3—massa kirish joyidagi turbulizator; 4—tekislash kamerasi; 5—massa chiqish joyidagi turbulizator; 6—gorizontal yo'nalishda harakatlanuvchi mexanizm; 7—boshqarish mexanizmi; 8—vertikal yo'nalishda harakatlanuvchi mexanizm.

### 7.5. To'lqin so'ndirgichli hidrodinamik bosim qutisi

**Tuzilishi.** Bosim qutisi korpusi, kollektor, turbulizator, vertikal va gorizontal yo'nalishlarda harakatlanuvchi mexanizmlar, qog'oz polotno qalinligini nazorat qiluvchi mexanizmdan tashkil topgan (7.8-rasm). Bosim qutisi alohida to'lqin so'ndirgich bilan ta'minlangan. Bundan tashqari bosim qutisining ishini kuzatish maqsadida maxsus mexanizm o'rnatilgan. Turbulizatorni tozalab turish maqsadida u tuyruk, maydoncha va narvon bilan jihozlangan. Massa oqimi quvur va to'lqinso'ndirgich orqali bosim qutisiga keladi; shundan so'ng turbulizator orqali chiqaruvchi kanalga va mashina to'riga oqib tushadi.



**7.8-rasm. To'lqin so'ndirgichli hidrodinamik bosim qutisi:**

1—korpus; 2—yuqorigi qismi; 3—gorizontal harakatlanuvchi mexanizm; 4—vertikal harakatlanuvchi mexanizm; 5—yuqorigi qismidagi aniq boshqaruvchi mexanizm; 6—to'lqin so'ndirgich; 7—turbulizator; 8—kollektor; 9—massa uzatuvchi quvur; 10—kollektorni siljituvcchi mexanizm.


## 7.6. Massa konsentratsiyasini qirqim bo'ylab boshqaruvchi gidrodinamik bosim qutisi

Tuzilishiga ko'ra bu qutining asosiy qismlari gidrodinamik bosim qutisinikiga o'xshaydi (7.9-rasm). Farqi shundaki, bu qutida massa konsentratsiyasini to'liq o'zgartirish natijasida qog'ozning ko'ndalang kesimi qalinligini boshqarish mumkin. Bunda an'anaviy aniq boshqarish mexanizmidan foydalanilmaydi. Suyultirish maqsadida massaning asosiy oqimi konsentratsiyasi kichik bo'lgan massa yoki to'r tagidagi suv bilan aralshtiriladi.

Qirqim bo'ylab boshqaruvchi gidrodinamik bosim qutisi quyidagilarni o'z ichiga oladi: konsentratsiyasi kichik bo'lgan massa uchun kollektor, qog'ozning ko'ndalang kesimini avtomatik ravishda boshqarish tizimi tarkibiga kiruvchi massa konsentratsiyasini to'liq boshqarish mexanizmlari va quvurlar. Bosim qutisi oddiy qutilarga nisbatan quyidagi afzallikkлага ega:

- $1 \text{ m}^2$  qog'oz massasini boshqarish darajasi yuqori;
- bo'limalr bo'yicha  $1 \text{ m}^2$  qog'oz massasi 50 mm ni tashkil etadi; bunda qog'ozning ko'ndalang kesimi bir tekis bo'lishi ta'minlanadi;
- boshqarish sohalarining ta'siri aniq chegaralangan.

Shu afzalliklar tufayli bundagi qog'oz sifati odatdagi bosim qutisidan foydalangandagiga qaraganda yuqori bo'ladi.




7.9-rasm. Massa konsentratsiyasini qirqim bo'ylab boshqaruvchi gidrodinamik bosim qutisi:

- 1 — korpus; 2 — yuqorigi qism; 3 — gorizontal siljish mexanizmi; 4 — vertikal siljish mexanizmi; 5 — massa konsentratsiyasini to'liq boshqarish; 6 — to'lqinso'ndirgich; 7 — turbulizator; 8 — kollektor; 9 — massa oqadigan quvur; 10 — kollektorni siljituvgchi mexanizm.

## 7.7 Teshiklar o'yilgan valli yopiq bosim qutisi

Tuzilishi. Yopiq bosim qutisi korpus, teshiklar o'yilgan plitali kollektor, orqa hamda yon devorlarni siljituvchi mexanizm, balkalar, old devor qopqog'ini siljitim mexanizmi, chizg'ichni aniq boshqargich, uzatmasi bor teshiklar o'yilgan val, ko'pikso'ndirgichdan tashkil topgan (7.10-rasm). Bundan tashqari u old devorni gorizontal va vertikal siljitim mexanizmi, kollektorni siljituvchi pnevmatik yoki elektr dvigatelli uzatma, tuyruk, maydoncha va narvon bilan ta'minlangan. Bosim qutisiga oqib kelgan massa kollektor yordamida mashina eni bo'ylab taqsimlanadi. Massa perfoplita teshiklaridan o'tadi va val aylanishi natijasida bir maromga keladi. Bosim qutisining chiqish teshigidan oqib chiqayotgan massaning tezligi mashina tezligiga bog'liq bo'ladi.




7.10-rasm. Teshiklar o'yilgan valli yopiq bosim qutisi:

- 1 — korpus; 2 — old devor; 3 — old devorni siljituvchi mexanizm; 4 — balka; 5 — yon devor; 6 — qopqog; 7 — orqa devor; 8 — ko'pikso'ndirgich; 9 — teshiklar o'yilgan val; 10 — kollektor; 11 — teshikli plita; 12 — kollektorni siljituvchi mexanizm.

## 7.8 Teshiklar o'yilgan valli ochiq bosim qutisi

Tuzilishi. Bu quti quyidagilardan iborat: teshiklar o'yilgan plitali kollektor, korpus, siljitim mexanizmining old devori, chizg'ichni aniq boshqargich, orqa va yon devor, to'siq, ikki teshikli val uzatmasi, ko'pikso'ndirgich, ishchi uchun ko'prik (7.11-rasm).

Bosim qutisiga oqib kelgan massa kollektor orqali mashinaning eni bo'ylab tarqaladi va perfoplita teshiklari orqali o'tadi. Aylanuvchan val va to'siq yordamida massa oqimi me'yorga keltiriladi. Kuzatish va yuvish uchun kollektorni siljitim imkonii ko'zda tutilgan. Bosim qutisidagi massa sathining balandligi mashina tezligiga qarab belgilanadi va avtomatik ravishda nazorat qilib turiladi.



**7.11-rasm.** Teshiklar o'yilgan valli ochiq bosim qutisi:

1 — kollektor; 2 — perforlangan (teshiklar o'yilgan) plita; 3 — teshiklar o'yilgan val, 4 — orqa devor; 5 — ko'pikso'ndirgich; 6 — to'siq; 7 — old devor; 8 — old devorni siljutuvchi mexanizm; 9 — aniq boshqarish mexanizmi; 10 — yon devor; 11 — lineyka devori.

### 7.9. Yopiq bosim qutilari

Bu turdagи qutilar 400..450 m/min tezlikda ishlaydigan mashinalarga o'rnatiladi. Massaning to'rga uzatilish bosimi ikki usul bilan ta'minlanadi, ya'ni:

- havo bosimini oshirib yoki bosim qutisi tepe qismida vakuum hosil qilib;
- o'qli nasos yordamida massani oqim tarzida massani uzatish yo'li bilan.


7.12-rasmida „KMW“ firmasining universal bosim qutisi keltirilgan.

Bu quti tekis to'ri qog'oz-karton mashinalari, presspadlar hamda har xil tezlikda ishlaydigan va turli kenglikdagi mashinalar uchun mo'ljallangan.

Universal bosim qutisi yordamida quyidagilar ta'minlanadi:


- to'r kengligi bo'yicha massa suspenziyasini bir me'yorda tarqatish;
- ventil hamda retsirkulyasiya liniyasi yordamida mashina kengligi bo'yicha massa bosimini bir xilda ushslash;
- massa chiqishida yuqori samaradorlikni ta'minlash va varaq makrostrukturasining bir tekisda bo'lishi.

Oqimni boshqarib turuvchi (VNIIB tomonidan ishlab chiqilgan) bosim qutisi (7.13-rasm) massasi 25 dan 250 g/m<sup>2</sup> gacha va eni 5..6 m bo'lgan qog'oz olish imkonini beradi.




7.12- rasm. „KMW“ firmasining universal bosim qutisi:

1 — oqim taqsimligich; 2 — teshikli plastinka; 3 — teshiki vallar;  
4 — ortiqcha massaning bakdan to'kish mexanizmi.




7.13- rasm (a). Yopiq bosim qutisi.



7.13-rasm (b). Yopiq bosim qutisi (*davomi — o'g'rib qo'yilgan holati*)

1 — kollektor — oqim boshqargich; 2 — teshiklari bor plita; 3 — teshiklari bor val; 4 — quti korpusi;  
5 — old devor; 6 — tirkishni boshqaruvchi mexanizm; 7 — ko'pik so'ndirgich; 8 — havo yostiqchasi.



7.14-rasm. Oqimni boshqaruvchi bosim qutisi:

1 — oqim taqsimlagich; 2 — teshikli vallar; 3 — massa chiqadigan tirkish kattaligini boshqargich;  
4 — asosiy val.


Bosim qutisi (7.13- rasmga q.) yordamida quyidagilar ta'minlanadi:

- qog'oz varag'ining makrostrukturasi yaxshilanadi;
- polotno 1 m<sup>2</sup> massasining bo'yisi va eni bo'yicha farqi minimumga keltiriladi.

**Gidrodinamik bosim qutilari (7.15- rasm).** Bunday bosim qutilari massaning ikki tomonidan so'rib suvsizlantiruvchi va shakl beruvchi sistemalarda qo'llaniladi. Bu qutilardan tekis to'qli qog'oz va karton tayyorlovchi mashinalarda qo'llash mumkin. Gidrodinamik qutilarda bosim qog'oz massasini oqimlarga taqsimlovchi nasoslar yordamida hosil qilinadi. Bunday bosim qutilarida havo yostig'i bo'lmaydi.

„Yescher Wyss“ firmasining gidrodinamik bosim qutilari tekis to'qli mashinalarga o'rnatish uchun mo'ljalangan. Bu qutilarning muhim jihatni ularda bosqichli diffuzorlar bor. Ular quyidagi funksiyalarini bajaradi:

- oqim tarqatuvchidan (3) chiqayotgan qog'oz massasi oqimini mashina yo'nalishi bo'ylab orientirlaydi;
- mashina eni bo'yicha massaning oqib chiqish tezligini bir me'yorda bo'lishini ta'minlaydi; diffuzordan chiqayotgan qog'oz massasi profil tezligini bir xillashtiradi;
- massa oqimini kuzatish imkonini mayjud.



7.15- rasm. Gidrodinamik bosim qutisi (a) va bosqichli diffuzorlarning blok sxemasi (b):

1— massani to'rga chiqarib beruvchi qurilma; 2 —bosqichli diffuzorlar bloki; 3 — oqim taqsimlagich.


... qurilmasini xurma xil bo'lib, ular turli sohalarda ishlataladi.

Ko'p qavatlari qog'oz quyish mexanizmini ishga tushuruvchi qurilma. Qog'oz massa oqimining gidrodinamik barqarorlashuvini ta'minlovchi zamonaviy ishga tushiish qurilmalari bosim qutisi orqali ko'p qavatlari qog'oz va kartonlarga shakl berish imkonini beradi. Bu turdag'i shakl berish strukturali shakl berish deb ataladi. Bu qurilma quyidagi afzalliliklarga ega:

- har xil kompozitlarni qog'oz va karton qavatlari orasiga kiritish imkonini bor;
- to'ldirgichlar, yelimlovchi va kimyoiyiv moddalarini tegishli qatlamlar orasiga kiritish imkonini bor;
- bo'yalgan qog'oz olish uchun bo'yoqni faqat qog'ozning yuqori qatlamiga berish imkonini mavjud;
- tolalarning har xil fraksiyasidan optimal foydalaniш imkonini bor.


Strukturani shakllash usulida barcha turdag'i qog'ozlarni olish mumkin. 7.16, 7.17- rasmlarda „Tampella“ firmasining „Controflo-Foemer“ qurilmasining sxemasi keltirilgan.

Strukturaga shakl berish istiqbolli yo'naliшlardan biri hisoblanadi. Bu usul qog'oz va karton ishlab chiqarishdagi eng mukammal variantlardan biridir.




7.16- rasm. „Controflow-Foemer“ shakl beruvchi qurilma sxemasi:

1 — uch qavatlari ishga tushish qurilmasi; 2 — shakl beruvchi to'rlar; 3 — gauch-val; 4 — so'rvuchi qurilma.



7.17- rasm. Uch kanallli „Stratoflo“ qurilmasi:

1 — ogimni tekis taqsimlagich; 2 — massa uchun kanallar; 3 — „Controflow“ varaqlari; 4 — gauch-val.



7.18- rasm. Yuqori konsentratsiyali qog'oz massasi uchun ishga tushirish qurilmasining sxemasi:

1 — siliindrishimon teshiklar; 2 — tor tirqish; 3 — aralashtirish kamerasi; 4 — tezlashtiruvchi kanal  
5 — chiqish kamerasi; 6 — oqim turbulentligini so'ndiruvchi kanal.

Yuqori konsentratsiyali qog'oz massasi uchun ishga tushurish qurilmasi (7.18- rasm). Bu qurilma yordamida yuqori konsentratsiyali qog'oz massasini quyish quyidagi afzalliliklarga ega:

- to'qli stol uzunligi qisqaradi;
- suvsizlantirishda va qog'oz massasini tashishda energiya sarfi kamayadi;
- havza (basseyn) va quvurlarning o'lchami qisqaradi;
- oqova suvlari hajmining kamayishi hisobiga, tozalash qurilmalariga keladigan yuk miqdori kamayadi;
- presslangandan va qog'oz massasi komponentlari olib qolingandan keyin qog'ozning quvurish darajasi oshadi.

Maxsus ishlab chiqarilgan ishga tushirish qurilmasi quyish vaqtida quyiladigan massasi konsentratsiyasini 3...4 % gacha oshiradi. Bunda qurilmada bir tekis tolali struktura hosil bo'ladi. Qog'oz esa g'ovakroq bo'lib, yirtilishga qarshilik kuchi ortadi. Massani kichik konsentratsiyada quygandagiga qaraganda uzulish uzunligi kam bo'ladi. Yuqori konsentratsiyali qog'oz massasini quyishda ishlatiladigan ishga tushirish qurilmasining sxematik rasmi quyida keltirilgan.

Kamera devorlariga urilishi natijasida massa oqimining disperslanishi tezlashadi. Oqim turbulentligini kamaytiruvchi kanalda uch o'lchamli tolali struktura shakllanadi.

Yuqori konsentratsiyali massadan gofrirlangan, namlikni so'ravchan va havo o'tkazuchalar g'ovok qog'oz va kartonlarga shakl beriladi.

### MAVZUGA DOIR MASALALAR

1-masala. Qog'oz quyish mashinasida bir soatda ishlab chiqariladigan qog'oz miqdorini ( $Q_c$ , kg) hisoblang.

Berilgan: chetlari qirqilgan qog'oz eni  $B = 1,6$  m, qog'oz ishlab chiqaruvchi mashina tezligi  $v = 250 \text{ m/min}$ ,  $1 \text{ m}^2$  qog'oz massasi  $g = 70 \text{ g}$ , mashinaning foydali ish koeffitsiyenti  $K_1 = 0,98$ , mashina ishlab chiqargan qog'ozning sof miqdorini hisobga oluvchi koeffitsiyeni  $K_2 = 0,96$ .

**Hisoblash formulasi:**

$$Q_c = 0,06 B v g K_2 K_3,$$

bu yerda:  $B$  — nakatda chetlari qirqilgan qog'oz eni, m;  $v$  — qog'oz ishlab chiqaruvchi mashinaning tezligi, m/min;  $g$  —  $1 \text{ m}^2$  qog'oz massasi, g;  $K_2$ ,  $K_3$  — koeffitsiyentlar.

2-masala. Qog'oz quyish mashinasi to'ringning eni ( $B_t$ , mm) ni hisoblang. Nakatdagagi qog'oz eni  $B_n = 6,2$  m.

**Hisoblash tenglamasi:**

$$B_t = B_n + (250 - 500), \text{ mm.}$$

**3-masala.** Qog'oz massasi qog'oz quyish mashinasi to'riga so'rish qutisi orqali uzatiladi. So'ruvchi qutilar soni  $n$  ni hisoblang.

Berilganlar: qog'oz quyish mashinasining quvvati  $R = 8 \text{ t/soat}$ , so'ruvchi qutining  $1 \text{ m}^2$  yuzasidan olingan qog'oz miqdori  $S = 55 \text{ kg/soat}$ , bitta qutining yuzasi  $f = 3 \text{ m}^2$ .

**Hisoblash** formulasi:

$$n = \frac{P}{Sf}$$

bu yerda:  $r$  — mashinada 1 soatda ishlab chiqarilgan qog'oz miqdori, kg;  $S$  — so'ruvchi qutini  $1 \text{ m}^2$  yuzasidan olingan qog'oz miqdori, kg/soat;  $f$  — bitta qutining yuzasi,  $\text{m}^2$ .

**4-masala.** To'r stolning uzunligi  $L_c$ , m ni hisoblang.

Berilgan: bir soatda ishlab chiqarilgan qog'oz miqdori  $Q_c = 250 \text{ kg/soat}$ ,  $1 \text{ m}^2$  to'rli stoldan olinadigan qog'oz miqdori  $m = 45 \text{ kg}$ .

**Hisoblash** formulasi:

$$L_c = F/B_c, \quad F = Q_c/m,$$

bu yerda:  $F$  — to'r stol yuzasi,  $\text{m}^2$ ;  $Q_c$  — bir soatda ishlab chiqarilgan qog'oz miqdori, kg;  $m$  —  $1 \text{ m}^2$  yuzali to'rli stoldan olinadigan qog'oz miqdori, kg.

**5-masala.** Qog'oz quyish mashinasi quritish qismidagi silindrler soni  $n$  ni hisoblang.

Berilgan: 1 soatda bug'langan suv miqdori  $W = 3000 \text{ kg}$ ,  $1 \text{ m}^2$  yuzadan bug'langan suv miqdori  $g = 35 \text{ kg/m}^2$  soat, quritish silindrining diametri  $d = 1,5 \text{ m}$ , silindrga tegib turган qog'oz yuzasini hisobga oluvchi koeffitsiyent  $\alpha = 0,66$ , silindr uzunligi  $l = 2 \text{ m}$ .

**Hisoblash** tenglamasi:

$$n = \frac{W}{g\pi d l \alpha},$$


bu yerda:  $W$  — 1 soat davomida bug'langan suv miqdori, kg;  $g$  —  $1 \text{ m}^2$  yuzadan bug'langan suv miqdori,  $\text{kg/m}^2 \cdot \text{soat}$ ;  $d$  — quritish silindrining diametri, m;  $\alpha$  — silindrda tegib turган qog'oz yuzasini hisobga oluvchi koeffitsiyent;  $l$  — silindr uzunligi, m.

**1-misol.** Qog'oz quyish mashinasining quvvatini hisoblang.

Berilgan: qirgilgan qog'oz eni  $B = 1,65 \text{ m}$ , ishchi tezligi  $v = 200 \text{ m/min}$ ,  $1 \text{ m}^2$  qog'oz massasi  $g = 80 \text{ g}$ , mashinaning bir sutkada ishlagan vaqtı  $K_1 = 23 \text{ soat}$ , koeffitsiyent  $K_2 = K_3 = 0,97$

Yechish: Mashinaning ishlab chiqarish quvvati ( $G$ ,  $\text{t/sutka}$ ) ni hisoblaymiz:

$G = 0,06 \cdot B \cdot v \cdot g \cdot K_1 \cdot K_2 \cdot K_3 = 0,06 \cdot 1,65 \cdot 200 \cdot 0,08 \cdot 23 \cdot 0,97 \cdot 0,97 = 4936,2 \text{ kg/sut} = 49,363 \text{ t/sutka} \approx 50 \text{ t/sut}$ . Bir yilda 17,0 ming t qog'oz quyilar ekan.



### **8.1. Namlikni so'ruvchi elementlar turlari**

Tekis to'ri stol konstruksiyasi mashina tezligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulot turiga qarab tanlanadi.

To'r stolning boshlanish qismida diametri 400...1000 mm li asosiy val o'rnatilgan. Ko'p hollarda asosiy (grudnoy) val to'rga ishqalanishi natijasida aylanadi. Tez harakatlanadigan mashinalarda grudnoy val mustaqil harakatlana oladi. Yuqori sifatli qog'oz ishlab chiqaradigan, sekin harakatlanadigan mashinalarda ( $v_c < 250$  m/s) polotnoning makrostrukturasini yaxshilash va anizotropiyasini kamaytirish maqsadida to'r tebratuvchi moslamadan foydalilanadi.

Registrli vallarning so'rish harakati ularning aylanish tezligi kvadratiga proporsional.

Suvning asosiy qismi (mashinaning to'ri qismida umumiy suvning 40% bo'ladi) dastlab 5...6 registrli vallarga chiqariladi. Registrli vallarning zararli ta'sirini yo'qotish uchun ularning bir qismi yoki hammasi to'liq registrli gidroplankalarga almashtiriladi. Gidroplankalar shaberning bir turi bo'lib, to'rga 1...5° ostida o'rnatiladi. Gidroplankalar orgali hosil qilingan vakuum registrli vallar hosil qilgan vakuumga qaraganda 2...5 marta kam bo'ladi. Shaki berish sohasining oxirida, quruq liniyadan oldin, gidroplanka orqasiga suvsizlantiruvchi element sifatida „ho'l so'ruvchi“ qutilar o'rnatiladi. Vakuum darajasi oshirilganda massaning suvsizlanishi tezlashadi, to'rda qog'oz massasi komponentlarining ushlaniq qolish darajasi kamayadi va to'r ko'zchalarini yopilib qoladi.

To'r stoldagi so'ruvchi qutilar soni 10...12 tagacha bo'lishi mumkin.

#### **Bosim qutisini boshqarish tizimi.**

Bosim qutisini boshqarish tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi:


- bosim qutisidagi massa sathini o'lchash va avtomatik ravishda nazorat qilish;
- bosim qutisidagi bosimni o'lchash va avtomatik ravishda nazorat qilish;
- bosimni o'sha joyning o'zida nazorat qilish;
- bosim qutisining qopqog'ini pnevmotsiliindrlar yordamida ko'tarish va tushirishni masofadan boshqarish;
- siqvuchi shlangdagi havo bosimini avomat ravishda ushlab turish;
- ikkilamchi asbob bilan yugori lab holatini nazorat qilish;
- perfolangan (teshiklar o'yilgan) val yuritmasining aylanishlar sonini ikkita elektr dvigatel yordamida boshqarish;
- elektr dvigatel yordamida yuqori elementni ko'tarish va tushirishni boshqarish.

#### **To'rnii tortib turgich.**


Bu asbob qog'oz va karton quyish, quritish mashinalarining to'rlarini me'yorida tortilib turishini ta'minlaydi.

To'rnii tortib turgich mashina to'rining pastki qismiga o'rnatiladi. U yetaklovchi val yordamida to'rnii 8 kN/m gacha kuch bilan tortib turadi. To'r tortib turgichning ikkinchi turi ham mavjud:


- 1- turi valni bitta mexanizm bilan siljitaladi;
- 2- turi valni ikkita mexanizm bilan siljitaladi.



*& I-rasm. „Ho'1“ , vakuum va so'ruvchi qutilar bilan jildozangan to'li stol:*  
*1—grudnoy val; 2—shakl beruvchi quti; 3—„ho'1“ quti; 4—„vakumli“ quti; 5—„vakumli“ quti; 6—tekisirli val; 7—so'ruvchi quti;*  
*8—so'ruvchi guch-val; 9—guch-val; 10, 13—to'mi yetaklovchi val; 11—to'mi harakatlanuvchi vallar; 12—to'mi*  
*to'g'irilovchi val; 14—to'r.*




**8.2-rasm.** Namlikni so'rish qutisi:  
 1—suv va havoni chiqaruvchi trubalar; 2—quti balandligini rostlash boltlari; 3—korpus; 4—ko'p teshikli yoping'tichi;  
 5—shaber; 6—namlikni so'tgich enini rostlovchi vint.



8.3-rasm. 1- tur to'r tortib turgich sxemasi:

1, 5—kronshteynlar; 2—reduktor; 3—richag; 4—vint; 6—pnevmatik dvigatel; 7—val ulagich; 8—maxovik; 9—to'mni yetaklovchi val; 10—to'r.



8.4-rasm. 2- tur to'r tortib turgich sxemasi:

1—membranli mexanizm; 2—kronshteyn; 3—richag; 4—vint; 5—reduktor; 6—maxovik; 7—tire stol balkasi; 8—tire yetaklovchi val; 9—tire.

## To'rni to'g'rilagich

To'r to'g'rilagich eni 8400 mm, tezligi 1500 m/min gacha bo'lgan qog'oz va karton quyish hamda quritish mashinalarining to'qli qismalarini simmetrik holatda saqlab turish uchun mo'ljallangan. To'qli to'g'rilagichlarning uch turi mavjud:

- birinchisi qo'l bilan boshqariladigan;
- ikkinchisi avtomatik boshqaradigan;
- uchinchisi aralash — ham qo'lda ham avtomatlar yordamida boshqariladigan to'qli to'g'rilagichlar.

### 8.2. Namlikni so'rvuchi qutilar


Namlikni so'rvuchi qutilar qog'oz, karton quyish va quritish mashinalari to'r qismining oxiriga joylashtirilgan bo'lib, qog'oz polotnoni suvsizlantirishga mo'ljallangan.

**Tuzilishi.** Qutidagi nasos yordamida hosil qilingan vakuum orqali qog'oz polotno suvsizlantiriladi. Dastlab vakuum qo'lda hosil qilinadi, so'ngra avtomatik ravishda boshqarishga o'tiladi.

Quti zonasasi boshqaruvchi qurilma va chiqaruvchi quvurdan iborat. Old tomonda kuzatish tuynugi joylashgan. Mashinada qutining joylashgan o'rnini o'zgartirish mumkin. Qutining texnik tavsifi 64-jadval keltirilgan.


64-Jadval

Qirqim olchami, mm	L	B	H
1680	2500	1680	2500
2520	3340	2520	3340
4200	5000	4200	5000
6300	7200	6300	7200
6720	7600	6720	7600




8.5- rasm. Namlikni so'rvuchi qutining sxemasi:

1—korpus; 2—namlikni so'rvuchi zonasini boshqaruvchi qurilma; 3—qopqoq;  
4—so'rvuchi quvur; 5—tayanch.



*8.6-rasm. Birinchi tur namlikni so'ruvchi quti:*

*1—qopqoq; 2—korpus; 3—gidrozatvor; 4—quvur (ventilli bilan).*



*8.7-rasm. Ikkinchi tur namlikni so'ruvchi quti:*

*1—qopqoq; 2—korpus; 3—gidrozatvor; 4—boshqariladigan ventilli quvur.*

Namlikni so'ruvchi qutilarning ikki turi mavjud:


- gidrozatvori olib qo'yiladigan qutilar (8.6-rasm);
- gidrozatvori qutining o'ziga mahkamlab o'rnatilgan qutilar (8.7-rasm).

Namlikni so'ruvchi vallar qog'oz, karton quyish va quritish mashinalarining to'qli qismida polotnoni suvsizlantirish va uni navbatdagi jarayon uchun uzatishga mo'ljallangan.


Namlikni so'ruvchi vallarning turlari ko'p. Ular bir-biridan kameralarining soni, qoplamasi va ular qanday metalldan yasalganligi bilan farqlanadi, chunonchi:

- ikki yoki ko'p kamerali;
- zanglamaydigan po'lat yoki bronzadan yasalgan;
- podshipniklarining joylashishiga ko'ra;
- qoplarnasining turiga ko'ra.

Val qoplamasidagi perforatsiya koeffitsienti 10,5 dan 21,4 % gacha, material bo'yicha esa 17 dan 28,8 % gacha tashkil etadi; uning tezligi 120 dan 1000 m/min gacha. Vallar eni 1800 dan 6720 mm gacha bo'lgan polotnolar tayyorlaydigan mashinalar uchun mo'ljallangan. Qoplamasi bilan vallar diametri 600 dan 1350 mm ni tashkil etadi.



*8.8-rasm. Old qismi ichiga joylashtirilgan podshipnikli nam havo so'rvuchi val.*




*8.9-rasm. Old qismi tashqarida joylashgan podshipnikli nam havo so'rvuchi val.*

### 8.3. Erkin harakatlanadigan vallar (TU 26-08-622-78)

Bunday vallar qog'oz yoki karton polotnoga bosim ostida ishlov berishga mo'ljallangan (8.10-rasm). Vallar qog'oz va karton quyish mashinasi presslarining vallariga, superkalandrlariga o'matiladi. Val, asosan, po'lat o'zak va qobiqdan tashkil topgan.

Kalandr va superkalandr vallari qobig'ining sirtqi qavatiga maxsus ishlov berilgan; presslash valining sirtqi qavati esa poliuretan yoki zanglarmaydigan po'latdan tayyorlanadi.

Erkin harakatlanadigan val yordamida ishlov berilayotgan polotno sirtiga berilayotgan bosimning bir xilligi ta'minlanadi.




**8.10- rasm. Erkin harakatlanadigan val:**

1—o'zak; 2—qobiq; 3—sferasimon rolikli podshipnik; 4—vtulka.

#### **8.4. Aylanma vallar (TU 26-08-649-79)**

Aylanma vallar (8.11- rasm) qog'oz va karton quyish mashinalarida eni 6720 mm gacha bo'lgan polotnolarni quyishda bosim qutisida massa tezeligini tartibga solib turish hamda kichik uyurmalar hosil bo'lishining oldini olishga mo'ljallab o'rnatiladi.

Val zanglamaydigan po'latdan yasalgan bo'lib, teshiklar o'yilgan qobiq, yon devor va sapfadan tashkil topgan. Valning teshikdar o'yilgan yurasi 30—52% ni tashkil etadi. Uning texnik tavsifi 64- gadvalda berilgan.



**8.11- rasm. Aylanma val.**

65-jadval

#### **Valning texnik tavsifi**

Polotno eni, mm	OKP kodi	Val o'chами, mm		Massasi, kg
		D	L	
1680	36 5235 1501	120	1900	16-55
2100	36 5235 1506	120	2520	20-60
2520	36 5235 1503	120	2900	23-65
4200	36 5235 1527	170	4600	50-100
6300	36 5235 1550	210	6500	92-340
6720	36 5235 1570	250	7100	115-440

#### **8.5. Mashinanining polotnoni quritishi qismlarining umumiyl tavsisi**

Bug' yordamida qizdiriladigan quritish silindrлarida qog'oz, karton va sellyuloza polotnolari quritiladi.

Quritish jarayoni kontakt-konvektiv usulda olib borilib, silindrлardagi bug'ning maksimal bosimi 0,8 MPa ga teng.

Quritish qismi quydagi uzellardan tashkil topgan:

- staninaning old tomoni (quyib yoki payvandlab tayyorlangan);
- stanina (quyib yoki payvandlab tayyorlangan);

- quritish yoki sovutish silindrлari;
- quritish yoki sovutish silindrлarining podshipnikli uzellari;
- to'r va qog'oz (karton)ni yetaklovchi vallar;
- to'mni tortish va to'g'rilash tizimi;
- quritish silindrлarini tozalovchi shaberlar (qirg'ichlar);
- to'mni tozalovchi qurilma;
- polotnoni barqarorlashtirib beruvchi qurilma;
- qiya kesish pichoqlari;
- ishchilar xizmat ko'rsatishi uchun tagliklar;
- arqon-polotnoni uzatgich va boshqa uzellar.


Ko'p silindrli quritigchlarning quyidagi turlari ishlab chiqariladi:

- ikki yarusda joylashgan;
- bir yarusda joylashgan;
- besh yarusda joylashgan;
- krepirllovchi silindrli;
- silliqlash silindiri va qo'shimcha quritish silindrлari guruhi bor quritgich.

Silindrлarning diametri 1500 yoki 1800 mm va undan katta bo'ladi. Silindrлar soni ishlab chiqariladigan mahsulot turi va ishlab chiqarilayotgan quvvatga bog'liq. Polotno silindrлarga mashinaga o'matilgan maxsus arqon yordamida o'raladi.


### **Ikki yarusda joylashgan quritish silindrлari**

Bu qurilma, asosan, qog'oz va kartonni quritishga mo'ljallangan (8.12- rasm). Bunday qurilmada polotnoni bir yoki ikkita to'r yordamida uzatish mumkin. Polotno polotno tipidagi to'r yordamida uzatilganda cheti tebranmaydi. Quritish silindrli to'rining silindrغا o'ralish burchagi ortsas qog'oz polotnoning yirtilishi kamayadi. Ya'ni bunda polotnoning bir tomoni ikkinchi tomoniga nisbatan tezroq quriydi — nami bug'lanadi va u eniga qisqaradi. Natijada quritish silindrining ishi ancha osonlashadi. Ishlab chiqariladigan mahsulotning turiga qarab qurilmada 1- yoki 1-dan 4-gacha bo'lgan „Slalom“ tipidagi to'r qo'llaniladi.



**8.12- rasm. Ikki yarusda joylashgan quritish silindrлari:**

1—to'mni yo'naltiruvchi val; 2—quritish silindr; 3—to'mni to'g'rilagich; 4—stanina; 5—ko'prikcha (taglik)lar; 6—avtomatik to'rcho'zgich; 7—quritish silindrining shaberi.



**8.13- rasm.** Bir yarusda joylashgan quritish silindrlari:

1—to'mi yo'naltiruvchi val; 2—quritish silindri; 3—tashuvchi (tekislovchi) val;  
4—polotnoni to'g'rilaqich.


### Bir yarusda joylashgan quritish silindrlari

Bu silindrlar ham qog'oz va kartonlarni quritish uchun mo'ljallangan (8.13- rasm).

Bir yarusda joylashgan quritish silindrlarida to'mi yo'naltiruvchi vallarning ikki xili ishlataladi: ariqchali va so'ruchchi vallar. Polotno harakatlanishi uchun ariqchali vallar ishlataladi. Vallarni maxsus qurilma yordamida o'rnatiladi. Yuqori tezlikda ishlaydigan mashinalardagi bir yarusda joylashgan quritish silindrlari polotnoning tortilib yirtilmasdan o'tishini ta'minlaydi.

### Besh yarusda joylashgan quritish silindrlari

Bunday silindrlarga ega mashinalar, asosan, selliyulozani quritish uchun mo'ljallangan (8.14- rasm).



**8.14- rasm.** Besh yarusda joylashgan quritish silindrlari:

1—quritish silindrlari; 2—stanina; 3—selliyulozani yo'naltiruvchi val.

## **8.6. Qog'oz quyish mashinasi quritish qismining shamollatish apparati va uning umumiy tavsifi**

**Tuzilishi.** Mashina quritish qismning shamollatishi uzeli qog'oz quyish mashinasining ishlab chiqarish quvvatiga, ishlab chiarilayotgan mahsulotning sifati va qiymatiga ko'p jixatdan bog'liq. Qog'oz va karton quyish mashinasining quritish qismida ko'p miqdorda issiqliq va namlik ajralib chiqadi. Quritish qismidan ajralib chiqqan issiqlik va namlik xona muhitini o'zgartiradi. Buning oldini olish maqsadida xona tez-tez shamollatib turiladi. Ana shunda apparatning quritish qismi samarali ishlaydi va qog'oz quyish sexi xonasidagi sharoit yaxshilanadi. Xona quyidagi maqsadlarda shamollatiladi:

- issiqliknki qaytarish;
- quritish jarayonini jadallashtirish, bu maqsadda sukno, to'r va silindrler orasiga qo'shimcha ravishda issiq havo beriladi;
- bug'lanishni boshqarish, mashina zalida havo almashinish jarayonini me'yorlash;
- quritish qismidagi mehnat sharoitini yaxshilash.

Mashinada havo almashtirish texnologiyasi tizimi sexning havo almashinish tizimiga bog'liq. Bu tizimda umumi shamollatish qurilmasidan foydalaniadi. Quritish jarayonida polotnodan ajralib chiqqan namlik havoga o'tadi. Bug'-havo aralashmasi shamollatish qurilmasi yordamida tashqariga chiqarib yuboriladi. Turdosh qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi mashinalar shamollatish tizimi bo'yicha uch guruhga bo'linadi: yopiq tizimli shamollatish mashinalari, ochiq tizimli shamollatish mashinalari va aralash (kombinatsion) tizimli shamollatish mashinalari. Ba'zi mashinalar tarkibida havo almashtirish agregatlari — to'r va suknonining namini shamollatish qurilmalari hamda konvektiv qurikichilar ham bo'ladi.

Yopiq turdag'i shamollatish tizimida qog'oz nisbatan yuqori temperaturada quritiladi. Yopiq tipdag'i shamollatish tizimidan chiqarib yuborilayotgan havo temperaturasi 50–60 °C ni tashkil etadi. Bu tizimdag'i mashinaning quritish qismi qopqoq bilan ta'minlangan. Issiqlik haydovchi qurilmalardan havoni qo'shimcha isitib berishda foydalaniadi.

Yupqa va mahsus turdag'i qog'oz ishlab chiqaradigan mashinalarning quritish qismi ochiq turdag'i shamollatish tizimi bilan jihozlangan. Bu tizimdan ajralayotgan havoning temperaturasi 30–37 °C ni tashkil etadi. Tizim ochiq qopqoqli, issiqliknki haydash birinchi yoki ikkinchi bosqichda ajralayotgan issiqlikn samarali sarflash sxemasi bilan ta'minlangan.

Ochiq qopqoqlar qog'oz va karton quyish mashinalaridan chiqadigan bug'-havo aralashmasini to'plash va tashqariga chiqarib yuborish uchun mo'ljalangan (8.15- rasm).

**Tuzilishi.** Qurikichlarning qopqoqlari quritish qismining ustiga o'rnatiladi. Ularning texnik tavsifi 65-jadvalda keltirilgan. Qopqoq quyidagilardan tashkil topgan:

- karroziyaga qarshi lak-bo'yoq bilan bo'yagan po'lat qobiq;



**8.15- rasm.** Quritish qismi ochiladigan qopqoq bilan jihozlangan apparatning umumiy ko'rinishi.

- mashinaning qog'oz polotnoni mashina eni bo'ylab quruqlik darajasini bir me'rida saqlab turuvchi yuza tomoni va uzatmadan bug'havo aralashmasining chiqishini tartibga soluvchi qismi;
- so'ruvchi patrubkalar, ular kerakli miqdordagi havo almashinishini ta'minlaydi;
- issiqlikdan himoyalaydigan alyuminiy qopqoq.

66-jadval

Quritish apparatining texnik tavsifi

Polotnoning eni, mm	Qopqoq o'chamlari, mm		1 m uzunlikdagi qopqoq massasi, t
	balandligi	eni	
1680	6300	6900	0,6
2100	6300	7400	
2520	6700	7900	

### Mashinaning yopiq qopqoqli quritish qismi

Yopiq qopqoqlar quritish qismidan ajralayotgan bug'havo aralashmasini bir me'yorda chiqishini ta'minlaydi, qog'oz polotnoning qurish jarayonini tezlashtiradi, issiqlik energiyasi sarfini kamaytiradi, issiq nam havoni sexga o'tkazmaydi (8.16- rasm). Bundan tashqari, ish sharoitini yaxshilashga, mashina konstruksiyasini zararli ta'sirdan saqlashga yordam beradi.

Tuzilishi. Yopiladigan qalpoqlar karton quyish mashinalarining quritish qismi ustiga o'matiladi. Qopqoq quyi qismining yuza tomonida uzatma tomonidan — suriluvchi shitni ko'tarish mexanizmi, yuqori qismining uzatma tomoniga esa qo'zg'almas shit o'matilgan. Qopqoqning yon tomonlarida ikkitadan eshik bor (66-jadval). Qopqoq quyidagi qislardan tashkil topgan:

- karroziyaga qarshi lak-bo'yoq bilan bo'yalgan po'lat qobiq;
- qopqoqning yuza tomonida joylashgan shitlarni ko'tarish mexanizmi;
- kuzatish ko'rikchalar;
- qog'oz polotnoning quruqlik darajasini me'yorlovchi zaslona (lo'kidon);
- so'ruvchi patrubkalar, ular zarur havo almashinishini ta'minlaydi;
- yoritish tizimi.




8.16- rasm. Mashina yopiq qopqoqli quritish qismining umumiy ko'rinishi.

67-jadval

Texnik tavsifi

Polotnoning eni, mm	Qopqoq o'chamlari, mm		I m uzunlikdagi qopqoqning massasi, t
	balandligi	eni	
2 520 gacha	5 000 - 6 500	5 000 - 7 500	0,7 - 1,0
2 520 dan yuqori	7 000 - 7 500	7 000 - 9 500	1,0 - 1,2
4 200 dan yuqori 6 720 gacha		9 000 - 12 000	1,2 - 1,4
6 720 dan yuqori 8 900 gacha	8 000 - 9 500	14 500 - 15 500	

## 8.7. To'rnli shamollatish kamerasi



8.17- rasm. To'rnli shamollatuvchi kameraning umumiy ko'rinishi.

Bu kamera silindrlar orasidagi bo'shilqqa issiq havo uzatish va shamollatishga mo'ljallangan (8.17- rasm). Kamera quritish jarayonini tezlashtiradi, qog'oz yoki karton polotnoni mashina eni bo'yicha tekislaydi. Olingan mahsulotning fizik-mexanik ko'rsatkichlarini yaxshilaydi, to'rnli iflosliklardan tozalaydi va namligini karmaytiradi.

Tuzilishi. Shamollatish kamerasi yuqori bosim bilan ishlaydigan markazdan qochma parrak, kolorifer va to'rga shamol yo'naltirib beruvchi kamera, paralell ulangan havo o'tkazuvchi quvurlardan tuzilgan. Kameraga uzatilayotgan havo temperaturasi  $75-85^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi. To'rga shamol uzatuvchi kamera —

korpus va teshikli havo taqsimlagichdan iborat. Kamera korpusi bo'ylama to'siq bilan ajratilgan. Havo taqsimlash qurilmasi kamerasida uchta alohida seksiya bor. Bu seksiyalar ularga berilayotgan issiq havo miqdorining o'zgarishi hisobiga qog'oz polotno namligini boshqarish imkonini beradi. Har bir kamera seksiyasiga berilayotgan havo miqdori havo quvurlariga o'rnatilgan zaslonda (lo'kidon) yordamida boshqariladi. Uning texnik tavsifi 68-jadvalda keltirilgan.


68-jadval

### Shamollatish kamerasining texnik tavsifi

Polotnoning eni, mm	Kameraning ish kengligi, mm	Kameradagi havo sarfi, m <sup>3</sup> /soat
1680	2100	840 - 1680
2100	2500	1000 - 2000
2520	3000	1200 - 2400
4200	4600	1840 - 3700
6300	6700	2700 - 5400
6720	6900	2750 - 5500

## 8.8. Vallar

Vallar qog'oz, karton va quritish mashinalarida to'r va suknoni bir tekis tortib turish va yo'naltirish uchun mo'ljallangan.



8.18- rasm. Val:  
D—val diametri, L—val uzunligi.

Tuzilishi. Vazifasiga qarab registrli, to'mni, suknoni, qog'oz va kartonlarni yo'naltiruvchi vallarga bo'linadi. Vallarning ichi havol bo'lib, yupqa po'lat listdan yasalgan va ichiga cho'yan patronlar, po'lat sapfalar presslab joylashtirilgan bo'ladi. 69-jadvalda vallarning texnik tavsifi keltirilgan.

69-jadval

Vallarning texnik tavsifi


Diametri $D$ , mm	Uzunligi $L$ , mm	Devorining qaliligi $S$ , mm	Massasi, t
215	2000	8	0,18
	3000		0,23
	4000		0,27
	5000		0,31
265	2000	10	0,23
	3000		0,29
	4000		0,35
	5000		0,42
320	2000	10	0,35
	3000		0,43
	4000		0,51
	5000		0,58
350	2000	10	0,37
	3000		0,45
	4000		0,54
	5000		0,62
	6000		0,71
400	2000	12	0,53
	3000		0,65
	4000		0,76
	5000		0,88
	6000		1,0
450	2000	14	0,60
	3000		0,75
	4000		0,90
	5000		1,05
	6000		1,20
500	2000	14	1,35
	3000		0,64
	4000		0,81
	5000		0,97
	6000		1,14
	7000		1,31
550	2000	16	1,48
	3000		0,92
	4000		1,13
	5000		1,34
	6000		1,55
	7000		1,76
	8000		1,97
600	4000	16	2,18
	5000		1,42
	6000		1,65
	7000		1,88
	8000		2,11
	9000		2,34
			2,57

1	2	3	4
650	4000		1,62
	5000		1,90
	6000		2,18
	7000	18	2,46
	8000		2,74
	9000		3,02
700	5000		2,10
	6000		2,40
	7000	18	2,70
	8000		3,0
	9000		3,30

*Eslatma.* Diametr  $D$  qiymati qoplamasiz vallar uchun keltirilgan.

### 8.9. Tambur vallar

Tambur vallar qog'oz yoki kartonlarni rulon ko'rinishida polotno tarzida superkalandr va bo'ylama qirqish dastgohidan mashinalarning nakatiga o'rash uchun mo'ljallangan. Bu vallarning texnik tavsifi 70-jadvalda berilgan.



8.19- rasm. Tambur val.

70-jadval


### Tambur vallarning texnik tavsifi

Diametri $D$ , mm	Uzunligi $L$ , mm	Devorining qalinligi $S$ , mm	Massasi, t
215	2500		0,32
	3000		0,36
	3500	14	0,40
238	2000		0,35
	2500		0,40
	3000		0,44
	3500		0,49
	4000		0,53
265	2500		0,50
	3000		0,55
	3500		0,60
	4000	14	0,65
320	3000		0,86
	3500		0,93
	4000	16	0,99

1	2	3	4
350	3000	16	1,06
	3500		1,13
	4000		1,21
	4500		1,28
400	4000	18	1,67
	4500		1,76
	5000		1,86
	5500		1,93
450	4500	18	2,31
	5000		2,41
	5500		2,59
	6000		2,63

### 8.10. Kalandrlar

Bunday vallar qog'oz yoki karton polotnolarga bosim ostida ishlov berish uchun mo'ljallangan (8.20- rasm). Kalandrlar qog'oz, kartonni yo'naltiruvchi va superkalandrlarga o'rnatiladi. Kalandlarning texnik tavsifi 71-jadvalda keltirilgan.



8.20- rasm. Kalandr.

71-jadval

### Kalandlarning texnik tavsisi

Diametri $D$ , mm	Uzunligi $L$ , mm	Devorining qalinligi $S$ , mm	Sapfa bilan birga uzunligi $L_1$ , mm	Massasi, t
1680	250	1830	3420	0,73
	300	1830	3420	1,04
	300	1880	3450	1,07
	450	1880	3450	2,76
	550	1880	3450	3,94
2100	300	2250	3750	1,31
	300	2300	3900	1,33
	350	2300	3900	1,79
	450	2300	3900	2,95
	550	2300	3900	4,74
2520	300	2670	4300	1,55
	320	2670	4300	1,59
	350	2670	4300	2,08
	350	2700	4300	2,16
	500	2700	4300	4,23
	550	2700	4300	5,80
	600	2700	4300	6,33

1	2	3	4	5
4200	370	4350	6500	3,95
	400	4500	6500	4,84
	500	4500	6500	7,70
	800	4500	6500	19,51
6300	500	6600	8600	11,31
	600	6600	8600	14,52
	760	6600	8600	21,70
	860	6600	8600	27,20
	1020	6600	8600	41,20
6720	500	7100	10100	10,40
	600	7100	10100	15,60
	760	7100	10100	23,60
	860	7100	10100	29,50
	1020	7100	10100	45,50


### 8.11. Nakat silindrlar

Nakat silindrlar qog'oz yoki kartonni tambur valga o'rالishiga yordam beradi. Bunday silindrlar qog'oz va karton quyish mashinalarining o'rash qismlarida ishlataladi.

Tuzilishi. Nakat silindr cho'yan baraban ko'rinishida bo'lib, unga sapfali quyma po'lat qopqoq mahkamlangan. Uning texnik ko'rsatkichlari 72-jadvalda berilgan.


#### Texnik tavsifi

Polotnoning eni, mm	Diametri $D$ , mm	Uzunligi $L$ , mm	Massasi, t
1680	1100	1900	2,4
2100	1100	2300	3,0
2520	1100	2800	3,5
4200	1100 (1250)	4500	5,0 (5,8)
6300	1200 (1250)	6600	8,2 (12,0)
6720	1250	7100	13,0



8.21-rasm. Nakat silindr.

## 8.12. Quritish va sovitish silindrлari



8.22- rasm. Quritish va sovitish silindrлarining umumiy ko'rinishi.


Bu silindrлar qog'oz yoki karton polotnolarni kontakt usulida quritish yoki sovitish va namlashga mo'ljallangan (8.22- rasm).

Tuzilishi. Silindr asosiy qism — korpus va unga boltlar bilan mahkamlangan yon qopqoqlardan iborat. Ular quyib yasalgan yoki sapfa bilan presslab ishlangan. Qopqoqning yuza tomonida o'yiq bo'lib, u montaj ishlarini bajarishga va kondensatni chiqarib yuborish, ta'mirlash ishlarini bajarish uchun mo'ljallangan. Silindrning korpusi СЧ20, СЧ25, СЧ30 rusumli cho'yandan quyib, qopqog'i esa molibden, xrom, mis bilan ligerlangan cho'yandan (СЧ25, СЧ30, ВЧ40 rusumli) yasalgan. Quritish silindrлariga 180 °C li, to'yigan yoki o'ta qizdirilgan bug' 0,8 MPa bosim ostida beriladi. Sovitish silindrлariga esa ko'pi bilan 30 °C temperaturali toza suv 0,15 MPa bosim ostida beriladi.

73-jadval


### Texnik tavsif

Parametrlari	Qiymati
Silindr diametri, mm	1500, 1524, 1800, 1812, 1830, 2200
Mashina tezligi, m/s	25 gacha
Silindr bo'chikasining uzunligi, mm	8900 gacha



8.23- rasm. Qopqog'i quyib ishlangan quritish silindr:

1 — old tomondagi qopqoq; 2 — korpus; 3 — uzatma (orqa) tomondagi qopqoq; 4 — tuynuk.



8.24- rasm. Qopqog'i alohida tayyorlangan quritish silindri:

1 — sapsfaning yuza tomoni; 2 — qopqoqning yuza tomoni; 3 — korpus; 4 — tuynuk;  
5 — qopqoq uzatmasi; 6 — uzatma tomonidagi sapfa.

### 8.13. Bug' kallagi (OST 26-08-78)


Bu apparat sukno quritish va umuman quritish silindrлariga 0,8 MPa bosimli bug'ni uzatish va ulardan kondensatni chiqarib yuborishga mo'ljallangan. Bug' kallagi qog'oz, karton quyish va quritish mashinalarining quritish qismlariga o'matilgan bo'lib, eni 6720 mm bo'lgan polotnolar uchun mo'ljallangan.

Bug' kallagi ikki turda tayyorlanadi: GPN — kondensatni siljimaydigan sifon orqali chiqaradigan va GPV — kondensatni aylanadigan cho'michli sifon yordamida chiqaradigan bug' kallagi. Bug' kallagining texnik tavsifi 74,75-jadvallarda keltirilgan.

74-jadval


ГПН туридаги bug' kallagining asosiy gabarit  
o'chamlari va massa

Belgisi	OKP kodi	$D_o$ , mm	$d_o$ , mm	$L_1$ , mm	$L_2$ , mm	$L_3$ , mm	$L_4$ , mm	$L_5$ , mm	$L_6$ , mm	$H$ , mm	$H_1$ , mm	$B$ , mm	$B_1$ , mm	Mas-sasi, kg
454.01.000	36 5235 1325	40	32	160	350	50	1300	585	2185	160	120	75	250	80
454.02.000	36 5235 1325	50	40	175	285	50	1300	540	2140	170	125	75	200	84
454.03.000	36 5235 1325	65	50	190	300	60	1300	580	2180	170	140	75	260	110
454.04.000	36 5235 1325	100	65	225	365	70	1400	695	2395	200	160	100	320	152



8.25- rasm. Qo'zg'almas sifonli bug' kallagi:

1 — bug' o'tkazuvchi patrubka; 2 — korpus; 3 — sifonli kompensator; 4 — grafit halqa; 5 — stanina; 6 — kondensat chiqaruvchi quvur; 7 — bug' o'tkazuvchi quvur; 8 — qo'zg'almas sifon.



8.26- rasm. Aylanma cho'michli bug' kallagi:

1 — bug' uzatish quvuri; 2 — korpus; 3 — zichlovchi grafit halqa; 4 — bug' chiqarish quvuri; 5 — kondensat chiqarish quvuri; 6 — flanes.

ГІИН таридаги bug' kallagining asosly gabarit o'lchamlari (mm) va massa (kg)

Belgisi	OKP kodi	D <sub>u</sub>	d <sub>u</sub>	L <sub>1</sub>	L <sub>2</sub>	L <sub>3</sub>	L <sub>4</sub>	L <sub>5</sub>	H	B	B <sub>1</sub>	Mas-sasi
454.05.000	36 5235 1325	40	32	160		1400	470	1870			250	66,5
454.09.000	36 5235 1325	50	40	175	180		480	1880	185	300	200	77,4
454.10.000	36 5235 1325	65	50	190	320		490	890	200	430	260	119,9

### 8.14. Qog'oz, karton, suknoni quritish va sovitish silindrlari (TU 26-08-243-72)


Mashinalarga o'matiladigan quritish silindrlari qog'oz (karton, sellyuloza)ni kontakt usulida quritish; suknouquritkichlar — suknoni quritish; sovitkichlar — qog'oz (karton, sellyuloza) polotnolarni namlash va sovitish uchun mo'jallangan.

Silindr, asosan, korpus, yon qopqoq va sapfa (8.27- rasm) dan tuzilgan.

Quritish silindrlariga to'yingan yoki o'ta quruq bug' 115-180°C temperatura va 0,8 MPa bosim ostida beriladi. 76- jadvalda mashinaning texnik tavsifi keltirilgan.

#### Texnik tavsifi

Polotno eni, mm	OKP kodi		Tezligi, m/s	Tashqi diametri D, mm	Korpusning qopqog'i bilan birga uzunligi L, mm	Massasi, kg	
	quritish silindrlari	sovithish silindrlari				quritish silindrlarini	sovithish silindrlarini
1680	36 5235 2105	36 5235 2225	2,5	1000	2200	2340	2300
2100	36 5235 2105	36 5235 2255	5,8	1000	2680	2840	2800
2520	36 5235 2105	36 5235 2285	10	1000	3180	3360	3320
4200	36 5235 2105	36 5235 2315	25	1250	4890	6010	5970
6300	36 5235 2105	36 5235 2335	16,7	1500	7100	9250	9200
6720	36 5235 2105	36 5235 2345	16,7	1500	7400	9505	9460



8.27-rasm. Quritish va sovitish silindrlari:

- 1 — mashina old tomonidagi qopqoq; 2 — silindr korpusi; 3 — tuynik qopqog'i;  
4 — mashinani harakatga keltiruvchi qism qopqog'i.

## 8.15. Silliqlash va krepirlash silindrlari

Silliqlab jilo berish va krepirlash silindrlari qog'oz va karton quyish mashinalariga o'rnatiladi. Silliqlash silindrlari afisha, yorliq, qop va qutilar uchun qog'oz hamda kartonlar ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan (8.28, 8.29, 8.30- rasmlar).

Krepirlash silindrlari yupqa, namni shimuvchi qog'oz, shu jumladan (krepirlangan) yumshoq va cho'ziluvchan (sanitar-gigienik safetkalar, hojatxona qog'ozlari va boshqalar) qog'oz olishda mo'ljallangan. Uning texnik tavsifi 77-jadvalda keltirilgan. Silliqlovchi va krepirlovchi silindrlar quyidagicha tuzilgan:

- korpus, devori silliq yoki devorining ichki yuzasi qobirg'ali;
- qopqoq;
- ichi havol val.


Kondensatni chiqarib yuborish usulida qarab silindrlar quyidagicha bo'ladi:

- sifoni silindr;
- cho'michli silindr;
- kondensat aralash usulda chiqarib yuboriladigan silindr.

77-jadval


Texnik tavsifi

Parametrlari	Qiymati
Kondensatni chiqaruvchi silindr diametri, mm	2500, 3000, 3200, 3660, 4250
Silindrda bug'ning maksimal bosimi, MPa	1,0
Maksimal ish tezligi, m/min:	
- cho'mich bilan	350
- sifon bilan	1000
Silindr bo'chkasining maksimal uzunligi, mm	5000
Siqish vallari orasidagi maksimal bosim, kN/m <sup>2</sup>	100




8.28- rasm. Silliqlovchi (krepirlovchi) sifoni silindr sxemasi:

1 — bug' quvuri; 2 — qopqoqning old tomondan ko'rinishi; 3 — sifon; 4 — korpus; 5 — ichi havol val; 6 — qapqoqning uzatma tomondan ko'rinishi; 7 — kondensat chiqarib yuboriladigan ingichka quvur.



**8.29- rasm. Siliqlovchi (krepirlovchi) cho'michli silindr sxemasi:**  
**1 — bug' quvuri; 2 — qopqoqning old tomondan ko'rinishi; 3 — cho'mich;**  
**4 — silindr korpusi;**  
**5 — ichi havol val;** 6 — qopqoqning yuritma tomondan ko'rinishi; 7 — kondensat  
chiqarib yuboriladigan kichik diametrli quvur.



**8.30- rasm. Siliqlovchi (krepirlovchi) kollektorli silindr sxemasi:**  
**1 — bug' quvuri; 2 — qopqoqning old tomondan ko'rinishi; 3 — sifonli kollektor;**  
**4 — korpus;**  
**5 — ichi havol val;** 6 — golpoqning yuritmali tomondan ko'rinishi; 7 — kondensatni  
chiqarib yuborish uchun ingichka quvur.

## 8.16. Sukno yuvgich

Qog'oz, karton va quritish mashinlariga o'rnatilgan bu mexanizm vakuum ta'sirida presslangan suknoni tozalash — yuvishga mo'ljallangan.

Sukno yuvgichda chiqindi chiqarish quvuri bo'lib, korpusga payvandlab ulangan. Sukno yuvgichdagi tirkishlarning diametri quyidagicha:

— ikki tirqishlida 8, 10 va 12 mm.


78-jadvalda sukno yuvgichning texnik tavsifi keltirilgan.

78-jadval

Texnik tavsifi

Polotnoning eni, mm	So'rish soxasi uzunligi L, mm
2520	2700-3150
4200	4350-4800
6300	6480-6900
6720	6900-7350

so'rish sohasi, L



8.31-rasm. Ikki tirqishli so'ruchchi zylanma sukno yuvgich sxemasi.

### 8.17. Yuqori bosimli purkagichlar


Purkash apparati sukno, to'r, to'rli silindrlar, so'ruchchi vallarni tozalash uchun mo'ljalangan. Purkagich mashinaning to'r va presslovchi qismlariga o'rnatiladi. Yuqori bosimli purkagich suv purkovchi niasi bor soploli quvur va suv yo'nalishini burish uchun gidravlik uzatimidan tuzilgan. Apparatning texnik ko'satkichlari 79-jadvalda keltirilgan.

79-jadval

Texnik ko'satkichlari

Parametrlari	Qiymati
Purkagich quvurining diametri D, mm	76-108
Quvur uzunligi L, mm	4150-8900
Soplo turi	ninali
Soploning harakat tezligi, mm	150-285
Uzatma turi	gidravlik
Ish suyuqligi	suv
Gidrotsilindr diametri, mm	100

1	2
Shtokning siljish tezligi, mm/s	10-120
Shtokning maksimal yurish tezligi, mm	315
Purkagich yordamida beriladigan suvning bosimi , MPa	2,5-4,0



8.32- rasm. Yuqori bosim purkagichi:

1 — gidravlik uzatma; 2 — kronshteyn; 3 — ninasi bor soploli quvor; 4 — uchlik (troynik);  
5 — yuqori bosim shlangi.

### 8.18. Sellyulozani quritish mashinasi

Bu mashina  $1 \text{ m}^2$  ining massasi 800...1000 g bo'lgan sellyulozani suvsizlantirish va quritish uchun mo'ljallangan.


Mashina bosim qutisi, to'r, presslash va quritish mexanizmlari hamda yordamchi asbob-usunalardan tuzilgan. Mashina ikki qavatda joylashgan.

Bosim qutisi ochiq turdag'i teshiklar o'yilgan plita va shunday valdan tuzilgan. Qutining ichki yuzasi zanglamaydigan po'latdan ishlangan bo'lib, yaxshilab jilvirlangan. Qutida joylashgan boshqarish qurilmasi  $1 \text{ m}^2$  sellyulzo ra massasini mashina eni bo'ylab bir tekis taqsimlanishini boshqarib turadi.

To'r. Mashina gorizontal joylashgan to'rli stol va yuqorigi to'r dan tuzilgan. Uch juft siquvchi vallar va yuqorigi to'r vositasida to'r qismidan o'tgan polotnoning quruqlik darajasi 30 % gacha ortadi. Siquvchi vallar sirti silliq bo'lib, namlikni o'ziga shimmaydi. Vallar gidravlik kuch vositasida  $50 \text{ kN/m}^2$  ga teng kuch bilan siqiladi. Bunda siqligan vallar orasidan o'tayotgan polotnoning narmligi (suvi) esa sizib chiqadi.

Presslash qismi sathi katta ikkita pressdan iborat. Presslovchi vallarning sirti rezina bilan qoplangan. Vallar gidravlik kuch vositasida siqiladi. Polotno ikki sukno orasiga olinib presslanadi. Suknolar tirkishli suknoyuvgich, rostlagich, taranglagichlar bilan jihozlangan. Katta kuch bilan presslangach, press qismidan o'tgan sellyulozaning quruqlik darajasi kamida 50 % ga yetadi. Mashinaning optimal konstruksiyasi sukno va vallarni tez hamda oson almashtirish imkonini beradi.

Quritish mexanizmi (8.33- rasm). Besh yarusli quritish silindralaridan o'tadigan polotno argon yordamida o'raladi. Quritish qismining oxiriga 4 ta sovitish silindrлari o'matilgan. Quritish qismining



8.33- rasm. Sellyulozani quritish mashinasining sxemasi.

quyi qismiga nuqsoni bor quruq qog'oz uchun transportyor o'rnatilgan. Jarayon paytida shamollatish qapqog'i yopiq turida. Sellyuloza polotnosini quritish mashinasida oddiy qog'ozni quritish mashinasinikiga qaraganda silindrlar soni kam bo'ladi. Shunday bo'lsada bu mashinada qog'oz polotnoni 50% gacha tez quritish mumkin. Mashinaning texnik tavsifi 80-jadvalda keltirilgan.

80-jadval

#### Sellyulozani quritish mashinasining texnik tavsifi

Parametrlari	Qiymati
Mahsulot turi: — tovar sellyuloza( $1 \text{ m}^2$ ning) massasi, g	800...1000
Sellulozo eni, mm	2400...6400
Mashina tezligi (hisoblangani), m/min:	80...100
Maksimal quvvati, t/sutka	150

#### MAVZUGA DOIR MASALALAR

1-masala. Bosim qutisidan qog'oz quyish mashinasining to'riga uzatilayotgan qog'oz massasi miqdori  $Q_m$  ( $\text{m}^3/\text{soat}$ ) ni hisoblang.

Berilgan: mashinaning quvvati  $Q_k = 6000 \text{ kg/soat}$ , qog'ozning nakatdagi quruqlik darajasi  $T_k = 94\%$ , bosim qutisidagi massa konsentratsiyasi  $T_{kut} = 0,5 \%$ ,  $T_{reg}$  — registr suvining konsentratsiyasi  $T_{reg} = 0,2 \%$ .

Hisoblash formulasisi:

$$Q_m = \frac{Q_k \cdot T_k}{(T_{kut} - T_{reg})100}.$$

2-masala. Qog'oz quyish mashinasining to'r stolida sellyuloza polotnosiga shakl beriladi. Shakl berish jarayonida suspenziyaning quruqlik darajasi 19–22 % ni tashkil etadi. Mashinaning presslash qismida suvsizlanish jarayoni davom etib, sellulozaning quruqlik darajasi 40–50 % ga yetadi. Qog'oz quyish mashinasi ho'l qismining ishlab chiqarish quvvati  $Q$  ( $\text{kg/soat}$ ) ni hisoblang.

Berilgan: sellyuloza polotnosining eni  $B = 4,8 \text{ m}$ ; to'rnинг harakatlanish tezligi  $\omega = 175 \text{ m/min}$ ; sellyuloza papkasining massasi  $\gamma = 600 \text{ g/m}^2$ .

Yechish formulasisi:

$$Q = \frac{B \cdot \omega \cdot \gamma \cdot 60}{1000},$$

3-masala. Sellyuloza polotnosini quyish mashinasi to'r yuzasining  $1\text{m}^2$  yuzasida hosil bo'ladigan quruq havodagi sellyuloza miqdori (g) ni hisoblang.

Berilgan: to'r qismining quvvati  $Q = 10 \text{ t/soat}$ ; sellyuloza polotnosining eni  $B = 4,8 \text{ m}$ ; sellyuloza polotnosining massasi  $\gamma = 400 \text{ g/m}^2$ ; sellyuloza polotnosining to'rda bo'lish vaqtini

$$\tau = \frac{L}{\omega} = 0,42 \text{ min.}$$

**Hisoblash formulasi:**

$$g = \frac{Q}{S} = 0,06 \frac{\omega}{L} \frac{\gamma}{\tau} = 0,06 \frac{\gamma}{\tau}, \text{ kg/soat}$$

**4-masala.** Qog'oz quyish mashinasini to'riga bir me'yorda massa kelishini ta'minlovchi qutibosimini (qutidagi massa balandligini)  $h$ , m hisoblang.

Berilgan: nakatdagi qog'oz tezligiga nisbatan to'r tezligining sekinlashishini hisobga oluvchi koefitsient  $K_c = 0,9$ ; massa tezligining to'r tezligiga nisbatini hisobga oluvchi koefitsient  $K_m = 0,93$ ; ochiq qutida massaning siqib chiqarishini hisobga oluvchi koefitsient  $\mu = 0,8$ ; qog'ozning nakatga o'ralash tezligi  $v = 625 \text{ m/min}$ ;  $g$  — erkin tushish tezlanishi.

**Hisoblash formulasi:**

$$h = \left( \frac{K_c K_m}{60 \mu} \right)^2 \frac{g^2}{2 g}.$$

**5-masala.** Qog'oz quyish mashinasining to'ri yuzasiga qog'oz massasining bir me'yorda quyilishini ta'minlash uchun massa ustunining balandligi  $N$  (mm) ni hisoblang.

Berilgan:

$\alpha_1$  — to'r tezligining mashina tezligiga nisbati;  $\alpha_2$  — oqim tezligining to'r tezligiga nisbati;  $\vartheta$  — mashinaning harakatlanish tezligi (quritish qismida), m/min;  $g = 9,81 \text{ m/sek}^2$ ;  $\varphi$  — tezlik koefitsienti  $0,97-0,98$ .

**Hisoblash formulasi:**

$$N = \frac{\alpha_1^2 \alpha_2^2 \vartheta^2}{2 g \varphi^2} \frac{1000}{},$$

$\alpha_1 = 0,93$  — so'rish mexanizmi yo'q qurilma uchun;  $\alpha_2 = 1$  — so'rish mexanizmi bor qurilma uchun;  $\alpha_2 = 0,95$ ;  $\varphi = 0,97$  deb qabul qilsak,  $N = 42,96 \times \vartheta^2 \text{ mm}$  (so'rish mexanizmi yo'q qurilma uchun) va so'rish mexanizmi bor qurilma uchun  $N = 48,96 \times \vartheta^2 \text{ mm}$ . Bu yerda  $\vartheta = 550 \text{ m/min}$ .

**6-masala.** Massaning ishga tushirish (ханык) qurilmasidan qog'oz quyish mashinasining to'r yuziga tushish tezligi  $\vartheta$  ni Torichello formulasi yordamida hisoblang.

**Hisoblash formulasi** quyidagicha:

$$\vartheta = 60 \sqrt{2gh}, \text{ m/min}$$

bu yerda:  $g = 9,81 \text{ m/s}^2$ ;  $h$  — massaning tirkishdan chiqishdagi bosim kuchi (tezligi) 12 m.

**7-masala.** Massaning qog'oz quyish mashinasining to'riga oqib tushish tezligi  $\vartheta$  (m) ni hisoblang.

Berilgan:  $v$  — qog'oz quyish mashinasining tezligi, 90 m/min;  $B$  — nakatga o'ralayotgan qog'oz polotnosining eni, 1,6 m;  $q$  — 1 m<sup>2</sup> qog'oz massasi, 110 g;  $W$  — nakatga o'ralayotgan qog'ozning namligi, 6 %;  $m$  — mashinada hosil bo'lgan qog'oz chiqindisi miqdori, 0,2 %;  $C$  — to'rga tushayotgan massa konsentratsiyasi, 0,27 %;  $l$  — qurilma tirkishining diametri, 20 mm;  $a$  — tirkish uzunligi, 10 mm.

**Hisoblash formulasi:**

$$g_m = \frac{0,001 v B q (100 - W)}{(100 - m) C l a}, \text{ m/min}$$

**8-masala.** Massa qog'oz quyish mashinasining to'riga bosim qutisidan beriladi. Bosim qutisining massa chiqadigan tirkishi ( $h$ ) ni hisoblang.

Berilgan:  $g = 1 \text{ m}^2$  qog'oz massasi, 70 g;  $T_{\text{qut}}$  — bosim qutisidagi massa konsentratsiyasi, 0,7 %;  $T_{\text{reg}}$  — registrdagi suvning konsentratsiyasi, 0,02 %;  $\zeta$  — oqib chiqayotgan massaning siqilish koefitsienti, 0,9.

Hisoblash formulasi:


$$h = \frac{g}{109 (T_{\text{qut}} - T_{\text{reg}})\zeta}.$$

9-masala. Qog'oz (karton) quyish mashinasining ishlab chiqarish quvvati ( $G$ , kg/soat) ni hisoblang.

Berilgan:  $B_n$  — qog'oz polotnoning nakatdagi eni, 6,3 m;  $g$  — mashina tezligi, 350 m/min;  $g = 1 \text{ m}^2$  qog'oz massasi, 70 g;  $K_1$  — mashinaning bir sutka davomida ishlagan vaqt, 23 soat;  $K_2$  — foydali ish koefitsienti, 0,96;  $K_3$  — chiqindini hisobga oluvchi koefitsienti, 0,97.

Hisoblash formulasi:

$$G = \frac{B_n g g 60 K_1 K_2 K_3}{1000}.$$



## **IX-BOB. SANITAR-GIGIENIK QOG'oz OLİSH TEXNOLOGIYASI**

### **9.1. Sanitar-gigienik qog'oz quyish mashinasi**

Bu qog'oz quyish mashinasining quvvati sutkasiga 100 tonna ( $1 \text{ m}^2$  ining massasi 15—40 g, tarkibida 100 % gacha makulatura bo'ladi) bo'lib, sanitar-gigienik qog'oz ishlab chiqarishga mo'ljallangan.

Xomashyo (makulatura) gidromaydalagichda 10...15 % konsentratsiyasida tuyiladi. Gidromaydalagichdan massa nasos yordamida uzatiladi. Havzada massaning konsentratsiyasi 3,0...3,5% gacha yetkaziladi. Havzadan massa tegirmonga, undan saralash apparatiga uzatiladi. Saralash mexanizmi to'rlı tebranma apparat bo'lib, to'r ko'zlarining o'lchami 2,5 mm ni tashkil etadi. Saralangan massa yuvish qurilmasiga yuboriladi. U yerda massa bo'yq va to'ldirgichlardan tozalanadi. Tozalangan massa mashina havzasiga yuboriladi.

Massa mashina havzasidan bir tekis sathda tutib turadigan bak orqali aralashtiruvchi nasosga uzatiladi; so'ngra massa konsentratsiyasi 0,25...0,35% gacha suyuqtirilib, uziil-kesil tozalash uchun konussimon uyurmali tozalash apparatiga yuboriladi. Bu yerda massa tola bo'limgan mayda aralashmalardan tozalanadi. Tozalangan massa qog'oz quyish mashinasiga uzatiladi.

#### **Massa tayyorlanadigan apparatlarning texnik ko'rsatkichlari**

##### **Gidromaydalagich:**

- sig'imi —  $2 \text{ m}^3$ ;
- gabarit o'lchami —  $DxL=1400 \times 1750$  mm;
- massa konsentratsiyasi — 8—10 %;
- ishlab chiqarish quvvati — 6...8 t/sutka;
- elektr dvigatel quvvati — 11 kWt;
- massasi — 600 kg.

##### **Tebranma elak:**

- sig'imi —  $0,9 \text{ m}^3$ ;
- gabarit o'lchami —  $2200 \times 800 \times 450$  mm;
- massa konsentratsiyasi — 1,0—1,5 %;
- ishlab chiqarish quvvati — 3,5 ...7,5 t/sutka;
- elektr dvigatel quvvati — 1,5 kWt;
- massasi — 120 kg.

##### **Ko'p funksiyallı tegirmor (rafinyor):**

- gabarit o'lchami —  $1100 \times 500 \times 400$  mm;
- pichoq diametri — 250 mm;
- aylanish chastotasi —  $1430 \text{ min}^{-1}$ ;
- massa konsentratsiyasi — 3...5 %;
- ishlab chiqarish quvvati — 5...15  $\text{m}^3/\text{soat}$ ;
- elektr dvigatel quvvati — 7,5 kWt;
- massasi — 220 kg.

##### **Sentrifuga:**

- gabarit o'lchami —  $1800 \times 700 \times 600$  mm;
- sig'imi —  $0,5 \text{ m}^3$ ;

- massa konsentratsiyasi — 0,8...3,0%;
- ishlab chiqarish quvvati — 10...15 t/sutka;
- elektr dvigatel quvvati — 5,5 kWt;
- massasi — 400 kg.

#### Massa haydaydigan nasos:

- gabarit o‘lchami — 1000x400x500 mm;
- ishlab chiqarish quvvati — 3,5...4,5 m<sup>3</sup>/soat;
- massa konsentratsiyasi — 3...5 %;
- ish masofasi — 16 m;
- aylanish chastotasi — 1450 min<sup>-1</sup>;
- massasi — 100 kg.

#### Yuwish qurilmasi:

- gabarit o‘lchamlari — 1500x1000x1000 mm;
- elektr dvigatel quvvati — 1,5 kWt;
- aylanish chastotasi — 340 min<sup>-1</sup>;
- massasi — 120 kg;
- massa konsentratsiyasi — 3...5 %.


### 9.2. Sanitar-gigienik qog‘oz quyish mashinasining konstruksiyasi, qog‘oz olish texnologiyasi

Sanitar-gigienik qog‘oz quyish mashinasining qog‘ozni kreplash darajasi ko‘pi bilan 10 %ni tashkil etadi. Bu mashina bosim qutisi, shakl berish qurilmasi, quritish qismi, nakat, yuritma, nazorat qurilmasi va h.k.lardan tashkil topgan (9.1- rasm). Mashina ikki qavatda joylashgan. Uning texnik tavsifi 81-jadvalda keltirilgan.

81-jadval

#### Sanitar-gigienik qog‘oz quyish mashinasining texnik tavsifi

Parametrlari	Qiymati
Mahsulot turi:	
— sanitar-gigienik qog‘oz, 1 m <sup>2</sup> ning massasi, g	15...40
Polotno eni, mm	4200
Mashina tezligi, m/min:	
— nazariy	1200
— ish tezligi (amaldagi)	850
— qo‘srimcha tezligi	20-30
Maksimal quvvati, ko‘pi bilan, t/sutka	100 gacha
Gabarit o‘lchamlari, mm:	
— uzunligi (asosiy val o‘qidan nakat silindri o‘qigacha)	16000
— kengligi	10000
— balandligi	9000
Massasi, t	470



9.1- rasm. Sanitar-gigienik qog'oz quyish mashinasining sxemasi.

### Texnik tavsifi

82-jadval

Quti turi	Polotno eni, mm	1 m <sup>2</sup> qog'oz massasi, g	Mashina tezligi, m/min	Massa sarfi, m <sup>3</sup> /sek
Gidrodinamik (tekislovchi kamerali)	4200; 5200; 6720		400...1000	0,5...2,5
Gidrodinamik (to'lqin so'ndirgichli)	2520; 4200; 6720	40...250	100...1000	0,5...2,5
Gidrodinamik (massa konsentratsiyasini qirqimi bo'yicha boshqargichchi bilan)	420; 6720		400...1000	0,4...2,5
Yopiq (teshiklar o'yilgan vallii)	2520; 4200		250...600	0,15...2,0
Ochiq (teshiklar o'yilgan vallii).	2520; 4200; 6300	40...800*	50...200	0,05...1

\*1 m<sup>2</sup> selluloza massasi.

Ish unumi sutkasiga 1,5 dan 3,5 tonnani tashkil etadigan qog'oz quyish mashinalarining texnik tavsiflari 83—85- jadvallarda keltirilgan.

83-jadval

### Ish unumi 1,5—3,5 t/sutka bo'lgan qog'oz quyish mashinasining texning tavsifi

Nomi	Markasi			
	1575-5,0	1760-6,0	2100-7,0	2300-8,0
Qog'ozning kengligi, mm	1700	1900	2100	2300
Ishchi tezligi, m/min			150...180	
Qog'oz zichligi, g/m <sup>2</sup>			16...30	
Ish unumi, t/sutka	5...6	6...7	7...8	8...9
Yon silindr diametri, mm			2500	
Silindrdagi bug' bosimi, MPa			0,3	
Uzlusiz ishlab turuvchi qog'oz quyish mashinasini tarkibiga kiruvchi mashina va nasoslar quvvati, kVt	85	100	115	125

1	2	3	4	5
Davriy ishlaydigan massa tayyorlash qurilmalari elektr dvigatellarining quvvati, kVt	213		230	
Mashina uzunligi, mm	12850		13180	
Mashina kengligi, mm	5570	5900	6250	6500
Mashina balandligi, mm			5080	
Massasi, t	50		57	62

84-jadval

Ish unumi 5—8 t/sutka bo'lgan qog'oz quyish mashinasining texnik tavsifi

Nomi	Markasi			
	1092-1,5	1092-2,0	1575-2,5	1575-3,5
Qog'ozning kengligi, mm	1300		1700	
Ishchi tezligi, m/min		30...80		
Qog'oz zichligi, g/m <sup>2</sup>		16...30		
Ish unumi, t/sutka	1,5...2,0	2,0...2,5	2,5...3,0	3,0...3,5
Yon silindr diametri, mm	1800		2000	2500
Silindrdagi bug' bosimi, MPa		0,3		
Uzluksiz ishlab turuvchi qog'oz quyish mashinasi tarkibiga kiruvchi mashina va nasoslar quvvati, kVt	37	46	55	60
Davriy ishlaydigan massa tayyorlash qurilmalari elektr dvigatellarining quvvati, kVt	80	108	118	132
Mashina uzunligi, mm	10000	10000	11000	11000
Mashina kengligi, mm	4050		5570	
Mashina balandligi, mm		4000		4400
Massasi, t	18	22	30	28

85-jadval


Ish unumlari 9—14 t/sutka bo'lgan qog'oz quyish mashinasining texnik tavsifi

Nomi	Markasi			
	1575-9	1760-10	2100-12	2400-14
Qog'ozning kengligi, mm	1700	1900	2100	2400
Ishchi tezligi, m/min		180...230		
Qog'oz zichligi, g/m <sup>2</sup>		13...40		
Ish unumi, t/sutka	8...9	9...10	11...12	13...14
Yon silindr diametri, mm		3000		
Silindrdagi bug' bosimi, MPa		0,5		
Uzluksiz ishlab turuvchi qog'oz quyish mashinasi tarkibiga kiruvchi mashina va nasoslar quvvati, kVt	96	115	145	155

1	2	3	4	5
Davriy ishlaydigan massa tayyorlash qurilmalari elektr dvigatellarining quvvati, kWt	270		310	
Gabarit o'chamlari, mm:				
— uzunligi	13900	13900	13900	13900
— eni	5570	5900	6250	6600
— balandligi	5580	5580	5580	5580

### 9.3. Nakat


Nakat ruscha so'z bo'lib, bunda qog'oz o'rash jarayoni tushuniladi.



9.2- rasm. Periferili nakatning umumiy ko'rinishi.


Bu jarayonda qog'oz yoki karton rulon ko'rinishida o'raladi (9.2- rasm). Bu maqsadda turli xil vallardan foydalaniлади (9.3- rasm).

**Tuzilishi.** Bunday nakaтlar stanina, naberli o'rash silindri, qabul qiluvchi va asosiy richaglar, tekislovchi vallar, rulonni tormozlash qurilmasi, rulonli arqon yoki siqilgan havo yordamida o'rash qurilmasi, tambur vallari komplekti (to'pi). Nakat tambur vallari magazinli yoki magazinsiz bo'lishi mumkin (86-jadval).



9.3- rasm. Magazinli tambur vali bor nakat (qog'oz o'rash):

1 — stanina; 2 — qog'oz o'ralgan val; 3 — yordamchi val; 4 — silindr; 5 — rulon qog'ozni to'g'rilovchi val; 6 — vallar magazini; 7 — qog'ozni yo'naltiruvchi val.



9.4- rasm. Magazinsiz tambur vali bor nakat (qog'oz o'rash):

1 — stanina; 2 — tambur val (rulon qog'oz bilan); 3 — yordamchi val; 4 — silindr; 5 — rulon qog'ozni to'g'rilasj vali; 6 — qog'ozni yo'naltiruvchi val.

Magazinli qog'oz o'rash mashinalarida 9.4- rasmida ko'rsatilganidek mashinaning yuqori qismida zaxirada vallar (6) joylashtirilgan bo'lib, jarayon paytida ishtirot etayotgan valga me'yordagi qog'oz o'ralib bo'lingach, u avtomatik tarzda chetga olinadi, uning o'rniga zaxiradagi navbatdagi val tushadi. Magazinsiz tamburi bor nakatlarda esa zaxirada vallari bo'lmagani uchun tabiiyki to'lgan val o'rniga yangisi o'rnatiladi.


86-jadval

#### Magazinsiz tambur vali bor nakatining texnik tavsifi

Poletnoni kengligi, mm	Gabarit o'lchamlari, mm			Massasi, t**
	uzunligi*	kengligi	balandligi*	
1680	6800/4400	5500	3800/2200	16/13
2100	6900/4500	6100	3800/2200	19/16
2520	7200/4800	6700	3800/2200	20,5/17,5
4200	7500/5000	9010	4000/2400	27/23
6300	8000/5400	11700	4100/2500	45/40
6720	8000/5400	12200	4100/2500	50/44

\* Kasr suratida tambur vallarning magazini bilan, maxrajida esa magazinsiz o'lchamlari berilgan.

\*\* Massada tambur vallar komplekti hisobga olinmagan.



**X-BOB. QOG'oz (KARTON) YUZASINI PARDOZLASH  
VA O'LCHAMLARI BO'YICHA QIRQISH**

**10.1. Elimlash-bo'rlash qurilmasi**


Qog'oz va karton quyish mashinalari tarkibida yelimlash-bo'rlash qurilmasi ham bo'ladi (10.1-rasm). Qurilmaning vazifasi — qog'oz yuzasini yelimlovchi pasta bilan qoplashdan iborat (87-jadval). Yelimlash-bo'rlash qurilmasi yelimni qog'oz (karton) polotno yuzasiga yupqa ko'rinishida surtadi. Yelimlash-bo'rlash presslarining vallariga komponent egiluvchan shaber yordamida me'yorida uzatib turiladi yoki sterjen yordamida press tirkishi orqali qog'oz polotnoga surtiladi. Qurilma quyidagi uzellardan tashkil topgan:

- yelimlash-bo'rlash presslari;
- polotnoni yo'naltirgich;
- quritish agregat;
- turli vazifalarni bajaruvchi avtomatlar;
- elektr yuritma.

**87-jadval**

**Yelimlash-bo'rlash qurilmasining texnik tavsifi**

Parametrlari	Qiymati
Mahsulot assortimenti	Qog'oz, karton
1 m <sup>2</sup> dagi mahsulot massasi, g	40...600
1 m <sup>2</sup> polotno bir tomoni ning sirtiga surtiladigan yelim miqdori, g:	
— bo'rlashda	2...8
— yelimlashda	0.5...2
Tezligi, m/min	800
Chetlari qirqilgan polotno eni, mm	6720
Siquvchi val diametri, mm	805
Siqmaydigan val diametri, mm	795
Gidrotizimdagи bosim, MPa	10
Pnevmotizimdagи bosim, MPa	0.5
Havoni quritish koloriferlaridagi bug' bosimi, MPa	1,0
Chetlari qirqilgan quyidagi kenglikdagi qog'oz eni uchun qurilma massasi, t:	
— 2520 mm	58
— 4200 mm	87
— 6720 mm	125



**10.1- rasm. Yelimalash-bo'rlash qurilmasining sxemasi:**

1 — yuqori val; 2 — pastki val; 3, 14 — shaberlar korpuslari; 4 — shaberni bosib siquvchi gidrotsilindr; 5, 12 — balkalar; 6, 13 — komponent uchun vannalar; 7 — gidrotsilindr; 8 — poddon; 9 — stanina; 10 — havo yordamida aylantirish qurilmasi; 11 — infraqizil nur yordamida quritgich.

## 10.2. Kalandr

Mashina kalandrlarining vazifasi — qog'oz yoki kartonni silliqlash, yaltiroqligini va zichligini oshirish hamda polotno eni bo'yicha qalinligini tekslashdan iborat.

Ishlab chiqarilayotgan qog'ozning ko'rinishiga qarab ikki, to'rt va olti valli kalandrlar qo'llaniladi. Ko'p valli kalandrlar katta tezlikda ishlaydigan gazeta qog'ozi ishlab chiqaruvchi mashinalarida qo'llaniladi. Yupqa qog'oz ishlab chiqarishda ikki — to'rt valli kalandrlardan foydalilanildi.


Kalandr va superkalandrlar farqlanadi. Superkalandrlar yordamida bo'rlanmagan qog'oz polotnoni ham silliqlab xossasini yaxshilash mumkin. Qog'oz va kartonni padozlashda quyidagi asbob-uskunalardan foydalilanildi:

- kalandr;
- superkalandr;
- „yumshoq“ kalandri qurilma;
- periferiyali (markazdan chetda joylashgan) nakatlar;
- yelimalash presslari;
- yelimalash-bo'rlash qurilmasi.

Kalandr stanina, korpus podshipnigiga o'matilgan vallar, siqish va ko'tarish mexanizmlari, polotnoni kalandrga qistirish (zapravka) tizimi va shaberlardan tashkil topgan (10.2 – 10.6 rasmlar). Kalandrlarning texnik tavfsi 88-jadvalda keltirilgan.

## Texnik taysifi


Chetlari qirqligan polotno eni, mm	Vallar soni	Chiziqli bosim kuchi, kN/m	Gabarit o'chamlari, mm			Massasi, t
			uzunligi	eni	bo'yi	
1680	2	65	4200	5900	5700	16
	4					22
	6					26
2100	2	52		6400		20
	4					26
	6					30
2520	2	39	4400	5100	6400	25
	4					34
	6					40
	2					27
	4					32
	6					38
4200	2	50	6500	10600	5900	40
	4					83
	6					95
	2					32
	4					73
	6					85
6300	2	46	9600	12300	7900	70
	4					125
	6					150
6720	6	43	9000	12000	7300	170



10.2-rasm. Qo'sh valli kalandr sxemasi:


a — yon tomondan ko'rinishi, b — old tomondan ko'rinishi;

1 — stanina; 2 — vallar (korpus va podshipnigi bilan); 3 — vallarni siqish va ko'tarish mexanizmi.



10.3- rasm. To'tt valli kalandr sxemasi:

a — yon tomondan ko'inishi, b — old tomondan ko'inishi:  
1 — stanina; 2 — vallar (korpus va podshipnigi bilan); 3 — vallarni siqish va ko'tarish mexanizmi



10.4- rasm. Olti valli kalandr:


a — yon tomondan ko'inishi, b — old tomondan ko'inishi:  
1 — stanina; 2 — shaber; 3 — vallar (korpus va podshipnigi bilan); 4 — vallarni nazorat qilish  
va ta'mirlash mexanizmi; 5 — vallarni siqish va ko'tarish mexanizmi

„Yumshoq“ kalandr yordamida polotno zichligining bir xilligi ta'minlanadi, bikirligi yaxshilanadi va g'ovakligi saqlab qolinadi.

„Yumshoq“ deyilishiga sabab bunday kalandrlarda qog'oz (karton)ga yumshoq (nozik) ishlov beriladi.


„Yumshoq“ kalandr shinalar, mexanik uzatma, vallarni boshqarish tizimi, gidroyuritma, moylash tizimi, elektr yuritma, vallarni qizdirish tizimi, avtomatik tarzda boshqariladigan va boshqarilmaydigan yuritmalardan tashkil topgan.

„Yumshoq“ kalandrnning ikki xil ko‘rinishi farqlanadi.  
Quyida shunday kalandrlarning sxematik ko‘rinishi keltirilgan.



10.5- rasm. 1-tur „Yumshoq“ kalandr:

- 1 — kalandr val; 2 — qizdiriladigan val;  
3 — stanina; 4 — rulonli to‘g‘rilovchi val;  
5 — qog‘ozni yo‘naltiruvchi val.



10.6- rasm. 2-tur „Yumshoq“ kalandr:


- 1 — kalandrli val; 2 — qizdiriladigan val; 3 — stanina; 4 — rulonni to‘g‘rilovchi val;  
5 — qog‘ozni yo‘naltiruvchi val.

## Kalandrlarning texnik tavsifi

Parametrlari Turi	Qiymatlari			
	2520		4200	
	I	II	I	II
Chiziqli bosimi, kN/m	110-300	110-300	110-300	110-300
Val diametri, mm: kalandrniki isitiladigan valniki	450	450	550	550
	600	600	800	800
Gabarit o'chamlari, mm: uzunligi kengligi balandligi	2500	3500	2600	3700
	5400	5400	7100	7100
	2800	2800	3000	3000
Massasi, t	28	45	35	60

Superkalandrdar har xil qog'ozlarning yaltiroqliq, silliqqliq ko'rsatkichlari yaxshilanadi va qalinligi tekislanadi. Superkalandrlar qog'oz quyish mashinasidan alohida o'rnatiladi. Superkalandrlar mashinaga o'rnatiladigan kalandrlardan qog'oz o'raladigan vallar va umuman vallari sonining ko'pligi hamda ular orasidagi chiziqli bosimning yuqoriligi bilan farqlanadi.

Superkalandr stanina, vallar komplekti, siqish mehanizmi, pastki valni tushirish mehanizmi, raskat, nakat, ko'targich, qog'ozni yo'naltiruvchi va tekislab beruvchi vallar, pastki val shaberi, bug'lab namlagich, qog'oz chetini qirqish (tekishlash), isitish va sovitish tizimlaridan tashkil topgan (10.7- rasm).



10.7- rasm. Superkalandr sxemasi:

- 1 — raskat (valni dumalatish mehanizmi); 2 — rulonni to'g'rilab beruvchi val; 3 — siqish mehanizmi; 4 — stanina; 5 — yuqoridagi val; 6 — to'ldirgich val; 7 — metall val; 8 — qog'ozni yo'naltiruvchi val; 9 — ko'targich; 10 — pastki valni pasaytirish mehanizmi; 11 — pastki valni siljitim qurilmasi; 12 — to'lgan vallarni saqlash uchun ustun; 13 — pastki val; 14 — nakat.


## Superkalandrning texnik tavsifi

Parametrlari	Qiymatlari			
Chetlari qirqilgan polotnoning eni, mm	2100	2520	3200	4200
Tezligi (hisoblangan), m/min		600		900
Chiziqli yuklanish, kN/m		300		350
Batareyadagi vallar soni, dona		8...12		
O'raladigan va o'raydigan rulonlar diametri, mm	1300	1500	2200	
Superkalandr massasi, t	155	180	210	250

**C3-15 rusumli superkalandr  
(TU 26-08-676-80)**

Bunday turdag'i superkalandrlar yozuv va bosma qog'ozlarni kalandrashga mo'ljallangan (10.8- rasm).

Superkalandrning sxemasi va uning uzel-mexanizmlari quyidagi rasmda keltirilgan Superkalandrning texnik tavsifi 91-jadvalda berilgan.



10.8- rasm. C3-15 rusumli superkalandr:

1 — harkatga keltiruvchi mexanizm; 2 — kran kajavasi; 3 — stanina; 4 — vallarni osib mahkamlash mexanizmi; 5 — vallarni siqish mexanizmi; 6 — yuqorigi val; 7 — bug' purkab namlovchi qurima; 8 — qog'ozni yo'naltiruvchi val; 9 — metall val; 10 — itarib kirgiziladigan (nabivnoy) val; 11 — harakatga keltiruvchi val; 12 — uzatma; 13 — quyi val; 14 — vallar orasini ochish tizimi; 15 — tashqi ko'targich; 16 — ichki ko'targich; 17 — nakat (o'rash mexanizmi); 18 — siquvchi val.


## C3-15 rusumli superkalandrning texnik tavsifi

	Kengligi, mm	2520
Ish tezligi, m/min:		
maksimal	600	
minimal	100	
Vallar soni:		
jami vallar	12	
itarib kiritiladigan	6	
metall (shu jumladan erkin harakatlanuvchi) vallar	6	
O'rovchi va qayta o'rovchi vallar diametri, mm	1500	
Gabarit o'lchamlari, mm	12120x9600x9120	
Massasi, t:		
oddiy vallar bilan birga	120	
erkin harakatlanadigan vallar bilan birga	115,72	

## 10.3. Yelimlash presslari

Yelimlovchi presslar qog'oz va kartonni yelimlashga mo'ljallangan bo'lib, qog'oz va karton quyish mashinalariga o'rnatiladi (10.9- rasm).

Tuzilishi. Yelimlash presslari gorizontal burchak ostida o'rnatilgan ikkita val, vallarni siqib turuvchi mexanizm, yelimni uzatib turuvchi kollektor, oqava suv to'planadigan vanna, ortiqcha yelimni to'planadigan va uni qayta ishlatish uchun retsirkulyasiyaga uzatkich, yuritma va nazorat qilish asboblari va avtomat tizimlardan tashkil topgan. Qog'oz polotnoga yelim solingan vanna orqali o'tayotganda surtiladi. Qog'oz polotno sirtiga surtilgan yelim bosim presslari yordamida qog'ozga singdiriladi. Ortiqcha yelim esa valning chetlari bo'ylab retsirkulyasiya uchun voronka orqali qaytib keladi. Vannadagi yelim sathi kollektorga o'rnatilgan lo'kidon yordamida boshqariladi. Vallar orasidagi chiziqli bosim vallarni siquvchi mexanizm yordamida hosil qilinadi (92-jadval).



10.9- rasm. Yelimlash pressining sxemasi:

1 —yuqori val; 2 —stanina; 3 —ortiqcha yelimni yig'ish uchun voronka; 4 —siquvchi vallar gidrotsilindri; 5 —oqava suvlar uchun vanna; 6 —pastki val; 7 —kollektor.


## Yelimlovchi pressning texnik tavsifi

Parametrlari	Qiymati
Mahsulot assortimenti	Qog'oz, karton
1m <sup>2</sup> mahsulotning massasi, g	40 - 600
1m <sup>2</sup> qog'oz polotnoning bir tomoniga surtilgan yelim massasi, ko'pi bilan, g	1,5
Mashina tezligi, ko'pi bilan, m/min	400
Qog'oz polotnoning eni, ko'pi bilan, mm	4200
Siquvchi val diametri, mm	805
Siqmaydigan val diametri, mm	795
Siquvchi vallar gidrosistemasiidagi ortiqcha bosim, MPa	10

## 10.4. Qog'ozni bo'yamasiga qirqish dastgohi


Qog'oz bobinada ramaning orqa tomoniga yuklanadi va kalandr orqali o'tkaziladi, so'ng asosiy blokka keladi. Bu yerda qog'oz kichik rulonlar shaklida qirqladi. Dastgoh qog'ozning uzilishini nazorat qiladigan avtomat tizim bilan jihozlangan. Qog'oz uzilganda mashina o'z-o'zidan to'xtaydi, o'ralib bo'lgach rulon qog'oz avtomatic ravishda tushirilib olinadi. Qirqladigan qog'ozning 1 m<sup>2</sup> ining massasi 13...60 g bo'ladi. Dastgoh ishlashi uchun 5 kg/sm<sup>2</sup> li kompressordan foydalilanadi. Zamonaliv mashinalarning eni 10 m, qog'oz polotno o'raladigan tamburning diametri odatda 2,0...2,5 m ni tashkil etadi.

Qog'ozni ko'ndalangiga qirqish mashinasi siki bilan ishlaydi, uning tezligi qog'oz yuzasiga pardozlovchi modda surtish mashinasi tezligidan 2...3 marta yuqori bo'lib, 2000...2500 m/min ni tashkil etadi. Qirqish uchun rulondagi qog'oz mashinaga uning yuqorisidan yoki pastidan uzatilishi mumkin (10.10 – 10.12- ra'smlar).



10.10- rasm. Rulondagi qog'ozni bo'yamasiga qirqish dastgohining sxemasi  
(qog'oz polotno yuqoridan uzatiladi):


1 — dumalatish mexanizmi; 2 — o'ralgan rulon; 3 — rostlash qurilmasi; 4 — stanina; 5 — qirqish mexanizmi; 6 — siquvchi val; 7 — o'ralayotgan rulon; 8 — tayyor rulonni tushirish qurilmasi;  
9 — rulonni ko'tarib turuvchi vallar.



**10.11- rasm.** Bo'yamasiga qirqish dastgohining sxemasi  
(qog'oz polotno pastdan gorizontal holatda uzatiladi):

1 — rulon qog'oz; 2 — dumalatish mexanizmi; 3 — to'g'rilovich qurilma; 4 — stanina; 5 — o'ralayotgan rulonni siqib turuvchi val; 6 — o'ralayotgan rulon; 7 — rulonni tushirish qurilmasi; 8 — ko'tarib turuvchi vallar; 9 — polotnoni qirqish qurilmasi.

Amalda vertikal holatda yuklangan polotnoni qirqish sifatini nazorat qilish ancha qulay hisoblanadi.



**10.12- rasm.** Bo'yamasiga qirqish dastgohining sxemasi (polotno pastdan vertikal holatda uzatiladi):

1 — stanina; 2 — qog'ozni yo'naltiruvchi val; 3 — rulon qog'oz; 4 — dumalatish mexanizmi; 5 — qirqish qurilmasi; 6 — ko'tarib turuvchi vallar; 7 — tushirish mexanizmi; 8 — tayyor o'ralayotgan rulon.


Polotnoni bo'yamasiga qirqish mashinalarning markalari va ularning texnik tavsifi 93-jadvalda keltirilgan.

## Polotnoni uzunasiga qirqish mashinasining tavsifi

Parametrlari	БС-III-1750	БС-III-1950	БС-III-2150	БС-III-2450	БС-III-2700
Qog'oz formati, mm	1750	1950	2150	2450	2700
Ish tezligi, m/min			500 ~ 550		
Rol diametri, mm			1300		
Minimal qirqish kengligi, mm			180		
Vtulkaning ichki diametri, mm			76		
Bobinaning maksimal diametri, mm			1300		
O'rалайотган qog'oz qatlamlari soni			2		
Quvvati, kVt			7,5 ~ 22		
Gabarit o'lchamlari, mm			8600x(3200-4200)x2000		
Massasi, kg			11500 - 20000		

Rullonli mahsulotlarning ko'satkichlari quydagicha bo'ladi: qog'ozning qalinligi — 90 dan 450 mkm gacha; 1m<sup>2</sup> ning massasi 28 dan 300 g gacha (10.13- rasm).

Qog'ozni uzunasiga qirqish dastgohi — ancha mukammal ishlangan. Bu dastgohda qog'oz ikki usulda qirqiladi: qaychi prinsipida va bosim ostida. Aylana shaklida joylashtirilgan bir juft disk pichoqlar qog'ozni qaychi usulida qirqadi.




10.13- rasm. Rulondagi polotnoni disksimon juft qaychilar bilan uzunasiga qirqish dastgohining sxemasi:

1 — polotno ruloni; 2 — qog'ozni uzatuvchi vallar; 3 — rostlab turuvchi silindr; 4 — o'tkazuvchi vallar; 5 — qirqish qurilmasi; 6 — tayyor rulon.

Polotnoni uzunasiga va chetlarini tekislab qirquvchi qurilma 4 juft pichoq bilan jihozlangan. Qurilmaning pastki qismiga o'rnatilgan pichoq alohida o'rnatilgan elektr dvigatel yordamida ishga tushiriladi. Qaychi usulida ishlaydigan pichoqlar qog'ozni aniq tekis qirqilishini ta'minlaydi. Qirqish oralig'inining minimal qiymati 19 mm, chetlariniki 5 mm bo'ladi.

**10.5. C3-201 rusumli rulonni bo'ylamasiga qirqish dastgohi  
(TU 26-08-597-76)**

Dastgoh 1 m<sup>2</sup> ining massasi 20-120 bo'lgan qog'ozni qirqish va qayta o'rashga mo'ljallangan.  
Uning texnik ko'rsatkichlari 94, 95-jadvallarda keltirilgan.



**10.14- rasm. C3-201 rusumli bo'ylamasiga qirqish dastgohining sxemasi:**

- 1 — harkatga keltiruvchi mechanizm; 2 — stanina; 3 — rulonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi mechanizm;  
